



Norsaid Oydinov

TASVIRIY SAN'AT TARIXI

0-39

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

NORSAID OYDINOV

TASVIRIY SAN'AT
TARIXI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif
vazirligi tomonidan o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etilgan*



TOSHKENT
«IJOD» NASHRIYOT UYI - 2007

Oydinov Norsaid.

Tasviriy san'at tarixi: O'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma.—T.: «IJOD» nashriyot uyi, 2007.—80 b.

Taqrizchilar: San'atshunoslik nomzodi, professor
N.Abdullayev.

«Tasviriy san'at» fani o'qituvchisi
Sh.Ahmadjonova.

Ushbu qo'llanmada tasviriy san'atning tur, janrlari va tarixi haqida hikoya qilinadi. Tasviriy san'at namunalari bo'lgan haykallar, devoriy suratlar haqida so'z yuritiladi. Bir qator taniqli rassomlarning ijodi, hayoti haqida ma'lumotlar beriladi. Qo'llanma san'at va madaniyat sohasidagi o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

BBK 85.1.я722

Nashrga

tayyorlovchi:

Hamdam Ismoilov

KIRISH

O'zbek xalqining o'tmishi Markaziy Osiyo xalqlari tarixi bilan chambarchas bog'liq. Xususan, san'at tarixi mavzusida ham uzviy mushtaraklikni ko'ramiz. Ushbu qo'llanma umumturk ma'naviyatining ana shunday ulkan bir bo'lagi - tasviriy san'at tarixi va nazariyasini o'rghanishga qaratilgan. Bu mavzuni o'rghanishdan asosiy maqsad o'quvchilarni tasviriy san'at sirlari bilan tanishtirish, yoshlar ongida o'tmish san'atiga hurmat tushunchalarini shaklantirishdan iboratdir. Zotan, ajdodlarimiz yaratgan tasviriy, amaliy bezak san'ati, shuningdek, me'morchilik yodgorliklari tarixning jonli va ishonchli ko'zgusi sanaladi. San'atning mo'jizali sirlari shundaki, san'atkorlar yaratgan ijod namunalari sarhad tanlamaydi. Shuning uchun ham odamlar qaysi millatga mansub bo'lmasin, qaysi hududda yashamasin san'at olamidan birdek bahramand bo'lischadi. San'atkorning ezcgulik tarqatuvchilik vazifasi esa hamma mintaqalarda o'zgarmasdir.

O'zbekiston tasviriy san'ati tarixi - jahon tasviriy san'ati tarixining ajralmas qismi. Biroq, O'zbekiston hududiga mansub bo'lgan tasviriy san'at tarixi bir qator alohida ko'rinishlarga ham ega. Biz o'sha o'ziga xoslik va farqlanish jihatlarini quyidagi bosqichlar asosida o'rghanishni maqsadga muvofiq deb topdik:

1.G'orlar, qadimgi toshlar va turli qoyalarda saqlanib qolgan ibtidoiy tasvirlar;

2.Loy, ganch, tosh va yog'ochdan ishlangan qadimgi haykallarning saqlanib qolgan ijod namunalari, turli hunarmandchilik buyumlaridagi tasvirlar;

3.Shoh saroylari, ibodatxona hamda shu kabilarga oid devoriy rasmlar;

4.Islom madaniyati davridagi kitob va albomlarga ishlangan miniatyura va tasvirlar, me'morchilik obidalari hamda boshqa yodgorliklardagi rasmlar;

5.Yevropa san'ati ta'sirida yangicha shakllangan XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi tasviriy san'at;

6. XX asr tasviriy san'ati;

7. Uyg'onish davri tasviriy san'atidagi oqimlar.

Arablar istilosigacha bo'lgan tasviriy san'at namunalarini zamonamizga nisbatan eng qadimgilari, deb atash mumkin. Tasviriy san'at tarixining ikkinchi bosqichi esa islam madaniyati davrida vujudga kelgan. Bu davrda inson suratlari, turli haykallar o'rmini ko'proq bezaklar va naqshlar egallay boshlagan. Chunki, inson suratlarining keng targ'ib etilishi islam aqidalariga unchalik monand kelmagan. Xuddi shu jihatdan ham ikki davrni qiyoslab o'rganish qiziqarli mashg'ulotdir. Shularni hisobga olgan holda biz O'zbekiston tasviriy san'ati tarixi fanini yuqoridagi yettita bosqich va uchta asosiy katta davrlarga bo'lib o'rganishni maqsadga muvosiq deb topdik.

Ushbu kitobda siz tasviriy san'at tarixi va turli davrlarda yaratilgan noyob asarlar, ularning mazmuni bilan tanishasiz. Bugungi davrda o'tmishtan san'atimiz tarixini o'rganish, jahon san'at durdonalari bilan san'atimiz mushtarakligini tekshirish jarayonlari beqiyos ahamiyatga egadir. Demak, tasviriy san'at tarixini o'rganishning ajralmas qismi bo'lmish san'atshunoslikka oid bilimlardan boshlamoq lozim. Tasviriy san'at o'zi nima? Uning qanday tur va janrlari mavjud? Bu sohani tushunish va mushohada qila bilishning qanday qonuniyatlari bor, degan savollarga javob berish zarur. Mazkur qo'llanma ana shu savollarga javob tariqsida yaratildi.

I BOB. TASVIRIY SAN'AT TUSHUNCHASI, UNING TUR VA JANRLARI

SAN'AT O'ZI NIMA?

Odamlar tomonidan biror-bir ish, narsa, buyum va hokazolar mohirlik bilan bajarilishi va maromiga yetkazilib ishlanishi insonning san'atkorlik darajasini bildiradi. Shu boisdan ham rassom, haykaltarosh, me'mor, kulol, bastakor, yozuvchi va boshqa ijodkorlar yaratgan asarlarni san'at asari deymiz. San'at qaysi ko'rinishda bo'lmasin kishilarning his-tuyg'usiga, ruhiyatiga ta'sir etuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Har bir ijodkor o'z-o'zicha izlanadi, o'z-o'zicha mehnat qiladi. Ana shuning uchun ham san'at o'ziga xos turlariga ega.

Adabiyot, musiqa, teatr, kino, tsirk, me'morchilik, tasviriy va amaliy bezak kabi boshqa san'at turlari ham mavjuddir. Biz siz bilan ushbu kitobda asosan O'zbekiston tasviriy san'ati tarixi va uning namunalari bilan tanishamiz.

Tasviriy san'at – eng qadimiy va keng tarqalgan san'at turlaridan biridir. Uyg'onish davrining buyuk rassomi Leonardo da Vinci "Tabiat yaratgan shakllarning barcha sifatlariga o'z san'ating bilan taqlid qilishda ustasi farang bo'limasang, yaxshi musavvir bo'lmog'ing dargumon", deb ta'kidlash barobarida tasviriy san'atni egallash tabiatni o'rGANISH, uni sevish bilan naqadar bog'liqligini ko'rsatib, bu sohaning o'ta murakkab soha ekanligini uqtirgan edi.

Tasviriy san'at o'z o'rnida haykaltaroshlik, rang-tasvir va grafika kabi turlarga bo'linadi. Tasviriy san'atda voqelik, borliq shakllar, chiziqlar, ranglar orqali tasvirlanadi.

Tasviriy san'at monumental va dastgoh ko'rinishlariga ham ega. Monumental deyilganda hajm jihatidan katta, me'morchilik, park, bog' san'atiga, shuningdek, biror-bir badiiy muhitga mo'ljallangan tasviriy san'at asarlari tushuniladi. Dastgoh asari asosan erkin ijodiy faoliyat tufayli yaratiladi. Ularni xohlagan joyga qo'yish, namoyish qilish mumkin bo'ladi. Masalan: O'zbekiston milliy bog'idagi buyuk

bobomiz Alisher Navoiyning haykali monumental asardir. Agar haykal ijodkorning o'z xohishi va ijodiy izlanishi miqyosida ishlansa, hamda shu yo'sindagi asarlarga xos jihatlar amalga oshirilsa, bu dastgoh asari bo'lib uni muzeysiga yoki o'quv darsxonalariga qo'yish mumkin.

Tasviriy san'atning miniatyura yo'nalishi xarakteri va uslublari bilan alohida ajralib turadi. Miniatyura asarlarida rangtasvir va grafika turlari unsurlari ham ishtirok etadi. Miniatyura san'atidagi asarlar to'g'ri uch o'chamli chiziqli perspektivaga asoslangan tasviriy san'at turlaridan ma'lum darajada farqlanadi. Ammo shu narsa ham ma'lumki, o'tmis miniatyura san'atining o'ziga xos sir-asrорлари bo'lib, bu sohada o'rganilmagan badiiy muammolar juda ko'p. Miniatyura san'atining siru asrорлари va muammolari xususida ushbu kitobning miniatyurachi rassomlar hayoti va ijodi haqidagi mavzularida batafsilroq to'xtalishga harakat qilamiz.

Tasviriy san'at turlari

1. Haykaltaroshlik. Bu san'at ko'rinishiga qarab dumaloq va qabariq (relef) haykallar yaratish turiga bo'linadi. Dumaloq haykallarni hamma tomondan ko'rish mumkin. Agar bu san'atda inson obrazining bosh qismi yoki beligacha tasvirlansa, bunday haykallar byust deb ataladi. Relef (qabariq) haykallar esa yuzaga bo'rtirib ishlangani uchun faqat bir tomondan ko'rishga mo'ljallangan bo'ladi. Barelef o'z o'rnda Gorelef va Barelef guruhiga bo'linadi. Gorelef yuzaga yopishgan holda nisbatan bo'rtib ko'rindi. Goho biror-bir bo'lagi dumaloq haykal darajasida ham bo'ladi. Bareleflar yuzaga nisbatan kam bo'rtib tasvirlanadi, bu o'rinda tanga va taqinchoqlarni misol qilib keltirish mumkin. Haykaltaroshlik san'ati asosan qattiq jismlardan -tosh, yog'och, marmar, granit, bronza, gips va boshqa shu kabi materiallardan tayyorlanadi.

Haykaltaroshlik san'atining qadimgi namunalari xalqlarimizning tarixini, e'tiqodlarini, estetik dunyoqarashlarini, turmush tarzini o'zida aks ettirgani bilan qadrlidir.

Qadimgi misrliklarning fir'avn, Tutanxamon. Exnaton hamda go'zal va aqli malika Nefertitilar siyomolari aks ettirilgan haykallari nafisligi, to'laqonliligi bilan eng qadimgi haykallar ichida butun jahonga mashhurdir. Ayniqsa, malika Nefertitining byustida o'ziga xos go'zalligi, ichki ma'naviy olami, xotin-qizlarga xos nazokati birmuncha mukammal tasvirlangan. Bu portret-haykal o'z zamona sinining mashhur haykaltaroshi Tutmess tomonidan mahorat bilan yaratilgan. Nefertiti byustingining qimmati rangli, qimmatbahoh toshlardan me'yorida qo'llanilganligi bilan ham izohlanadi. Yuz

tuzilishi, bosh kiyim, bo'yindagi taqinchoqlar tasvirida rangli toshlar juda ustalik bilan ishlatalganki, haykaltaroshlik san'atida bu xildagi namunalar kam uchraydi. Nefertiti byusti timsolidi: rangli haykaltaroshlikning o'ta san'atkorona bajarilganining guvohi bo'lamiz. Qadimgi yunonlarning va rimliklarning bu boradagi izlanishlari ham e'tiborga molik. Chunonchi, mashhur yunon haykaltaroshi Mironning "Disk otuvchi" asari har tomonlama ma-horat bilan yaratilgan. Yunon asotirlarida keltirilishicha, Afrodita go'zallik va muhabbat ramzidir. Buni Afroditaga bag'ishlangan haykallarda ko'ramiz. Ular nafisligi, go'zalligi bilan kishini o'ziga rom qiladi. Bu o'rinda ayniqsa "Milos Afrositasi" haykali alohida diqqatga sazovor. Eng qadim xalqlardan hindlar o'zlarining diniy e'tiqodi bo'l mish Buddaga oid minglab haykallar yaratishgan.

O'l kamizning Surxondaryo viloyatidan qadim kushonlar davriga oid buddizmga xos haykaltaroshlik namunalarini ham ko'plab uchratish mumkin, O'zbekiston hududidagi qadim Samarqandning o'rni - Afrosiyobdan bir qancha haykalchalar topilgan. Bu haykalchalarda go'zallik, sadoqat, insoniylik va diniy e'tiqodlar aks ettirilgan.

Haykaltaroshlik san'ati asarlari ham mazmuni va vazifasiga qarab monumental, dekorativ va dastgoh turlariga bo'linadi. Monumental haykaltaroshlik ma'lum bir muhit, me'morlik binolari hamda tabiatga uyg'unlashtirilib ishlangan bo'ladi. Toshkent shahridagi O'zbekiston mudofaa vazirligining binosi qarshisidagi "Jangchi soldat", shimoliy temir yo'l vokzali yonida o'rnatilgan do'stlikni sharaflovchi granitdan ishlangan haykal, sohibqiron Amir Temur, Alisher Navoiy haykallari shu turga mansub.

Mustaqil mazmunga ega bo'lgan, voqelikni borligicha aks ettirigan hamda inson ichki ruhiy olamini o'ziga xos tarzda ochib beradi-gan erkin ijodiy asarlar, shu jumladan, muzeylar, ko'rgazma zallari, hatto xonadonlarga qo'yishga mo'ljallangan haykallar dastgoh haykaltaroshligi deb yuritiladi. Damir Ro'ziboyev, Eynulla Aliyev, Abdumo'min Boymatov, Ulug'bek Mardihev, Ilhom Jabborov kabi haykaltaroshlar shu sohada samarali ijod qilishmoqda.

Grafika san'ati - tasviriyl san'atning eng keng tarqalgan hozirjavob va jangovar turidir. Grafika san'atida voqelik asosan chiziqlar, shakllar va oq-qora ranglar orqali tasvirlanadi. Bu san'at turida har doim ham turli ranglar ishlatalavermaydi, ishlataliganida ham asar mazmunini ochib berishda asosiy vazifani o'tamaydi. Bo'yoqlar kishilarni jalb qilishi yoki chaqiriq vazifasini bajarishi mumkin. Shuning uchun ham, bu sohada ikki, uch xildan ortiq bo'yoq deyarli ishlatalmaydi. Grafika san'ati o'z o'rnidagi turlarga bo'linadi.

Masalan: dasigoh grafikasi turiga, ijodkorning mustaqil badiy faoliyatini anglatish bilan birga yangi fikr va g'oyalarni ilgari suradigan asarlar kiradi. Kitob grafikasi san'atida esa kitobning turiga qarab muqova, titul muqova kabilar hisobga olinadi. Kitob grafikasi shu kitobning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Kitob, gazeta-jurnal grafikasi va bularidan tashqari, ana shu kitob grafikasining o'ziga xos bir turi gravyura san'ati deyiladi. Gravyura ham o'z o'rnidagi quyidagi turlarga bo'linadi.

1. Litografika - asosan toshga o'yib ishlanadi.
2. Linogravura - linoleumga o'yib ishlanadi.
3. Ksilografiya-yog'ochga o'yib ishlanadi.
4. Ofort - alyuminiy va boshqa metallarga o'yib ishlanadi.

Grafika san'atining yana bir turi plakatlar yasashdir. Siyosiv plakatlar, reklama(tijorat) afishalar, satira va yumoristik asarlar shular jumlasidandir. Plakatlar malum bir mavzuga (tinchlik, ekologiya, paxta kabilar) qaratilgan bo'ladi. Sanoat grafikasi ga esa vorliq, ramz va boshqalar kiradi. Arxegrafikada loyiha, reja, uy sxemasi, manzil bo'yicha yo'nalish kabilar tasvirlanadi.

Grafika san'atining mashhur ustalari Sulton Ali Mashhadiy, Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinci, Albert Durer o'z zamonasida samarali ijod qilishgan. O'zbekistonning XX asr grafikachi rassomlaridan Iskandar Ikromov, Qutlug' Basharov, Telman Muhammadov, Nikolay Ten, Ne'mat Hakimov va boshqalar ijodi e'tiborga molik.

Rangtasvir - asosan bo'yoqlar vositasida matoga, devor ga shuningdek, tekislik va yuzalarga ishlanadigan san'at turidir. Tasvir mazmuni, xarakteri va shunga o'xhash barcha xususiyatlari bo'yoqlar orqali ifodalab berilsa rangtasvir san'ati deb ataladi. Tasviriy san'atning bu turida ijodkorning ichki kechinmalari, ranglarni bir-biriga me'yorida qo'shib ishlatish natijasida namoyon bo'ladi. Masalan, qizil va qora bo'yoqlar qo'shib ishlatilishi fojiaviylikni aks ettirsa, och moviy va yashil ranglarni o'ziga xos bog'lash natijasida tinch va osoyishtalik holatlari tasvirlanishi mumkin. Rangtasvir san'ati jozibali va qiziqarliligi bilan nafaqat o'zlashtirishda, hatto uni idrok qila bilishda ham o'quvchidan muayyan tayvorganlikni talab etadi.

Tasviriy san'atning o'ziga xos nafis bu turi insoniyat tafakkurining noyob namunasi sifatida kishilarni necha asrlardan beri o'ziga rom qilib kelmoqda. O'zbekiston hududida ham qadimdan rangtasvir san'ati "tarraqqiy etganligini Afrosiyobdag'i devoriy rasmlar, Varaxsha va Bolaliktepa tasviriy namunalaridan bilish mumkin. Bu o'tmish rangtasvir san'ati ajdodlarimizning go'zallik borasida erishgan

yutuqlarini hikoya qilibgina qolmasdan, tarix sirlarini olib beruvchi ko'zgu vazifasini ham bajara oladi. Rangtasvir san'atining mashhur vakillaridan Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Rembrandt, Karl Bryullov, Anri Matiss, XX asr o'zbek rangtasvir san'ati ustalaridan O'rol Tansiqboyev, Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Malik Nabihev, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzayev, Akmal Ikromjonovlar ijodi diqqat-e'tiborga molik. Rangtasvir san'ati o'z o'rniда monumental, dastgoh, dekorativ bezak ko'rinishlarga ajraladi. Monumentallik ko'rinishida ijtimoiy hayot voqealari aks ettiriladi va tasvir uzoq masofadan ko'rishga mo'ljallanadi. Monumental ko'rinishdagi rangtasvir san'ati turi devor yuzasiga ishlash (freska), turli rangli toshlar, shishalar, sirli sopollarning devorda ishlatilishi (mozaika), maxsus to'rtburchak va ramkalar ichida tasvirlash (panno) yo'nalişlarini ham o'z ichiga qamrab oladi. Dekorativ rangtasvir san'ati esa bezash vazifasini o'taydi. Teatr, kino va boshqa shunga o'xshash sohalarda dekorativ rangtasvir san'ati qo'llaniladi.

Tasviriyl san'at janrlari

Portret janri. Inson qiyofasini ichki psixologik olami bilan bog'langan holda aniq, bir obrazda yaratilishi portret san'ati deb yuritiladi. Portretda insonning to'la gavdasi, yarmi yoki yuz qiyofasining faqat o'zi ham bo'lishi mumkin. Portret yaratish o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, insonning anatomik tuzilishi dan tortib ichki ruhiy, ma'naviy, shuningdek, tashqi ko'rinishidagi barcha jihatlarini aks ettirishi bilan san'at darajasidagi asar bo'lishi mumkin. Darhaqiqat, har bir insonning ichki dunyosi, go'zalligi, tabiat ato etgan andazasi mavjud. Portretchi rassom odamlarga xos turli harakatlarni his qila bilmog'i, ayniqsa, odamning qiyofasidagi samimiylilik yoki soxta jihatlarni tasvirlay bilish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Tasviriyl san'atning portret janri insonning ma'naviy qiyofasini o'zida ifodalashi bilan san'atning boshqa sohalardan birmuncha farq qiladi. Portret san'atini yaratishda beباho yutuqlarni qo'lga kiritgan buyuk rassomlardan Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinci, Rembrandt, shuningdek, o'zbek rassomlaridan Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Chingiz Ahmarov va boshqa bir qancha rassomlarni misol qilib keltirish mumkin.

Natyurmort-fransuzcha jonsiz tabiat degan ma'noni beradi. Odamlar hayatida ishlatiladigan buyum-narsalar, sabzavot va mevalar, asbob-uskuna kabilarga o'xshash namunalarning tasviri muayyan shaklda chizilishi mazkur janrga xos. Ma'lumki, har bir rassom tasviriyl san'at



sirlarini o'rganishni natyurmort ishlashdan boshlaydi. Buyumlar va narsalar shaklini, formasini, xarakterli o'zlashtirish san'atning boshqa jihatlarini va turlarini o'rganishdagi dastlabki boqlardir. Lekin bu natyurmort san'at siyatida faqatgina boshlang'ich vazifa bo'lib qoladi, degan ma'noni bermaydi. Vaholanki, natyurmortning san'at darajasida yaratilishi o'ziga xos murakkab va katta mакtabni talab qiladi. Tasviriy san'at tarixida Vil'yam Klass Xeda, Jan-Batist - Simon Marden.

Frans Snayders, Yanvan Geysum, Rahim Ahmedov, Akmal Ikromjonovlarning o'z o'rni bor.

Manzara janri-tabiatning turli ko'rinishlarini tasviriy san'atda aks ettirilishidir. Tog', o'rmon, dengiz, shahar va qishloq manzalarining ko'rinishlari aniq bir mazmunni anglatса bunday asarlar manzara janriga tegishlidir. Gap manzara janri haqida ketar ekan, manzaraning mohir ustalari Klod loren, Shishkin, Levitan, N.Karaxan, Isfandiyor Haydarov va boshqa mashhur rassomlarui ijodini bu borada misol keltirish mumkin.

Tarixiy janrdagi asarlarda tarixiy voqealar, tarixiy obrazlar aks ettirilsa, batal janrida tarixiy jang voqealari, harbiy obrazlar tasvirlanadi.

Animal janri - majoziy obrazlarni aks ettiruvchi tasviriy san'at asarlaridir. Bunda asosan turli hayvonlar, qushlar, ularning harakatlari, qiyofalari va shu obrazlar orqali hayat voqealari aks ettiriladi.

Tasviriy san'atda kompozitsiya

Har bir tasviriy san'at asari kompozitsiyasining o'ziga xos tuzilishi va mazmuni bilan borliq jihatlari mavjuddir. Ana shuning uchun ham tasviriy san'at asari kompozitsiyaming umumiy qonuniyatlariga amal qilgan holda yaratiladi. Bu o'rinda biz kompozitsiya tushunchasi o'zi nima? U qanday qonuniyatlarni talab qiladi, degan savolga ma'lum darajada javob bera olmog'imiz lozim.



Kompozitsiya tuzish, joylashtirish, ijod qilish natijasida san'atning alohida qismlarini mantiqan bir butunlikka keltirish ekanligini anglatadi. Tasviriy san'atda kompozitsiya juda keng ma'noga, o'ziga xos alohida muhim jihatlarga egadir. Yana shu narsa diqqatga sazovorki, tasviriy san'atning har bir turi yoki janrida kompozitsion tuzilish ma'lum darajada farqlanishni talab qiladi. Tasviriy san'at asarida kompozitsiyaning oddiy qonunlaridan tortib asar mazmunini ochib berishgacha bo'lgan ijodiy izlanishlarida ham o'ziga xos kompozitsiya sirlari bo'ladi. Asarning badiiy mazmuni, qiymati, san'at darajasida yaratilishi tomoshabin, o'quvchi tomonidan idrok qilinayotganda ba'zan ijodkorning o'zi o'ylamagan sezilarli qirralari ham yuzaga chiqib qolishi mumkin. Kompozitsiya ana shunday murakkab san'atning mantiqiy tuzilishini tashkil qiluvchi sohadir. Tasviriy san'at tarixidagi namunalarni to'g'ri tahlil qila olish uchun kompozitsiya haqidagi nazariy tushuncha va bilimga ega bo'lmoq lozim.

O'zbekiston tasviriy san'ati namunalarini san'atshunoslik nuqtai nazaridan o'rganishda kompozitsion tahlillarga tez-tez duch kelamiz. Shunday qilib, rassomlarimiz yaratgan asarlarni o'rganish jarayonida kompozitsiya tushunchasi haqidagi bilimimiz, fikrimiz yanada boyiydi va bu mavzuning yangi-yangi qirralari bilan tanishib boramiz.

II BOB. O'ZBEKISTON HUDUDIDAGI QADIMGI TASVIRIY SAN'AT

Ibtidoiy tasviriy san'at namunalarini haqida

Ajdodlarimiz tarixining eng qadimgi davrlarida tasviriy ifodalar beqiyos ahamiyat kasb etgan. Negaki, eng qadimgi odamlar bir-birliga fikrlarini, munosabatlарини, istaklarini chiziqlar, oddiy shakllar, primitiv tasvirlar orqali yetkazishga intilganlar. Masalan, ular ov qurollarini tasvirlash orqali ovga bormoqchi ekanliklarini ifodalarasalar, yovvoyi buqa va boshqa turli hayvonlar tasvirlari orqali, o'sha hayvonlarni ovlamoqchi ekanliklarini bildirganlar. Hozirgi O'zbekiston hududidan ham ana shunday ibtidoiy jamoa davriga mansub o'nlab tasvirlar qoldiqlari topilgan. Shulardan biri Zaravutsoy g'orida ishlangan ov manzarasidir. Mazkur g'ordagi rasmlarda qadimgi rassomlarning o'ziga xos faoliyatini korrish mumkin. Qo'hitang tog'ining eng yuqori qismining birida joylashgan bu g'orni "Oltin olov qoyasi" yoki "Oltin olov darasi" deb ham atashgan. Chunki g'or - oltin, o't - olov ma'nosida ishlatilgan. Shu bois bu muqaddas yodgorlik "Zaravutsoy" nomi bilan atalib kelinmoqda. Zaravutsoy ov manzarasidagi turli rasmlarni kuza-tish qadimgi odamlarning hayotini, turmush tarzini jonli tasavvur qilishga yordam beradi. Ibtidoiy odamlar hayatida oychilik asosiy mashg'ulot turi bo'lganligi sababli ibtidoiy tasvirlarda ov manzarasi keng o'rinni egallagan.

Tasviriy san'atning ibtidoiy davriga mansub namunalaridan biri Jizzax viloyatidagi Taqatosh nomi bilan atalib kelinayotgan toshdag'i tasvir yozuvlardir. Bu tasvirlarda ham fikr, sezgi, amaliy ehtiyoj kabi tuyg'ular aks ettirilgan. Qadimiy tasvirlardan yana biri Zarafshon etaklaridagi "Sarmishsoy" tasvirlarida esa ibtidoiy rassomlar ijodi o'z aksini topgan. Ibtidoiy tasviriy san'at namunalarini umuman qadimgi san'atning tiklanishida arxeologlarimizning samarali mehnatlari diqqatga sazovor. Chunonchi, Sarmishsoy rasmlari haqida A. Muhammadjonov "Qadimgi Buxoro" kitobida shunday qiziqarli fikrlarni yozadi: "Bu ibtidoiy tasviriy san'at

asarlari Sarmishsoy darasining ikki yuzida qad ko'targan qoya-toshlarning silliq yuzasiga solingan. Ularning asosiy qismi uchli ashoblar vositasida surunkasiga zarb bilan yoki o'tkir qirrali kes-kichlar vositasida chizib yoki tarashlangan. Ming yillar osha ularning eng qadimiy nusxalari quyosh va shamol ta'sirida uniqib qorayib ketgan bo'lsa-da, choshgoh va kech peshinlarda ko'zga yaqqol tash-lanadi.

Sarmishsoy qoyalarida yovvoyi buqalar, shoxlari atrofga butalab ketgan bug'u va qulonlar, yelib borayotgan tog' takasi, ohu, to'ng'iz, bo'ri, qoplon, itlar hamda bir-biri bilan olishayotgan yovvoyi va xona-ki hayvonlar, shuningdek, ovchilar va ov manzaralari ham tas-virlangan".

Qadimgi rassomlar faoliyatida ham kuzatuvchanlik, shakl va chiziqlar orqasida bo'layotgan voqealarning xarakterini, mazmuni-ni yoritib bera olish qobiliyatları ko'zga tashlanadi. Qoyatosh, dara-lar va g'orlardagi rasmlar mazmunan boy bo'lishi bilan birga xilma-xildir. Ularda turli manzaralar o'z aksini topgan. Umuman bu tasvir-lar orqali odamlarning mushtarak tuyg'ulari yuzaga chiqqanligini ko'ramiz. Bu rasmlarda har bir belgi, qoralama yoki shakl o'ziga xos fikrni, hatto sehru jodularni ifodalab berishi bilan qiziqarlidir. Yuqoridagi dalillardan ko'rinish turibdiki, ajdodlarimizning hayotida, turmush tarzida tasviriylar faoliyat alohida o'r'in tutgan. Zaravutsoy, Sarmishsoy, Ko'ksaroy, Bironsaroy, Taqatosh, Teraklisoy, Jarsaroy, Tutilisoy, Chadaksoy, Sho'rbuluoqsoy va boshqa ko'plab qadamjo-lardagi tasvirlar fikrimiz dalilidir.

Tasviriylar san'at tarixining keyingi takomil bosqiehlari

O'zbekiston hududi ham insoniyat tafakkuri taraqqiyotining shu jumladan, san'atning qadimgi markazlaridan biri ekanligi arxeologik izlanishlar chog'ida isbotlangan. O'l kamiz hududidan topilgan san'at obidalari, asori-atiqalar bunga yaqqol misoldir. Amaliy hunar-mandchilik namunalarida badiiy bezaklar ko'payib, boyib borgan bo'lsa, tasviriylar san'atning keyingi namunalarini kulolchilik buyum-laridagi rasmlarda uchratamiz. Sopol idishlarning formalari asta-sekin murakkablasha boshlaydi va sopol idishlarga tasvirlar, bezaklar tushirilishi badiiy kulolchilik san'atining har tomonlama rivojlanishiga olib keladi. Endi odamlar o'zlari uchun kerakli bo'lgan buyum va ashyolarning formasini nafis shaklda ishlabgina qolmasdan ularga be-zaklar, tasvirlar tushirib badiiy jihatdan boyitdilar. Kulolchilik taraq-qiyoti loydan ishlangan haykalchalarda ko'ringan bo'lsa, asta-sekin odamlarning diniy e'tiqodi, turli dunyoqarashlari shu haykal tasvirlari

orqali o'z aksini yanada aniqroq ko'rsata boshladi. Haykaltaroshlik vaqt o'tishi bilan hayotning ko'p jabbalariga kira boshlagan. O'sha qadimgi turli bezakli tasvirlarda, haykallarda kishilarning ish jarayoni, e'tiqodi, dunyoqarashlaridan tashqari turmush tarzi ham o'z ifodasini topgan.

Qadimgi odamlar turli dirlarga e'tiqod qilishgan va o'z e'tiqodlarini ilohiyashtirish maqsadida haykallar yaratishgan. Ayniqsa, ana shu haykallarda afsonaviy hayvonlarga xos ramziy obrazlar o'z ifodasini topgan. O'tmisht san'at namunalarida hayotning hamma qirralari gavdalantirilgan. Kiyim-kechaklardagi, shuningdek, uy jihozlaridagi tasvirlarda ham shunday namunalarni kuzatamiz. Bizgacha saqlanib qolgan namunalar esa asosan loydan, tosh, yog'och, fil suyaklaridan ishlangan. Odamlar haykallarga va boshqa tasvirlarga o'z dunyoqarashlari, e'tiqodlarini jo qilishga intilganlar.

Ajdodlarimizning miloddan avvalgi VI- asrning ikkinchi yarmiga kelib ahmoniylar bosqinchiligiga duch kelishi va shu davrdagi Naqshi Rustam, Behustun tasvir yozuvlari paydo bo'lishi ham Eron va Markaziy Osiyo xalqlari san'ati bilan bog'liq namunalarni vujudga kelishiga sababchi bo'lган. Shuning uchun ham tasviriylar san'atning ahmoniylar davriga oid namunalarini qadimgi eronliklarning markaziy shahri Persepol va uning atrofisidagi yodgorliklarda uchratamiz.

Bu o'rinda tarixchi B. Ahmedovning fikrlari diqqatga sazovordir: "Ayniqsa, Persepoldan (Sherozning shimoliy tarafidan taxminan 50km oliblikda joylashgan, 520-450 yillar orasida qurilgan) topilgan yozuvlar va tasviriylar suratlari (releflar) zo'r ilmiy qimmatga ega.

...Apadana zinapoyalari ustiga solingan tasviriylar suratlari alohida ahamiyat kash etadi. Suratlarda (balandligi 3 fut) ahmoniylar imperiyasiga tobe bo'lган 23 satraplikdan (mamlakatdan) o'lpon olib kelgan kishilar surati tasvirlangan. Bular orasida baqtriyaliklar (turli idishlar, teri, mo'yna va tuya bilan) va xorazmliklar (ot va quroq-aslaho bilan) ham bor". Bu o'tmisht tasvirlari O'zbekiston tasviriylar san'ati tarixi uchun ham ishonechli va muhim namunalardir. Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, Persepoldagi Naqshi Rustam, Behustun yozuvlari, haykaltaroshlikka xos relief tasvirlar san'at tarixini o'rganishda asosiy manba hisoblanadi, bu asarlar me'morchilik tasviriylar va amaliy san'atining mushtarak taraqqiy etganidan dalolat beradi.

Ajdodlarimiz tarixi bizdan qanchalik uzoq va ularning diniy e'tiqodlari o'zgacha bo'lganligidan qat'iy nazar biz bilan olis o'tmishtni bog'lab turadigan nozik jihatlar bor. U ham bo'lsa, ular yaratgan ajoyib san'at namunalaridir. Bu o'rinda tasviriylar san'at asarlarining o'rni

va mavqeい alohida diqqatga sazovor. Chunonchi, Afrosiyob sharq o'tmishining madaniy markazlaridan biri bo'lib, ko'pgina xalqlarga xos an'analarni aks ettiruvchi san'at namunalariga boy bo'lgan maskandir. Afrosiyobdan topilgan haykallar, devoriy suratlar ana shular haqida hikoya qiladi. "Afrosiyobda shahar hayotining rivojlaniishi So'g'd, Mavarounnaxr va Markaziy Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy hayotning yuksalishi hamda inqirozi bilan muvosiq tarzda kechgan, chunki Samarqand o'sha davr mamlakatlari o'rtaasidagi aloqalarning muhim markazi edi. O'rta Yer dengizi bo'yи va Yaqin Sharq mamlakatlarining Eron orqali Uzoq Sharq, Markaziy Osiyo mamlakatlari, Hindiston, Sirdaryoning quiy oqimidagi shaharlarga, u yerdan esa Sibir va Sharqiy Yevropa mamlakatlariga diplomatik, savdo va madaniy aloqalarning asosiy yo'llari Samarqanddan o'tgan. Samarqand jahon savdo va madaniy markazlaridan biri sisatida o'z mavqeini to'la darajada, lekin uzilishlar bilan o'rta asrlarda ham saqlab qoldi", deb ta'kidlanadi Samarqand tarixi kitobida. Xullas, qadimgi so'g'd san'ati ham o'tmishni yanada mazmunli va aniqroq tasavvur qilishimizga yordam beradi.

Iskandar izi bo'ylab shakllangan tasviriy san'at tarixi o'lkamiz hududida o'zining qimmatli namunalarini qoldirgan. Miloddan avvalgi 329-327 yillarda Iskandar qo'shnirlari Markaziy Osiyo hududlarini makkorlik va hiyla bilan bosib olganligi tarixdan ma'lum. Iskandar Yunonistondan Markaziy Osiyoga kelgunga qadar ko'plab xalqlarni bosib olgan va o'sha yerdarda yunon tili, madaniyati va dini targ'ib qilingan. Ana shuning natijasida ellenlashtirish (yunonlashtirish) vujudga keladi.

Ammo, Yunonistonning me'morchiligi, tasviriy san'ati boshqa xalqlarga nisbatan antik dunyoda yuqori darajada bo'lganligini ta'kidlamoq kerak. Mahalliy xalqlar tasviriy-amaliy san'ati bilan ellenlar san'ati o'rtaasida uyg'unlashuv boshlangan. Bu uyg'unlashuv uzoq davom etib, ellenlarga xos haykaltaroshlik, devoriy rasmlar, amaliy san'at namunalari, jumladan, me'morchilik paydo bo'la boshlaydi. Bunday tasviriy va amaliy san'at namunalarini O'zbekistonning o'nlab qadimiy shahar xarobalaridan topilayotganligi diqqatga sazovor. Afrosiyob xarobasidan Iskandar davriga oid haykal va tangalar, kulolechilik buyumlari topilgani ham fikrimiz dalilidir.

Iskandar portreti haqida atoqli olim Ahmadali Asqarov quyidagicha mushohada yuritadi: "Rivoyatlarga qaraganda, uning ikki shoxi bo'lgan emish. U bu sirni xalqdan yashirgan va har safar soch oldirganda sartaroshning kallasini tanasidan judo etgan. Nihoyat, u boshqargan mamlakatda yolg'iz bitta sartarosh qoladi. Uni

chaqirib soch oldirish oldidan Iskandarni shoxi borligini hech kimga aytmaslikka qasam ichitirgan, aks holda uni o'lim bilan qo'rqtishgan. Sartarosh rozi bo'lib, Iskandarni sochini olgan. U o'z podshohining boshidagi shoxlarni ko'rib taajjublangan va o'z qasamini uzoq vaqt buzishga botina olmagan. Uzoq yillar davomida ichidagi sirini yashira-yashira toqati toq bo'lgan. Nihoyat kimsasiz cho'lga chiqib, bir buloqning yoqasida o'tirib, yuragini bo'shatib olish maqsadida suvga qarab, asta-sekin "Iskandarning shoxi bor" deb uch marta takrorlagan. Vaqt bilan haligi buloqdan qamish o'sib chiqadi. Kunlardan bir kun bir cho'pon buloq yoqasiga yaqinlashadi va uning suvidan totigach, bekorchilikdan zerikib, buloq ichidan o'sib chiqqan qamishdan nay yasaydi. Nayni chalsa, undan "Iskandarning shoxi bor" degan ovoz baralla chiqar emish. Shundan Iskandarning shoxi borligini hamma bilgan va uni xalq "Iskandar Zulqarnayn" deb atagan. Ushbu afsona birgina sharqda emas, balki Iskandarning yaqinlariga ham ma'lum bo'lsa kerak. Ana shu assonaga ilohiy kuch va qudrat berish Iskandar zamonasidan boshlangan. Masalan, 1970 yillarda Afrosiyob arxeologik qazishmalar paytida Iskandar surati chizilgan qimmatbaho serdolik tosh topildi. Tosh tirmoq hajmida bo'lib, u Iskandar lashkarboshilarining Samarkandni istilo etish vaqtida yo'qtgan oltin uzukning ko'zi bo'lsa kerak. Ana shu toshga tushirilgan Iskandar rasmiga ikki diadema kiydirilgan. Darhaqiqat, rasmidagi diademaning chekkasidan ikkita shox bo'rtib chiqib turibdi. Bu topilma hozir Samarqanddagi Respublika san'at muzeysida saqlanmoqda.

Iskandar Misrni bosib olganda Misr kohinlari uni misrliklarning quyosh xudosi Amonning o'g'li deb e'lon qilganlar. Misrliklar an'analariga ko'ra, xudo Amon siyomisi ikki shoxli bosh kiyimda tasvirlangan. Misri egallagan Iskandarga Misr aslzodalari ikki shoxli oltin bosh kiyim kiydirgan bo'lishlari mumkin".

Ma'lumki, qadimgi tasviriy san'at, jumladan Iskandar zamonasiga oid tasviriy san'at ellinlar ta'siri ostida shakllangan va taraqqiy etgan. Turli tasvir va shakllar zarb etilgan tanga va taqinchoqlar o'sha zamon noyob ashyolaridir. Sirtiga Artemida (yunon mifologiyasida ta'riflanishicha Zevs va Letonning qizi, noz-ne'mat xudosi, hayvonot va ovchilik homiysi. Rimliklar uni Diana nomi bilan atashadi) tasviri tushirilgan gemmadagi rasm ham ellinlar davri namunalariga kiradi. Shuningdek, ayni paytda O'zbekiston xalqlari tarixiy muzeysida saqlanayotgan qadimgi kumush (tetradraxma)dagagi relef tasvirlar alohida e'tiborga molikdir. Bu Aleksandr Makedonskiyning tetradraxmasi (tanga puli) bo'lib, uning o'ng tomonida bosh qiyofasi o'ng tomonga burib ishlangan shox tasviri mavjud. Ik-

kinchi (teskari) tomonida esa o'ng qo'li uzatilgan holatda quroq tutib taxtda o'tirgan Zevs aks ettirilgan.

Mahalliy ustalar va rassomlar yasagan kulolchilik buyumlarida, tanga va taqinchoqlarda, turli ko'rinishdagi haykallarda ham ellenistik an'analar alomatlari mavjud. Zoton, Yunoniston tasviriy san'ati yutuqlari ko'proq haykallarda, zarb etilgan tangalar va taqinchoqlarda o'zini namoyon qiladi. Bu haykallar ishlanishi va mazmuniga ko'ra yunonlarga xos tasvirlarni aks ettiradi. Bu san'at ashyolari mahalliy xalq bilan yunonlar o'rtasidagi yashash tarzining tobora uyg'unlashib borganligini ham ko'rsatadi. Markaziy Osiyo jumladan O'zbekiston san'ati tarixida ellenilar va mahalliy xalq san'atining uyg'unlashuvi esa o'ziga xos yangi bosqich bo'ldi.

Yunon - Baqtryadan arablar istilosigacha bo'lgan davrlardagi tasviriy san'at ravnaqi

O'tmish tasviriy san'at taraqqiyotining o'ziga xos qirralari Iskandar vafotidan so'ng tashkil topgan davlatlar tuzumi bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. O'sha davrda Markaziy Osiyo, jumladan hozirgi O'zbekiston Salavkiylar davlati tarkibida bo'lganligi tarixdan ma'lumi. Bu davr haqida saqlanib qolgan haykallar, amaliy bezak san'atidagi tasvirlardan tashqari tanga pullardagi tasviriy namunalar orqali ham tasavvur hosil qilishimiz mumkin. Masalan, bunday namunalarni Antiox I draxma (tanga pullari)dagagi tasvirlarda uchratamiz. Tanganing old tomonida podshoning toj kiygan bosh qiyofasi, teskari tomonida esa kiyimsiz holatdagi Zevsning o'ng qo'lida bir nechta chanoq, chap qo'lida qalqon, oyog'i ostida esa burgut, shuningdek, yunon tilida (Shoh Antiox) degan bitik tasvirlangan.

Tasviriy san'atning haykaltaroshlik turi Yunon-Baqtrya va qadimgi Xorazm davlatlari davrida taraqqiy etibgina qolmasdan, goho san'atning boshqa turlarida yetakchilik vazifasini ham o'tagan. Baqtrya madaniyatining yana bir xarakterli ton opsiyalarini, bu davrda amaliy bezak san'atida kichik hajmlit tasvirlar keng qobiliyatini lanilgan. Oltin va kumushdan ishlataligan taqinchoqlarning topazlayishi ulardagi tasvir va bezaklarning boy va jozibadorligi sa'zilmitga misol bo'la oladi. Hamza Hakimzoda Niyoziy nomi salohi shamillik instituti xodimlari tononidan Dalvarzintepada manzilologik qazishmalarni olib borish jarayonida topilgan 115 dona o'midan ishlangan ashyolar Baqtrya davri ustalarining mahoru bilan qurilgan beradi.

Qadimgi Xorazm tarikini astoydit o'rganiyan olim SAT istis Jonbasqal'ani "Haykallar muzeysi". Tuproqqa'lani esa "Tangalar muzeysi" deb bejiz atamagan.

Haykaltaroshlik, grafika, rangtasvir qadimgi Farg'ona davlatida ham keng ko'lamda rivojlangan. Tasviriy san'at tarixida Buyuk ipak yo'lini ta'siri katta bo'lgan, albatta. Buyuk ipak yo'lining xalqlar o'rtaсидаги san'атни uyg'unlashuviga ta'sir o'tkazganini Kushonlar davri misolida yanada yaqqolroq ko'ramiz. Darhaqiqat. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixining katta bir qismi kushonlar davri bilan chambarchas bog'liqidir. Bu davrda qadimgi xalqlarning turlicha dunyoqarashlari tasviriy san'at asarlarida o'z aksini topgan. Bularning birida buddizmga xos belgilari aks ettirilgan bo'lsa, ikkinchi bir namunalarida Zardushtiylik e'tiqodi ramzlarini ilg'aymiz. Kushonlar davri san'atining xilma-xilligi bu imperiya juda katta hududni, ko'p xalqlarni birlashtirganligi bilan ham izohlanadi. Kushonlar davrida madaniyat va san'at yuksak pog'onaga ko'tarilgan. O'sha davrga oid san'at ashyolari O'zbekistonning janubidan ko'proq topilganligini alohida qayd qilish kerak.

Kushon podsholigi bu aslida siyosiy tushuncha bo'lib uning jug'rofiy nomi Baqtriya deb ataladi. Baqtriya hududiga oid yaratilgan tasviriy san'at asarları o'zining go'zalligi, nafisligi bilan olqishga sazovordir. Bu davrda haykaltaroshlik san'atining turli ko'rinishlari keng rivojlangan. Ko'p hollarda haykallarning diniy xarakterga ega ekanligi ochiq ko'rindi. Baqtriya hududidan topilgan haykal-chalarda sevgi, oilaviy baxt, serhosillik kabi g'oyalar olg'a suriladi. Arxeologik izlanishlar jarayonida Buddanining tik turgan holatidagi, chordona qurib o'tirgan haykallari, hatto yotgan holatdagi ko'rinishlari aks etgan haykallari topilgan.

Kushonlar davri madaniyatining serqirraligi shundaki, tasviriy san'at, me'morchilik, amaliy san'atning turlari bir-biri bilan bog'liq holda taraqqiy etgan. Bu davrda budda ibodatxonalarining yaratilishi, o'z navbatida, buddizmga xos badiiy bezaklar ishlanishiga sababchi bo'lgan. Masalan, Dalvarzintepadan topilgan, I asrning ikkinchi yarmiga oid Vima Kadfiz tangasining old tomonida shoh o'ng qo'li mehrob uzra cho'zilgan holda, boshiga yalov tasmali uzun kuloh kiygan holatda tasvirlangan. Olimlarning fikriga qaraganda, bu tangadagi doira shaklidagi yunon yozuvi "Shohlar shohi Vima Kadfiz Kushon" degan ma'noni anglatadi.

Eftaliylar, Turk hoqonliklari davrida ajoyib haykallar, nafis devoriy suratlar yuzaga keldi. O'tmisht tasviriy san'at merosimizning eng xarakterli tomonlaridan biri shunda ediki, ajdodlarimiz boshqa xalqlar san'atidan ta'sirlanibgina qolmasdan, ularga o'z ta'sirini ham o'tkaza olgan. Shu asosda xalqlarning uyg'unlashgan, yuksak tasviriy san'at namunaları yaratilganligi tarixdan ma'lumdir. So'g'diyona,

Baqtriya, Parsiya, Choch, Xorazm, Qadimgi Farg'ona hududlaridan topilgan qadimiy san'at ashyolari bizga moziy dunyosidan xabar beradi.

Qadimgi haykaltaroshlik san'ati

Tasviriy san'at tarixini tadqiq qilishda haykaltaroshlik turi alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikamiz hududidan ko'plab haykaltaroshlik san'ati ashyolari topilganini biz yuqorida dalillarda ko'rdik. Bitta risolada qadimgi haykallar, yaratilish jarayonini bataysil o'rjanib chiqishning imkonini yo'q. Shuning uchun ham haykaltaroshlikdagi ayrim namunalarni tahlil qilish orqali ularning mazmunini, badiiy qiymati, ishlanish uslublari, materiali va umuman haykaltaroshlik-ning san'at darajasida odamlar turmush tarzida tutgan o'rni kabi jihatlarinigina ochib berishga harakat qilamiz. Respublikamiz hududidan topilgan haykallarning tosh, temir, suyak, yog'och, ganch, loy, mis, hatto oltin, kumush kabi turli materiallardan ishlanganligi bu san'at turining nechog'li ahamiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Azal-azaldan ijod ablining onalarga, ayollarga hurmat-ehtiromi yuqori darajada bo'lган. Qadimgi davr ijodkorlari ham mamont suyagidan, toshdan ayollar, homilador onalar qiyofalarini tiklaganlar. O'sha haykallar timsolida odamlarning dunyoqarashi, turli e'tiqod-lari o'z isodasini topganligini e'tirof etmoq kerak. Taxminan eramizdan oldingi ikki minginchi yillarga tegishli qora toshdan ishlangan tumordagi ilon tasviri nasaqat mahoratlari ishlanishi bilan, balki asar mazmuniga ma'lumi bir dunyoqarash jo bo'lganligi jihatidan ham qadimshunoslarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortadi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy nomidagi san'atshunoslik institutining muzeyida saqlanayotgan miloddan avvalgi ikki minginchi yillarga mansub Mirshodi haykali inson qiyofasi tasvirlangan dastlabki haykallardan biri desak mubolag'a bo'lmas.

Haykaltaroshlik san'atidagi barcha talab va qonuniyatlarga javob bera oladigan, qiyomiga yetkazib ishlangan haykallarning bir turkumi Xalchayonda topilgan. Miloddan avvalgi I asrga oid harbiy kishining bosh qiyofasi tasvirlangan haykalda bunday jihatlar yaq-qol namoyon bo'ladi. Ma'lumki, inson gavdasining bosh qismini yasash o'ta murakkab jarayondir. Ikki ming yil muqaddam ishlangan bu haykalda bosh skeletning tuzilishi aniq amalga oshirilganining guvohi bo'lish mumkin. Yuz qiyofasidagi, peshona, burun, ko'z, lab kabi a'zolarining shakllari me'yoriga yetkazilib ishlanganligidan haykaltarosh mahorat va malakaga ega ekanligi ko'rinish turibdi.

Atoqli olima G. A. Pugachenkova tomonidan olib borilgan chuqur o'rjanishlar natijasida Surxondaryoning Denov rayonidagi Xal-

chayon yodgorligidan topilgan haykallar O'zbekiston tasviriy san'ati tarixi borasidagi tasavvurimizni bir oz kengaytirdi. O'sha haykallarning ko'pchilik qismida buddizm alomatlarini ko'ramiz. Buddaga oid haykallar va unga e'tiqod qilish qanday paydo bo'lgan, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Ko'pgina tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqda-ki, Amudaryoning eng tor joyi Asg'onistonning hozirgi Hayraton shahridadir. Daryoning bu beti esa Ayrитom deb ataladi. Buddaga oid ashylarning eng qadimiysi ana shu atrofdan topilmoqda. Bu hol, Buddha dini respublikamizga shu tomonidan kirib kelganligini ko'rsatmoqda. Darhaqiqat, qadimgi madaniy aloqalar, savdo-sotiqlar va shunga o'xshash boshqa vositalar tufayli ajodolarimizning buddaga e'tiqod qilgan vakillari bo'lgan va ular budda timsolini haykallarda tiklashgan. Ilk bor buddaga oid haykaltaroshlik namunalari ana shu Ayrитomdan 1932 yili chegarachilar tomonidan tasodisan topib olingan. Bu haykallarda musiqa asboblari ushlagan uch odam tasviri aks ettirilgan. U yerda arxeolog olim M.Ye.Masson 1933 yili tadqiqot ishlarini olib borib, bir qancha haykallarni topishga muvaffaq bo'ladi. Ayniqla, bulardan qo'shnay chalib turgan, ikkita lapakni bir-biriga urib turgan, gulchambar ushlab turgan haykallarni misol keltirish mumkin.

Qadimgi tasviriy san'at va buddaga oid diqqatga sazovor inshotlardan yana biri Qoratepa yodgorligidir. Bu yerdan topilgan tasviriy san'at namunalarida dinning o'ziga xos xususiyatlari yorqintroq mujassamlashtirilgan. Shuningdek, Fayoztepadan haykal o'rnatiladigan supa topilgan.

Bu haykaltaroshlik san'ati qoldiqlarida uzoq, tarix qa'ridagi bobokalonlarimiz e'tiqodi, dini, mehnat va hayot tarzi aks etib turidi. Odamlar dunyoqarashlarining rang-barang ifodasi Dalvarzintepadan topilgan haykallarda o'zgacharoq tarzda namoyon bo'ladi. Ayni paytda San'atshunoslik institutida saqlanayotgan, Dalvarzintepadan topilgan miloddan avvalgi 1 asrga mansub Devatto (budda personaji) boshi hamda Termizdan 30 km g'arbdagi joylashgan Kampirtepa yodgorligidan topilgan Buddaning haykallari har tomonlama poyoniga yetkazilib ishlangan san'at asaridir. Bu haykallarni badiiy va anatomik jihatdan tahlil qilib uni yaratgan san'at ustasiga tan berasan kishi. Bir qarashda nafis va nozik xislatlar ifodalangan yuz qiyofasini astoydil kuzatsak, ichki ruhiy kechinmalar bilan burkangan jiddiy va salobatli obraz ko'z oldimizda gavdalananadi. Devatto boshi haykalida sochlariagi jingalak tasvirlar asarning go'zalligini boyitibgina qolmasdan, ma'naviy va psixologik jihatlarini o'zida yashirib turgandek, Kampirtepadan topilgan Buddha



haykalining bezirim qiyofasida esa o'ychanlik va donishmandlik mahorat bilan tasvirlanganligi haykaltaroshning buyuk san'atkor ekanligidan ham dalolat beradi. Gap haykalning ishlanish uslubidagi yutuqlar haqida ketar ekan. insonning bosh qismi tasvirlangan, bu asarlar kalla suyagining anatomik tuzilishi jihatlariga javob bera olishini ko'rish maqsadga muvosiqidir. Ma'lumki, rassom va haykaltaroshlar inson bosh qismining konstruktiv asosi kalla suyagi(cherep)ni mukammal o'rganib chiqadilar. Kalla suyagi bosh qism va yuz qismiga bo'linadi. Rassomlar portret ishlash jarayonlarida ma'lum qonun-qoidalarga rioya etadilar. Kampirtepadan topilgan "Budda" va Dalvarzintepadagi "Devatto boshi" haykallarida bunday xususiyatlarga to'la amal qilinganiga guvoh bo'lamiz. Yuz qismiga tegishli ko'z, burun, lab va yonoqlardagi o'ziga xos shakllar hamda holatlar proportsional muvozanatlariga javob berish bilan birgalikda aniq, sodda qilib ishlangan. Shuningdek, peshona do'm bog'i, boshning tepa (miya), orqa (miya) qismi, qulqoq va boshqa inson bosh qismining barcha anatomik tuzilishlariga to'liq javob bera oladi. Bunday san'at asarlari sirasiga Fayoztepadan topilgan budda yoki budda safdoshining bosh qismi. Dalvarzintepadan topilgan boshiga toj kiygan Kushon shahzodasi va boshqa

o'nlab haykallarni misol keltirish mumkin.

Yevropaning mashhur haykallaridan metodik natura sifatida o'rganilib kelayotgan modellar safiga Kampirtepadagi "Budda", Dalvarzintepadagi "Devatto boshi" kabi haykal namunalarining nusxalarini kiritishga asos bor. Bo'lajak rassom, haykaltarosh va barcha ixlosmandlar tasviriy san'at asarlari o'rganishlarida bunday mahalliy materiallardan foydalan-



salar maqsadga muvofiq bo'lar edi. Darhaqiqat, bu horada metodik tavsiyanomalar, qo'llanmalar bilan birgalikda bu haykallardan nusxa modellar yaratishning vaqtı allaqachon etdi. Zotan, haykaltaroshlikdagi portret janri ruhiy voqelikni yangidan aks ettirib ijod qilayotgan haykaltarosh dunyosi bilan muhrilanayotgan san'atdir.

Kampirtepa va Dalvarzintepadan topilgan haykallar asosan buddaga oid ekanligi oydinlashdi. Son-sanoqsiz haykal siniqlari bilan to'da Dalvarzintepa arxeolog olimlar fikricha qadimgi Kushon podsholarining markazi bo'lgan ekan.

Buddaga oid haykaltaroshlik namunalari Tojikistonning Ajinatepa, Shuturtepa, Turkmanistonning g'arbiy chegarasi Bayramalidagi Sulton qal'asi ichidan ham topilgan. Ammo bu san'at asarlari orasida O'zbekistonning janubidan topilgan haykallar har jihatdan qimmatga ega.

Jumhuriyatimiz hududidan topilgan Buddaga oid haykallarni Hindiston va boshqa mamlakatlarda yashab buddaga e'tiqod

qiladigan xalqlarning san'atidan o'ziga xos farqlari ham bor. Birinchidan, o'l kamiz hududidan topilgan haykallar loy, gips, ohak-toshlardan ishlangan. Ikkinchidan, haykallardagi obrazlarning tuzilishida yerli xalqlar ko'rinishiga xos holatlар yaqqol sezildi. Umumiy o'xhashliklar ham mavjud bo'lar, asosan haykallarning taqinchoqlarida, jildiroqlarida, belbog'larida va soyalarini belgilashda uchraydi. Ustalar va haykaltaroshlik san'ati ijodkorlari mahalliy xalqlardan bo'lgan, deb xulosa chiqarish mumkin. Chunki haykallarning yuz tuzilishlari, materiallarning ishlatilishi va boshqa bir qancha holatlari shundan dalolat beradi. Ustalar, san'atkorlar boshqa o'lkalarga borib bu san'atning sirlarini o'rganib kelgan bo'lishlari ehtimoldan xoli emas, yoki o'zga ellardan kelib qolgan san'atkorlar ham bu ishlarda tashabbus ko'rsatgan bo'lishlari mumkin. Arxeolog olimlarning fikriga qaraganda, haykaltaroshlik san'atiga oid yozma manbalar yo'q bo'lsa-da, mehnat qurollari va hatto ustaxonalar topilmoqda. Quvadan topilgan Devon boshi tushirilgan tasvirda haykaltarosh inson yuz qiyofasiga bo'rtib chiqqan ruhiy holatni ustalik bilan ilg'ab olib aks ettirgan.

Umuman, o'l kamiz hududidan topilgan haykaltaroshlik namunalari turli g'oya va mazmuntarga, rang-barang ko'rinishlarga ega. Ana shunday alohida xususiyat ko'rinishlar aks ettirgan san'at namunalaridan biri Samarqand Afrosiyobidan topilgan. VII-VIII asrlarga mansub ostodon qopqog'iga ishlangan odamning bosh qismi haykalidir. Haykalni kuzatib o'rganish natijasida san'atkorning izlanishlari muvaffaqiyatli amalga oshganini ko'rish mumkin. Qiziqarli tomoni shundaki, haykalning yuz tuzilishida o'zbek xalqining afsonaviy qahramoni Nasriddin Afandi qiyofasiga xos nimalarnidir eslatuvchi jihatlar bor. Haykaltarosh jiddiy izlanish uslubiga ega bo'lishi bilan mahalliy xalqqa xos obrazni nihoyatda xarakterli chiqishiga muvaffaq bo'lgan. Xuddi shuningdek, Samarqandning Toyloq degan joyidan ostodonning qopqog'idagi ayol boshi haykal tasviri, Varaxshadan topilgan (VI-VII asrlar) ayol qomatining yarmidan ko'proq qismi tasvirlangan haykallar shunday milliy an'analarni o'zida namoyon qiladi. Darhaqiqat, o'tmish odamlari qiyofasi tushirilgan haykal portretlarda (u qaysi tabaqa vakiliga bag'ishlangan bo'lishidan qat'i nazar) voqelik haqqoniy ifoda etiladi.

Qadimgi rangtasvir san'ati

O'zbekiston hududiga mansub qadimgi rangtasvir san'ati o'ziga xos beba ho namunalarga ega. Bulardan eng qadimiyleri ibtidoy Zaravutsoy, Sarmishsoy kabi tasvirlar hisoblanadi. Rangtasvir san'a-



tidagi keyingi yutuqlarni qadimgi kulolchilik namunalarining bo'laklarida, ayniqsa, tuproq ostida saqlanib qolgan binolarning devorlariga ishlangan suratlarda batafsilroq, ko'rish mumkin. Bulardan, Samarqandning qadimgi o'rni Afrosiyob, Surxondayoning Boaliktepa, Buxorodagi Varaxsha, Panjikentdagи devoriy rangli tasvirlar diqqatga sazovordir.

Afrosiyob rangtasvir san'ati hozirgi Afrosiyob nomi bilan yuritilayotgan Samarqandning qadimgi o'rnidan topilgan devoriy rasmlarda rangtasvir san'atining rang-barang va nafis namunalari mavjud. Bu yerda obrazlarning xarakteri va mazmuni yoritib berilishida turli bo'yoglar mahorat bilan ishlatalganligini ko'ramiz. Afrosiyob rangtasvir san'atining eng xarakterli namunasi shoh saroyi ko'rinishiga xosdir. Rasmlarda saqlanib qolgan devordagi tasvirlarning balandligi 2-2.5 m.ga to'g'ri keladi. Uzunligi esa 10 metrdan ortiq bo'lib, monumental xususiyatga ega, "Chunonchi, katta zatning to'la ochilgan janub tomonida, devorning sharqiy qismida kichik piramida shaklida shartli tarzda (tomoshabindan), chap tomoniga, qasrga qarab borayotgan tantanali yurish marosimi ko'rsatilgan. Oldingi qatorda zeb berib bezatilgan chakmon kiygan to'rt erkak kishi tasvirlangan. Surat to'la saqlanmagan, figuralarning belidan bir oz pastki qismi buzilgan. Asta-sekin qadam tashlayotgan oq fil

tantanali yurishni boshlab bormoqda"- deb ta'riflanadi Samarqand tarixi kitobida. Devoriy rasmdagi salobatli filning tasvirini kuzatar ekanmiz har bir bo'yq o'z o'rnida ishlatilganligini ko'ramiz. Ranglar tasvirning jonli chiqishida muhim rol o'ynaganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Filning ustiga maxsus mo'ljallangan yopchiqdagi tasvirlar kishini beixtiyor o'ziga jalg qiladi. Bu tasvirlarda qizg'ish, sarg'ish, jigarrang, aynilsa favorang ko'proq ishlatilgan. Filning bosh qismi birmuncha, orqa tanasi esa to'laligicha tasvirda saqlanib qolgan. Oyoqlari aniq ko'rinish turibdi, filning ustida bezatilgan jul bo'lib unda qanotli sher tasvirini ham ko'ramiz, bundan tashqari bir qancha bezaklar aks ettirilgan. Umumiyo bo'yoqlar majmuasi esa to'q havo rang bilan qamrab olingen. Afrosiyob devoriy tasvirlarining ko'pgina qismi saqlanib qolmaganligi qadimshunoslar va san'atshunoslar ni yanada izlanishga jalg qiladi. Filning ustida taxtiravon, taxtiravonda oq suyak ayol o'tirganligi tasvirlangan bo'lishi kerak, degan taxminlar ham bor. Tasvirda saqlanib qolgan filning ustidagi taxtiravonni bitta ustunchasi aniq ko'rinish turibdi. Ana shu ustunchani ayol kishining barmoqlari ushlab turganligi ham saqlanib qolgan. Orqadagi tasvirlar ham filning ustidagi taxtiravonda ayol kishining borayotganini tasdiqlaydi. Orqada otga minib kelayotgan uch nafar ayolning suratlari aks ettirilgan. Birinchisining to'liq ko'rinishi deyarli yaxshi saqlanib qolgan.

Rasmdagi obrazning eng xarakterli tomoni sharq xalqlariga xos nafis va latofatl go'zallikka ega bo'lgan ayol qiyofasining gav-dalantirilishidadir. Ayolning butun qomatida, liboslaridagi rang va shakllarning xarakterlari hatto soch turmaklarida ham shar-qona xususiyatlar yaqqol ko'rinish turibdi. Umuman, bu devoriy tasvirlarda bo'yoqlarning ishlatilish uslublaridan keng ko'lamli va o'ziga xos foydalanilgan.

Otlardagi uch nafar ayolning tasvirlari bir-biriga o'xshab ketsada, ular mingan otlar rang jihatidan bir-biridan farq qilib turganligi aniq ko'rindi. Birinchisi, to'q ko'k otta, ikkinchisi sariq ot mingan, uchinchi ayol esa qizil ot mingan bo'lib, uchinchi ayolning tasviri deyarli saqlanmagan. Ulardan keyingi tasvirda soqchilar, tuyu mingan erkaklar aks ettirilgan. "Qorachadan kelgan birinchi erkak katta yosha bo'lib, soqoli va mo'yloviga oq tushganligi yaqqol sezilib turibdi. Uning o'siq quyuq qoshlari ham oq qoramitir yuzida qovoqlari botiq, ko'k ko'zları yorqin ko'rindi. Sochlari oq bog'ich bilan bog'langan. Chap qulog'ida zirak bor. U o'ng qo'llining ikki barmog'i bilan qal'ani ko'rsatyapti. Chap qo'lida uchiga hayvon boshi ishlangan cho'qmor. Ustiga qizil chakmon kiygan. Yelkasiga tashlangan sariq yengsiz kiyim shamolda hilpiraydi.

Ikkinci erkak yoshi, rangpar yuzli, qora soqolli va ingichka mo'ylovlidir. Qora sochlari qizil bog'ich bilan tortilgan. Birinchi erkak kishi singari uning yuz tuzilishi ham yevropaliklarnikiga o'xshaydi. Katta qirg'iy burunli, og'zi kichik bu kishining o'ng qo'lida sariq (oltin) cho'qmor bor. Ikkala erkak ham uzun qilich bilan qurollangan. Qilich kamarning chap tomonida osilib turibdi. Ularning belbog'lariga kalta xanjar ilingan. Dastalarida yovvoyi qushlar boshining tasviri solingen.

Tuyalar jigarrang, birinchisining ustida sillarning surati solingen kungurular bilan bezatilgan doirasimon jul bor (Samarqand tarixi kitobi). Aynan bu tasvirlar topilgan paytida arxeologlar o'rganib, yuqoridaqidek ta'riflar berishgan. Umuman Afrosiyob devoriy rasmalarining bir necha nusxalari, O'zbekiston tasviriy san'at muzeyi, ababiyot va tarix muzeylarida ham mavjud. Bu suratlarni kuzatar ekanmiz, rassom devoriy rasimda keng manzarani qamrab olishga intilganini ilg'aymiz. Teparoqda joylashgan manzaradagi oq qushlar tasviri esa devoriy suratga yanada badiiy mazmun kiritgan. Tasvirdagi oq qushlarning harakati bir-biriga uyg'unlashib ketganki, bu manzara da o'ziga xos musiqiy ohang jaranglab turgandek. Kompozitsiyaning rangga boy qilib tasvirlanganligidan Afrosiyob tasviriy san'ati nihoyat darajada badiiy yutuqlarga ega ekanligini ko'ramiz. Devoriy suratlarning juda ko'p qismi turli sabablarga ko'ra tushib ketgan. Lekin, shunga qaramasdan, bu surattlar mazmunini tushunib olish mumkin. Masalan, beligacha saqlanib qolgan erkak kishi ning tasviridagi salobatlilik alohida ahamiyat kasb etgan. Musavvir obrazga urg'u berish bilan birga uning martabali kishi ekanligini ko'rsatmoqchi bo'lgan ko'rindi.

G'arbiy devorga ishlangan suratlar, ayniqsa, uch kishini qimmat-baho kiyimlarda aks ettirilishi oddiy tomoshabinni hayratga solib-gina qolmasdan, har qanday san'at ustasini ham o'ziga jalb qila olishi tabiiydir. Mato va liboslardagi bu tasvirlarda humo qushi, qanotli ot, echki, tovus kabi turli qush va hayvonlar anatomik tuzilishiga mos aks ettirilgan. Bu esa musavvir mahoratidan darak beradi.

Ko'plab obrazlar, boy va sermazmun xarakterga ega bo'lgan Afrosiyob devoriy rasmlari nasaqat tasviriy san'atimiz merosini, balki butun sharq xalqlari tarixini o'rganishda ham juda katta ahamiyatga ega.

Bolaliktepa rangtasvir san'ati. Termiz yaqinidagi Bolaliktepa yodgorligidan topilgan hashamatli saroya o'xshash bino devorlarining to'rttala tomoni ham turli ko'rinishdagi rangdor tasvirlar bilan to'ldirilgan. Qiziqarli tomoni shundaki, xona devorlarining to'rt-

tala tomonida ishlangan suratlarda ham odamlarni o'tirgan holatda-
gi ko'rinishlari aks ettirilgan. Gilamchalarga o'xhash to'shamcha-
lar ustida sharqona tiz cho'kib, chordona qurib, yonboshlagan holda
just-just bo'lib o'tirgan erkak va ayollarning obrazlari diqqatga sa-
zovor. Tasvirdagi bu "gilamcha"lar ayni paytda o'zbek xonadonlari-
da ishlataladigan ko'rpa chalarni eslatadi.

Erkaklar egnidagi kamzulga o'xhash kiyimlar uzun, yoqasi
uchburchak shaklidagi keng qaytarmali ko'rinishga ega. Bellarida
ingichka tasma va unga o'tkazilgan xanjar tasvirlari ham aniq ko'-
rinib turibdi.

Ayollarning liboslari esa o'ta rang-barang. Quloq, ho'yin va bar-
moqlarida serbezak taqinchoqlar. Ko'zgu ushlab turgan bu ayollar
chiroyi sharqona ko'rinishga yanada jonlilik kiritgan.

Ma'lum bo'lishicha, Bolaliktepadan topilgan devoriy suratlar
VI asrga mansub bo'lib, estalitlar davrida ishlangan. Bu hayotda
atoqli tarixchi olim A. Muhammadjonov shunday qiziqarli dalillar-
ni hikoya qiladi: "...Bolaliktepa qasri devorlarida tasvirlangan
ayollarning tashqi qiyofasi VI asrda estalitlar hukmdori huzurida
bo'lgan, budda kohinini hayratga solgan saroy zodagon ayollar-
ni eslatadi. Kohinning ta'riflashicha, o'sha vaqtarda estaliy malika-
lari juda qimmatbaho matodan tikilgan, orqa etagi uch quloch
va undan ham uzunroq bo'lgan serbezak ko'ylak kiyar, uning etagini
maxsus joriyalar ko'tarib yurganlar". Demak, uzun liboslар kiyish
an'anasi Yevropa orqali o'lkamizga kirib kelmagan, aksincha, o'sha
uch qulochli liboslар o'tmishda mayjud bo'lgan ekan.

Bolaliktepa rangtasvir san'atida odamlarning kayfiyati, o'zaro
munosabatlari, xarakterlari rassom tomonidan o'ta ustalik bilan tas-
virlangan. Umuman obrazlarning xatti-harakati, qiyofalaridagi ko'r-
nishlar qandaydir to'y yoki bayramona marosimni aks ettirmoq-
da. Orqa planda esa qomati deyarli to'liq tasvirlangan xizmatkor-
lar yelpig'ich ushlab turishibdi. Odamlarning qo'llarida haqida
ularning tasvirlanishi, bir-birlariga bo'layotgan samimiy iltifotlar ham
to'yma holatdagi bazmu jamshidni ifodalaydi.

Bolaliktepa qasri devoriy suratlari inson qiyofasi ko'p ifodalangan-
gani bilan ahamiyatlidir. O'sha suratlardagi inson ichki kechinmalari-
ni nozik tasvirlanishi o'sha davr rassomlarining hurfikrlilik dara-
jalarini bildiradi.

Varaxsha san'ati. Buxoroning qadimgi madaniy markazlaridan
biri - Varaxshadan ham devorlari suratlari bilan bezatilgan hashamat-
li saroy qoldiglari topilgan. Bu me'morchilik obidasi va undagi san'at
namunalari sharq xalqlariga xos madaniy aloqalar qay darajada bo'l-
ganligini o'rganish imkoniyatini ham ko'rsatib beradi. Qa-

dimshunoslar fikriga qaraganda Varaxsha saroyining devorlaridagi surat bezaklar, ranggin naqshlar Hindistondagi mashhur qadimiy Adjanta, Xitoydagagi Mingbudda va Afg'onistonidagi Bolshan kabi g'orlaridagi tasvirlarni, eslatadi. Bir qarashda tasvir va naqshlar bir-biriga bog'liq va monanddek ko'rindi. Shu bilan birga o'ta farq qiladigan tomonlarini ham kuzatish mumkin. Hindiston, Xitoy g'orlaridagi tasvir va haykallarda diniy e'tiqodlar aks etgan bo'lsa. Varaxsha saroyida o'zgacha tasvirlarga duch kelamiz. Devoriy rasmidan birida fil mingan o'rta yoshli kishi obrazi bir oyog'i uzangida, bir oyog'i esa bukilgan holda tasvirlangan. Bundan tashqari, rasmida arslonga o'xshash haybatli hayvonning filga hamla qilgan holatidagi tasviri ham aks ettirilgan. Shuningdek, Varaxshaning boshqa devoriy rangli suratlarda podshoning qabul marosimiga bag'ishlangan hashamatli ko'rinishlari o'rinn olgan. Umuman, tasvirlar rang-barang manzaralar bilan boyitilgan. Va ma'lum bir go'zallikni o'zida mujassamlashtirgan. Devoriy suratlardagi tabiat manzaralari turli daraxtlar ko'rinishlari bilan o'zgacha ma'no kasb etgan.

Tojikistonning Panjikent shahri hududidagi qadimgi xarobalardan ham o'ta jozibali, nihoyatda mazmunli, rang-barang ko'rinishlarga ega bo'lgan qiziqarli san'at namunalari topilgan. Bu yerda jang voqealari, diniy mavzuni aks ettiruvchi va boshqa turli tasvirlar keng o'rinn olgan. Shunday qilib, o'tmish musavvirlari o'z ijodiy yutuqlarini yoritibgina qolmasdan xalqlarimizning tarixini, turmush tarzini, hayotining turli jahbalarini, hatto xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarini jonli ko'rsata olishga muvaffaq bo'lganlar.

Umuman yuqorida ko'rgan dalillarimizdan oydinlashadiki, o'tmish tasviri san'ati me'morchilik san'atining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Nozik va nafis, rang-barang devoriy suratlari, haykaltaroshlik namunalari me'morchilik san'atini boyitibgina qolmasdan, u bino va xonalarni nima uchun, kim uchun xizmat qilganini ham har tomonlama aniqlab bergen. Qadimgi musavvirlar o'z hunarlarini tugal egallagan mohir san'atkori ekanliklarini ular yaratgan tasvirlarning me'yoriga yetkazib ishlaganligidan, obrazlar xarakterlarini to'laqonliligidan yaqqol sezish mumkin. O'tmishda tasviri san'at ilg'or bo'lib kelgan. Rassomlar doimo ijodiy izlanib o'z faoliyatlarini kengaytirganlar. Shuning uchun bo'lsa kerak, mashhur musavvir Moniy nomi bilan rivoyatlar to'qilgan. Shunday rivoyatlardan birini taniqli olim P. Zohidov hikoya qiladi: "Moniy shahar davorasidan kirar ekan o'z ko'zlariga ishonmabdi. Qarshisida afsonaviy go'zal va sayzli shahar namoyon bo'lgandi. Mana, yam-yashil daraxtlar salqinida orombaxsh joy-hovuz suvlari mavjlanadi. Ariqlarda

suv sharqirab oqmoqda. So'lim gulzor. Zilol suvdan ichging keladi. Ajab! Bu tasvirning sehri edi. Hatto kimdir suv olaman deb ko'zasini sindiribdi. Tasvir kuchiga qoyil qolgan mehmonlar o'z kasbdoshlari san'atiga tahsin o'qishibdi. Shu payt Moniy qo'liga mo'yqalam olib, hovuz yaqinidagi barvasta itning rasmini chizib qo'yibdi. Tasvir shunchalik tabiiy ediki, itni ko'rgan kishi uning joni bor deb beixtiyor o'zini chetga tortar edi. Shundan keyin Moniy chuqur o'ya tolibdi: uning shogirdlari mahorat cho'qqisini tamom egallashgan. Endi ustoz ularga nimani o'rgatishi mumkin. Shunday yangi ijodiy usq topish kerakki, unga intilgan sari yangidan-yangi go'zallik olami ochilaversin. Nihoyat Moniy bir to'xtamga kelib, shogirdlariga shunday vazifa topshiribdi: "Tabiatni tasvirlash bu nihoyasi emas, agar kimki rasmdagi har bir chiziqda jon bag'ishlay olsagina, u san'at kalitini egallagan bo'ladi". Bu juda og'ir va mashaqqatli vazifa edi. Ana shu vaqtidan boshlab safdoshlar chiziqlar tilsimini ochishga bel bog'labdi. Necha-necha avlodlar ana shu izlanish yo'lida ter to'ka boshlabdilar. Natijada naqqoshlik asosini chiziqlar simfoniyasidan iborat turli ornamentlar, naqshlar egallab olibdi". Muhim tomoni shundaki, o'tmisht rangtasvir, san'ati boy an'analarga behisob badiiy qiymatlarga ega. Bir-biridan butunlay farq qilgan va har birining o'zida yetuk san'attorlik xususiyatlari jamlangan tasvirlarga duch kelamiz. Albatta, qadimgi rassomlarning barcha tuyg'u va fikrlari, shuningdek, rango-rang ijod olami va mo'yqalamining schrli tasvirlari to'la-to'kis bizgacha saqlanib kelmagan. Shuning uchun ham biz ularni to'liq ta'riflash imkoniyatiga ega emasmiz.

III BOB. ISLOM MADANIYATI DAVRIDA TASVIRIY SAN'AT

Islom madaniyati davridagi tasviriylari san'at - mavzusi haqida batasfil fikr bildirishidan oldin Markaziy Osiyo, jumladan hozirgi O'zbekiston hududidagi dinlar tarixi xususida to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Buning sababi shundaki, islomgacha bo'lgan tasviriylari san'at o'tmish diniy dunyoqarashlari doirasida shakllangan.

Odamlar turli sharoitlarda, turli iqlimda, turli mintaqalarda yashaganlar. Ana shu muhit va sharoitlar ham turli dunyoqarashlar, turli dinlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Dinlar tarkib topar ekan, asta sekinlik bilan taraqqiy etib, rivojlanib bordi. Yana shu narsa e'tiborni tortadiki, har bir din qanchalik keng tarqalgan bo'lmasin, barcha joyda aynan bir xil tarzga ega bo'la olmagan. Mavjud muhit va sharoitlar dinga ma'lumi darajada o'zgarishlar kiritgan. Dinlar rang-barangligi xuddi har xil yerdan oziq olayotgan mevali daraxtlarga o'xshab ketadi. Shuning uchun ham har bir dinda aniq natijani uzoq madaniyat tarixi asosida ko'ramiz. Insoniyatning madaniyat va san'at tarixi ana shu dinlar tarixi bilan chambarchas bog'langan bo'lib, o'z navbatida insoniyat hayat tarzi va tasakkuri tufayli rivojlangan. O'zbekiston hududida yashaydigan xalqlarning o'tmish ma'naviy merosi, san'ati boshqa xalqlardagi singari, muayyan dinlarning tarixi bilan bog'liq holda taraqqiy etgan.

O'zbekiston hududida topilgan osori atiqalar olis tarix sirlarini, uzoq o'tmishdagi ajodolarimiz tur mush tarzi, urf-odati, e'tiqodlarini ko'z o'ngimizda obrazlar orqali namoyon qiladi. Jumhuriyatimiz hududida qadimda yashagan turkiy xalqlarimiz ham zardushtiylik, buddha, xristian va moniylik kabi dinlarga e'tiqod qilganliklari ma'lum bo'lmoqda.

Ajdodlarimiz tarixi bizdan qanchalik uzoq bo'lmasin ularni biz bilan tutashtirib turadigan nozik ko'priklar bor. U ham bo'lsa san'at va din tarixidir.

Biz ajdodlarimizning madaniyati va san'ati sirlarini o'rganganimiz sari ular qoldirgan izlar ko'zga aniqroq tashlanaveradi. O'sha man-

balarni o'rganib dunyoqarashimizni boyitamiz. Eng muhimi, tarixiy dalillar asosida ish ko'ramiz.

Qadimgi tasviriy san'at namunalarini kitobimizning oldindi sahifalarida tahlil qilganimizda ham ko'pgina dinlar bilan bog'liq misollarni keltirgan edik. Yana shunga o'xhash misollarga murojaat qilmoqchimiz. Arxeolog va san'atshunoslarning izlanishlari natijasida Denov rayonidagi Xalchayon qal'adan topilgan shahar hokimining saroyidagi devoriy suratlar, haykallardan tashqari binoning bir o'ziga xosligini alohida ta'kidlash o'rinnlidir. Saroy kun chiqar tomonqa qaratib qurilgan va olti ustunli ayvondan iborat. Bu esa xalqlarimizning me'morchilik borasidagi an'analarining namunasidir. Yana shunday qiziqarli dalil: O'zbekistonning ko'pgina joylarida muqaddas olov yongan ibodatxonalar o'rni topilgan. Otashparastlar ibodatxonasi dagi hamma narsa, hatto yonib turadigan olovdon ham juda chiroyli ishlangan. Qiziqarli tomoni shundaki, san'at ashyolar an'analar bilan uyg'un. Bu an'ana, ya'ni mangu olov yoqish asli yurtimizda rasm bo'lgan. Keyinchalik butun Yevropani aylanib yana o'zimizga qaytib kelgan. Hozir haykallar poyiga mangu olov yoqmoqdamiz. Biz hozirga qadar diniy merosga begona nazar bilan qarab keldik. Biroq diniy urs-odatlar, sajdahohlar, ibodatxonalar hayotiy an'analarimizning ildizlari g'oyat qadimiy ekanini ishonarli dalillar bilan isbot etdik, xalq ijodi hech tinim bilmay rivojlanganini ko'rsatadi. Umuman, dinlar tarixi tasviriy san'at tarixi bilan chambarchas bog'liq ekanligini jahonning boshqa dinlarida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan: xristian dinida san'at tarixini dindan ayirib olishgani haqida ma'lumotlar hozirga qadar ma'lum. Qadimgi diniy an'analarни xalq juda qadrlagani, e'zozlab davom ettirganligini tarixchi Narshaxiy shunday hikoya qilib beradi: "Duradgorlar va naqqoshlar u yildan bu yilgacha but yo'nib, belgilangan kunda shu bozorga keltirib sotishar va xalq uni sotib olar ekan, har qachon u but yo'qolsa, sinsa yoki eskirsa shu bozor kuni boshqasini sotib olar va eskisini tashlar ekan". Bunday an'analar arablar bosqinidan so'ng bir necha o'n yillar davom etgani turli tarixiy kitoblarda yozib qoldirilgan. Xullas, islom madaniyati davrida murakkabliklar mavjud bo'lishiga qaramasdan tasviriy san'atning turli o'ziga xos kamolotga ega bo'lgan namunalari yuzaga keladi. Bu davrda ham tasviriy san'at o'z xarakteri va mohiyati jihatidan islom dini g'oyalari bilan boyidi va rivojlandi. Saqlanib qolgan qo'lyozma kitoblar va tarixnavislar dalolatlariga ko'ra, asosan, tasviriy san'at kitobat san'ati bilan bog'liq holda keng taraqqiy etadi. Yana shu narsa diqqatga sazovorki, qog'oz tayyorlash san'ati Samarqandda arablar kelguniga

qadar ma'lum va mashhur bo'lgan, shuning uchun ham muqaddas kitoblarning ko'pchilik qismi ana shu Samarqand qog'ozlariga bitilgan.

Diniy va boshqa barcha sohadagi kitoblarning tasvirlar, bezaklar bilan nafis qilib bezatilishi islom madaniyati davridagi tasviriy san'atning katta qismini tashkil qiladi.

X asrlargacha turli qarama-qarshiliklar bo'lishiga qaramasdan ayrim me'morchiliklarda tasviriy san'at qo'llanilib kelindi. IX-XI asrlarda Somoniylar, G'aznaviyalar va Saljuqiylar imperiyalari vujudga kelib, ularning markaziy shaharlari Buxoro, G'azna, Marv, Nishapur kabi joylar madaniyat va san'at markaziga aylandi. Ana shu davrda Beruniy, Ibn Sino, Hayyom, Mahmud Koshg'ariy, Rudakiy, Firdavsiy, Nizomiy kabi allomalarining kitoblariga musavvirlar tomonidan badiiy bezaklar, miniatyura tasvirlar ishlangan.

XI-XII asrlarga kelib esa tasviriy san'at amaliy bezak san'ati bilan uyg'unlashgan holda boy zodagonlar, hokimlarning qasr va bog'-laridagi binolarning devorlarida, shuningdek xonadonlarga keng ko'larda go'zallik baxsh etib kirib kela boshladи. Umuman, bu davrlar tasviriy san'atining asosiy qismi bizgacha deyarli saqlanib qolmagan bo'lsa-da, u namunalarning ma'lum va mashhurligi ko'pchilikka sir emas.

Temuriylar davrida tasviriy san'at

San'at tarixining eng katta va o'ziga xos taraqqiy etgan davri bu asosan Temuriylar davri hisoblanadi. Bu davr san'atining serqirraligi shundaki, ko'pgina xalqdar o'rtasida shakllangan tasviriy san'at maktablari markazlashgan bir qiyofasini aynan shu Temuriylar davrida topadi. Turli an'analarga, uslublarga ega bo'lgan tasviriy san'at maktablarining yaqinlashuvi uyg'unlashgan ilg'or Samarqand maktabining shakllanishiga sabab bo'ladi. Tasviriy san'at namunalarini turli o'lkkalar bo'ylab tarqalib ketishi, uning to'la xarakterini yorita olish imkoniyatini bermasdi. AMMO XIV-XV asrlarga kelib qo'lyozma kitoblarning qayta ko'chirilishi natijasida ko'plab tasviriy san'at namunalari yuzaga keladi va ular kitobat san'atni yanada boyitadi. Bu davrda yaratilgan miniatyuralarning katta bir qismi albomlarga ishlangan asarlardir. Bu asarlarda asosan shoh saroylari dagi hayotiy voqealar tasvirlab beriladi. Muhim tomoni shundaki, bu muraqqa-albomlarga ishlangan miniatyura tasvirlar mustaqil, ya'ni erkin ijodiy tasviriy san'at asarlari hisoblanadi.

Umuman Sohibqiron Amir Temur davrida tasviriy san'at nihoyatda taraqqiy etganligini ta'kidlamoq joiz.

Ma'lumki, Temur o'z davrida Samarqandni ulkan madaniyat markaziga aylantirgan edi. O'sha zamonlarga oid nafis miniatyura rasmlarning katta qismi Parij, Myunxen, London, AQSHning ko'pgina shaharlarida, Sankt-Peterburg, Moskva, Tehron, Qohira, Af'goniston, Hindiston, Mo'g'ulistonidagi muzeylarda saqlanmoqda. Bular haqida ko'pgina olimlarning ma'lum darajada fikrlari bor. Ammo, Temur davrida yashab ijod etgan tasviriy san'at ustalarining hayoti, faoliyati haqida kitoblar bor-yo'qligi bizga noma'lum. Biroq bu borada ham ko'plab tarixchi, san'atshunoslar o'z ilmiy farazlarini keltirishadi.

Samarqand tasviriy san'at tarixi juda olis-olislarga borib taqalganini biz kitobimizning bundan oldingi sahifalarida guvohi bo'ldik. Temurgacha bo'lgan davrdagi tasviriy san'atning ilg'or mahalliy vakillari ijodi monuviylik yo'naliishiga mansub edi. O'sha davrda Samarqand hozirgi Afrosiyob nomi bilan yuritilayotgan xaroba o'mnida edi. Mo'g'ullar istilosidan so'ng u yerda yashayotgan xalq, jumladan, ijodkorlar Samarqandning Temur davridagi o'rniqa ko'chganligi ma'lum. Shunday qilib, Samarqandda sharqona tasviriy san'at maktabini shakllanishiga asos yaratildi. Ammo bu san'at maktabining to'liq shakllanish tarixini Amir Temur madaniy aloqalar o'rnatgan davlatlar va xalqlardan tashqari Samarqandning temuriylargacha bo'lgan tasviriy san'at merosi bilan ham bog'liqligini inkor qilolmaymiz. Qadimgi Yunonistondan kelgan Aleksandr Makedonskiy nomi bilan bog'liq ravishda tarkib topgan tasviriy san'at borasida oldingi sahifalarda to'xtalgan edik.

Amir Temur davrida ijod etgan tasviriy san'at ustalaridan mash-hur ustod Gung taxminlarga qaraganda monuviylik tariqati vakillaridan ta'lim olgan bo'lishi mumkin. Ustod Gung Temur davri tasviriy san'at maktabining asoschisi bo'lgan. Amir Temurning o'zi yashagan davrdagi musavvirlardan buxorolik ustod Jahongir, bag'dodlik Abdulhay va ustod Shamsiddin, tabrizlik Pir Said Ahmad, samarqandlik Ahmad Bog'ishamoliy, Shoh Muhammad Tamimiyy va boshqa tasviriy san'at vakillarining Samarqanddag'i ijodiy faoliyatini qayd qilish mumkin. Temur faoliyatidan so'ng esa Samarqandda Mirzo Ulug'bek davrida tasviriy san'at yanada rivojlandi. Temuriylar davri nafis tasviriy san'ati haqida o'zlarining "Miniatyura tarixidan lavhalar" kitobida N.Norqulov, I.Nizomiddinovlar shunday hikoya qilishadi: "Devorga surat chizish san'ati Mirzo Ulug'bek zamonida yanada yuqori pog'onaga ko'tarildi. Tarixnavislar uning Chilsutun chorborg'ida Chinixona qasrini nihoyatda go'zal qilib qurdirganini yozadilar. Abdurazzoq Samarqandiy Mirzo Ulug'bek rasadxonasi ning xonalari devorlarida to'qqiz osmonning ko'rinishi, osmon

gumbazlari darajalari, minut va sekundlar va hokazo ulushlari tasviriy, yetti yoritkich sayyora, yulduzlar, iqlimlar, tog', dengiz, sahro va shularga oid buyum va jonivorlar surati g'oyat nafis va jonli naqsh etilganini yozadi". Shunday qilib, temuriylar zamonasida sharqona miniatyura san'atini bir qancha maktablari va uning buyuk ijodkorlari yuzaga keldi. Hatijada, temuriylar davrida shakllangan nafis tasviriy san'atning dovrug'i jahonga yoyildi.

O'tmish tasviriy san'ati haqida fikr yuritar ekanmiz bugungi kunda ko'p qo'llanilayotgan miniatyura so'zining o'ziga qisman to'xtalish lozim. Bu ibora deyarli XIX asr boshlarigacha ishlatilmagan. "Miniatyura" - kitobga ishlangan surat (mo'jaz surat) yoki kichik hajmdagi nafis tasvirlarga nisbatan ishlatilishi an'anaga aylanib qoldi.

Pedagog olim A.Sulaymonovning ta'kidlashicha "miniatyura" so'zi to'rt xil ma'noni anglatadi. Ulardan uchitasini va umumlash-tiruvchi lug'aviy ma'nosini bevosita miniatyura san'atiga taalluqli deb qarash mumkin. Ya'ni: umumiy ma'nosini qadimdan qo'lyozma kitob-larning bosh harflarini ranglash, naqshlash uchun ishlatiladigan qizil bo'yoq (kinovar);

— o'rta asrlarda yaratilgan qo'lyozma kitoblariga ishlangan kichik lavha yoki kitobning butun betiga ishlangan illyustratsiya shaklidagi kichik o'lchamdagisi mo'jaz rangli tasvir (rangtasvir);

— kichik o'lchamdagisi rangtasvir asari har xil materialga (suyakka, metallga, matoga) nozik nafis qilib ishlangan ish (asar). Demak, "miniatyura" iborasini qo'lyozma kitobining tarkibiy badiiy-grafik qismi bo'l mish barcha elementlari, xoh u kichik lavha bo'lsin, xoh butun betni, ayrim holda ikki qo'shni betni egallagan illyustratsiya, naqshinkor tasvirlarga nisbatan qo'llangan ibora, deb qarash mumkin.

Shunday qilib, o'tmish tasviriy san'atining shu yo'sindagi ko'ri-nishiga nisbatan miniatyura iborasi keng ishlatilib kelinmoqda. Sharq, jumladan Markaziy Osiyo xalqlarining tasviriy san'atidagi miniatyura ham o'ziga xos namunalari ega. Bu borada tasviriy san'atimiz, tarixida o'zining noyob namunalari va ajoyib san'at vakillarini yuzaga keltirgan Hirot "Nigoriston" (nafis san'at akademiyasi) maktabi jahon tasviriy san'ati maktablari ichida oldingi saflarda turadi. Aynan shu matabda Kamoliddin Behzoddek buyuk rassom kamolga yetgan. Bu matabning mohiyati va mazmunini aniqroq tushunish uchun uning ma'nosini tahlil qilmog'imiz kerak. "Nigoriston" iborasiga kelganda aytish lozimki, bu nigorlar, chehralar, qiyofalar demakdir. Binobarin, ibora mazmuni inson qiyosasi, insonning chehrasini anglatish bilan chegaralanib qolmaydi.

Nazarimizda bu ibora tabiat va jamiyatda bo'layotgan voqeа, ko'rinishlarning mohiyatini olib beruvchi tasvir ma'nosini beradi. Yuqoridagi fikrga tayanib, "Nigoriston" nafis san'at maktabining ijodiy yo'nalishini zamonaviy lug'atlarimizdagi tasviriy san'at atamasiga mos desak, maqsadga muvosiq bo'ladi. Biroq, ko'pgina manbalarda aytilgan fikrlar bu mavzuni kengroq tadqiq etishni taqozo qiladi. Masalan, manbalarda "qalamnigor" iborasini ko'p uchratamiz. Buning o'z ma'nosи esa hozirgi "qalamtasvir" atamasiga yaqin. Bundan tashqari "chehrakusho" iborasi ayrim musavvirlarga nisbatan ishlatalilgan. Masalan, Kamoliddin Behzodning shogirdi Qosim Ali chehrakusho san'atining ustasi deb yuritilgan. Bu esa bevosita insonning chehrasiga xos ma'no bo'lib, zamonaviy "portret" san'ati iborasining mazmuniga to'g'ri keladi.

Xo'sh, "Nigoriston" maktabining shakllanish tarixi qanday kelib chiqqan? Hirotda tasviriy san'at gullab-yashnashiga Amir Temur davrida shakllangan Samarqanddagи tasviriy san'at maktabi zamin yaratgan edi. Ikkinci grafik tasvirni tahlil qilish orqali o'sha davr tasviriy san'at tarixi mazmunini anglashimiz mumkin.

Samarqandda shakllangan tasviriy san'at maktabi Hirot orqali jahon xalqlari madaniyatiga ta'sir o'tkazganini alohida qayd etmoq kerak. Olim Naim Norqulovning ma'lumot berishicha, Boysunqur Mirzo Hirot nafis va tasviriy san'ati anjumani (akademiyasi)ni tuzgan. Nomlari jahon tasviriy san'ati tarixida muhim o'rин egallagan Xo'ja G'iyosiddin Haraviy, Amrshohiy, Sabzavoriy, Mirak Naqqosh, Halil Mirzo Shohruhiy, Sulton Ibrohim, Sultonali Mashhadiy, Maylono Ja'sar Turbatiy Hirot akademiyasi tashkilotchilar edilar.

Boysunqur Mirzo Hirotda nafis san'at maktabini yaratishda butun sharq xalqlari madaniyati durdonalaridan soydalandi. Bu ishda unga otasi Shohruhning qo'shni mamlakatlar bilan keng ko'lamma olib borgan savdo, diplomatik va madaniy aloqalari katta yordam berdi. Xullas, bu maktab Nigoriston nomi bilan ham mashhur bo'ldi.

KAMOLIDDIN BEHZOD

Sharq tasviriy san'atining yirik namoyondasi, mo'yqalamining sehri bilan nafosat olamiga nur baxshida etgan buyuk musavvir Kamoliddin Behzodning nomi jahon tasviriy san'ati tarixida alohida o'rини egallaydi. Afsuski, bizgacha Behzodning hayoti, ijodiy faoliyati haqida juda kam ma'lumot saqlanib qolgan. Buning turlichcha sabablari bor. Birinchidan, musavvir yashagan zamon hiyla murakkab bo'lib, bu davr allomalari tasviriy san'at haqida bataysil adabiyotlar yozib qoldirisholmagan. Xullas, Behzod yashagan davrda ham

tasviriy san'at ma'lum bir ilm va san'at vakillari, shoh saroylari atrofida qilingan e'tiborga tushgan, xolos. Xalq orasida esa tasviriy san'at asarlarining yoyilishiga yetarli imkoniyat bo'lmagan. Shunday qilib, musavvir ijodi, hayoti qalamga olingan manbalar juda oz, hatto Behzodning tug'ilgan yili haqida ham munozaralar mayjud.

Keyingi davrda bir qancha chet el tarixchilaridan tashqari O'zbekistonlik san'atshunoslar ham Behzod haqida asarlar yaratishdi. Bulardan, ayniqsa, Hamid Sulaymonov, Galina Pugachenkova, Naim Norqulov, Ilyos Nizomiddinov, Orif Usmonov, Fozila Sulaymonova, Ne'mat Abdullayev, Abdumajid Madraimov va boshqa olimlarning izlanishlarini eslab o'tish joiz.

Tadqiqotchilarning taxminlariga qaraganda, Kamoliddin Behzod 1455 yili Hirotda kosib-hunarmand oilasida dunyoga kelgan.

Juda erta yetim qolgan. Biroq uning yoshligi qanday kechgani to'g'risida ma'lumotlarga ega emasmiz. Hatto O.Usmonovning ta'kidlashicha, "Behzod" rassomning asl ismimi, taxallusimi yoki uning ismi "Kamoliddin"mi, - bular hozircha bizga qorong'u.

Shunday qilib, mumtoz musavvir Kamoliddin Behzodning buyuk san'atkor bo'lib yetishishida dastlab ana shu "Nigoriston" tasviriy san'at akademiyasining ta'siri hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Bu maktab bilan shuhrat qozongan o'z davrining mashhur ustasi, musavvir Mirak Naqqoshning ijodxonasida Kamoliddin Behzod ta'lim olganligi ma'lum. Kamoliddin Behzod yashagan davrdagi Hirot muhiti, jumladan tasviriy san'atning o'ziga xos shakllanishi musavvirning ijodiy ravnaqiga hissa qo'shganini yuqoridaq dalillar isbotlaydi. Bu o'rinda yana bir narsani alohida ta'kidlash kerak. Buyuk bobomiz Alisher Navoiyning rahnamoligi tufayli Kamoliddin Behzodning san'at sirlarini har tomonlama o'rganishiga va o'sib ulg'ayishiga keng imkoniyatlarni yaratilgan. Behzod adabiyot va san'atning rahnamosi Alisher Navoiy dahosidan yetarlicha bahramand bo'lolg'anligi ko'pgina adabiyotlarda ta'kidlangan. O'z davridayoq, Alisher Navoiy portretini yaratish borasida Kamoliddin Behzod samarali ijod qiladi. Shuningdek, Navoiyning hayotiga bag'ishlangan va Navoiy portreti tasvirlangan asarlari tufayli Hirot san'at olamida tanlldi. Asta-sekin Behzod Hirotda katta hurmatga sazovor bo'la boshlaydi. U 1487 yili Xuroson hukmdori Husayn Boyqaroning Hirotdagi kutubxonasiga rahbar etib tayinlanadi.

Buyuk rassom sharq allomalari Sharofiddin Ali Yazdiy, Abdurahmon Jomiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy kabi mutasakkirlarning asarlarini tasvir orqali yanada jonlantirdi, targ'ib etdi. Tadqiqotchilar Naim Norqulov, Ilyos Nizomid-

dinovning "Miniatyura tarixidan lavhalar" nomli kitobida shunday qiziqarli fikr va ma'lumotlarga duch kelamiz: "Shved san'atshunos olimi F. Martin ustod Kamoliddin Behzodning Sulton Husayn Mirzo chorborg'idagi ijodxonasini quyidagicha tasvirlaydi: "Sharq quyoshi Behzod uchun qurilgan shinam hujrani nurga g'arq etadi. Bu yerda naqqosh pastakkina qiya kursi (pyupitr) ustida engashib ishlardi. Kursining tortma xonachalarida shoh asarlar yaratish uchun zarur bo'lgan hamma narsa muhayyo. Bunday asarlarni Yevropa san'at koshonalari jamoalari XV asr Italiya va Niderlandiya musavvirlarining nodir asarlarini qanday tarzda bo'lib qidirgan bo'lsalar, shunchalik ishtiyoyq, bilan qo'lga kiritishga intilishlari shubhasiz. Behzod yevropalik musavvirlarnikidek keng va qulay ustaxona (studiya)ga ega bo'limgan. Uning ish joyi oddiygina bir hujra bo'lib, oq marmar devorlari mohir sharq xattotlari tomonidan Qur'on kalimalari bilan muzayyan etilgan. Hujrada bo'yra to'shalgan. Burchakda gilam ustida bir nechta yostiq. Bu mehmon yoki muxlislar uchun qo'yilgan edi. Hujra orqasi bog', sokin suvli hovuz, undan nariroq - gulzor va daraxtzor. Shaftolilar pishib, ishkomdag'i oltinday tovlangan uzum boshlari siyrak barglari orasidan mo'ralardi. Hujra atrosida atirgullar chamandek ochilib yotardi. Minglab turli-tuman gullarning qiyg'os ochilganidan ularning bargi ko'zga tashlanmas edi. Shu muhitda Behzod o'tirib, nozik mo'yqalamni bilan surat chizardi. Nozik mo'yqalamni undan ilgari ham, keyin ham hech bir musavvir Behzodchalik ishlatishga muvaffaq bo'la olmagan". Behzod va shu davrda uning zamondoshlari tasviri san'atda erishgan yutuqlar keyinchalik butun jahon san'at ixlosmandlari diqqatini o'ziga tortdi. Ayniqsa, buyuk musavvir tomonidan yaratilgan portretlar o'z davrida mashhur bo'libgina qolmasdan, jahon san'at ixlosmandlari e'tiborini hamon o'ziga jalb qilib kelmoqda. Kamoliddin Behzod tomonidan yaratilgan XV asrning 80-yillariga mansub Alisher Navoiy bilan Sulton Husaynning madrasadagi qiyofalari aks ettirilgan miniatyuralar "murakda", ya'ni tasviri san'at albomlaridagi miniatyuralar e'tiborga molik. Bu miniatyuralarda tabiat ko'rinishlari sonida ustoz va shogirdlar o'rtasidagi samimiy muloqotlar aks ettirilgandir. Mazkur asarlar ayni paytda Sankt-Peterburg shahridagi Saltikov-Shedrin nomidagi kutubxonada saqlanadi. Umuman, rassom portret san'ati borasida bebahो yutuqlarni qo'lga kiritgan. Jumladan, Alisher Navoiy, Sulton Husayn Boyqaro, Muhammad Shayboniyxon, Abdurahmon Jomiy portret-asarlari orqali tengsiz san'atkor ekanligini isbotlagan.

Sulton Husayn Boyqaro portretida shohning gavdasi to'laligicha tiz cho'kib o'tirgan holatda tasvirlangan. Asardagi bosh-

qiyosa va tana gavdasining boshqa bo'laklaridagi garmonik nafis tuzilishlarni ko'pchilik o'quvchilar san'atshunoslik jihatidan tahlil qila olmasalar-da, asar har qanday tomoshabinni o'ziga jalb qiladi. Kartina markazini aniqlab, oddiy geometrik shakllar orqali tahlil qilib ko'rganimizda ham garmonik jihatdan asar mukammal ekanligining guvohi bo'ldik. Bunday tahlil portret har jihatdan barkamol bo'lishi bilan birgalikda go'zallik ramzining talablariga javob bera olishini ko'rsatadi. Bu esa musavvirning tasviriy san'at siru asrorlarini mahorat bilan egallab amalda qo'llay olganligini bildiradi. Portretda shohona libosning niyoyatda bezaklarga boyligi, yelka va ko'krak oldi naqshlar bilan bezatilgan alfozda tasvirlanganligiga guvoh bo'lamiz. Bu jihatlarni kuzatar ekanmiz. Behzod zamonasining naqqoshlik san'atiga yana bir bor tan beramiz. Naqshlar bir-biriga shunday uyg'unlashib ketganki, siz uni astoydil kuzatib o'ngansangiz ham qaysi naqshning qaysi nuqtadan boshlanib va qanday nuqtada tugashini topa bilmassiz....

Darhaqiqat, portretda, oddiy bir holat bo'lsa-da, inson tanasiga xos mutanosibliklar musavvir tomonidan g'oyat ustalik bilan ko'rsatilgan. Mutanosibliklar portretning deyarli barcha bo'laklarida o'ziga xosdir. Kiprik, qosh, qo'l barmoqlari tasviri bir-biriga monand kiyimdagи naqshin bezaklar bilan uyg'unlashib ketgan. Umuman, portret orqali Kamoliddin Behzod o'z davri kishilari va ularning ma'naviy olami haqida bizga bebaho ma'lumot qoldirganligi asarning yana bir qimmatli tomonidir. Hozirgi paytda Shvetsiyaning milliy galereyasida saqlanayotgan bu portretning asl nusxasi shved san'atshunos olimi F. Martinning shaxsiy kollektsiyasidan joy olgani ma'lum. O'z davrida bu portret nafaqat rassomni, hatto Xuroson podshosi Husayn Boyqaroni ham mashhur qilib yubordi. Mana shunday diqqatga sazovor portretlardan yana biri 1507 yilda yaratilgan Muhammad Shayboniyxon suratidir. Bu asarda tizzalariga ikki qo'lini tayagan, chordona qurib o'tirgan mag'rur holatda Shayboniyxonning salobatli obrazi gavdalananadi. O'ng qo'lida o'q-yoy otganda taqdigan halqa ushlab turgan bo'lib, bu esa uning mahoratli jangchi ekanligidan dalolat beradi. Oldidagi siyohdon va shunga o'xshash buyumlar bilim egasi, ma'rifatparvar kishi ekanligini ko'rsatadi. Asar AQSH dagi kollektsionerlar qo'lidadir.

Musavvirning "Sulton Husayn safarda" deb nomlangan yana bir mashhur asarida Husayn Boyqaroning safar chog'idagi holati aks ettirilgan. Otda kelayotgan Sulton va uning atrofидagi mulozimlari, ularning xatti-harakatlari, ayniqsa, gavdalarning to'liq va g'ayratli tasvirlangani Kamoliddin Behzodning miniatyura san'atidagi jozibali yutuqlaridandir. Tabiat manzarasining nafis va nozik ko'rinishlari, hatto bulutlarning o'ziga xos talqini asar kompozitsiyasining maz-

mundor bo'lishiga xizmat qilgan. Asarda Husayn Boyqaro o'zi uchun o'rnatilgan saropardaga kelayotgan payti aks ettirilgan. Umuman, Kamoliddin Behzodning asarlarida san'atning nafis qirralari- bo'yoqlarning o'ziga xos ishlatilishi aniq-tiniq ko'zga tashlanadi.

Musavvir ijodidagi san'atkorlikning siri zamona viylikning haqqiy aks ettira olganida hamdir. Bunga Kamoliddin Behzod hayotiylik va tabiiylikni samimiylamda hamda uyg'un ko'rsata olishi bilan erishgan. Rassomning portretlaridan tashqari ko'plab obraz va manzaralarni o'z ichiga olgan asarlarining mushohadasi shunday fikrlarga kelishimizga asos bo'la oladi. 1495 yili Hirotda Nizomiyning "Xamsa"si qayta ko'chirilgan, hamda bunga Kamoliddin Behzod tomonidan bir qancha miniatyura rasmlar ishlangan. Hozirgi paytda Londondagi Britaniya muzeysida saqlanayotgan bu qo'lyozma va undagi mo'jaz tasvirlar san'atimiz tarixida alohida ahamiyatga ega. Uning shu turkum asarlaridan biri machit qurilishi kompozitsiyasi diqqatga sazovordir. Bundan tashqari, "Xamsa"ga ishlangan "Iskandar va yetti donishmand" nomli mashhur asari o'ziga xos bir badiiy muhit kasb etgan. Asarda donolik, zukkolik inson tafakkuriga xos falsafiy qarashlar timsollari bilan birga, me'morchilikdagi amaliy bezak san'ati, sharqona muhitga xos go'zal va nafis turmush manzarasi jozibali tasvirlangan. Tabiat quchog'ida sharq allomalarining an'anaviy davra suhbati aks ettirilgan. Bu suratdagi har bir obrazda kamtarona takalluf, zukkolik kabi nozik insoniy xususiyatlar



yaqqol sezilib turibdi. Ayniqsa, suhbatdoshlarning bir-biriga o'ta hurmat bilan muloqotda ekanliklari tomoshabinda o'zgacha hayrat uyg'otishi tabiiy.

Hirotda shakllangan nufuzli san'at mакtabida Kamoliddin Behzod o'nlab musavvirlarga ustozlik qildi. Umuman, Behzod ijodining olamshumulligi shundaki, u o'lmas maktab yarata oldi. Uning ijodidan ilhomlangan Dosim Ali, Sulton Muhammad, Muzaffar Ali, Yusuf Mullo, Rustam Ali, Mirsaid Ali, Mahmud Muzahhib, Abdullo kabi ko'pgina musavvirlar miniatyura san'ati va kitobat san'ati ravnaqi uchun xizmat qildilar. Xullas, buyuk musavvir ijodida shunday nuqtalar borki, ularni kuzatib san'at asarları faqat tashqi dunyonи bilish uchungina yaratilmasligini uqasiz. Bu asarlar odamlarda his-tuyg'u uyg'otadi. Zamonaga, davr tartibotlariga nisbatan munosabatni shakllantiradi. Behzod va uning ilg'or zamondoshlari ijodida dunyoviy mavzu yetakchi hisoblangan. Bu mакtab ijodkorlari islomdan avvalgi davrlarga ham nazar tashlay olganlar. Shundan ilhomlanib, ular o'z zamonlari maskuralariga zidroq bo'sa-da, dadil faoliyat olib borganlar.

Miniatyura va kitobat san'ati

Sharq xalqlari madaniyati tarixida miniatyura va kitobat san'atini ayri tasavvur qilish mumkin emas. O'tmishtagi qo'lyozma va kitoblarning sahhoqlik (muqovasoz, sahifalarni to'plab kitob holiga keltiruvchi) san'atidan tasvir beruvchi (kitob mazmuni bilan bog'lab surat chizish, suratlash) ustasigacha bo'lgan barcha vakillari qo'lyozma kitobning har jihatdan mazmunga boy bo'lishi uchun san'atkorona mehnat qilishgan. Albatta har bir san'at ustasi rassomona ijod qilgan. Shuning uchun ham ular yaratgan har bir bezak, tasvir go'zallikni, ezzulikni o'zida mujassamlashtiradi. Qo'lyozma kitoblardagi naqshlarda tabiat bag'ridagi gul va daraxtlar va boshqa turli mavjudotlarning rangi, shakli o'z aksini jamlashtirganini ko'ramiz. Shu o'rinda kitobat san'ati ustalarining o'z davridagi atamasi, ya'ni nomlanishi hamda ular bajargan vazifalari va faoliyatini haqida to'xtalmoq joiz.

Varroqlik — kitob tuzish uchun qog'oz tayyorlovchi.

Sahhof — muqovasoz, sahifalarni to'plab kitob holiga keltiruvchi.

Tasvir — surat chizish, suratlash (musavvir).

Tazhib — oltin rang bilan naqshlash.

Tajlig' — qimmatbaho kitoblarga charm yoki boshqa bir qimmatbaho matodan jild yasash.

Vassol — tuzilgan kitoblarni qayta tiklovchi (restavrator), ta'mirlovchi.

Zarafshon — sahifalar hoshiyasi va yozuv oralariga oltin va kumushrang purkab bezatuvchi.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalar ado etilganidan so'ng kitoblar bitish ishi nihoyasiga yetkazilgan hisoblanadi. Xuddi shu jihatdan Nizomiyning "Xamsa"sigi ishlangan rasmlar tasviriy san'at tarixida alohida o'rinda turadi. Bu kitobga san'atshunoslar fikriga qaraganda, 2000dan ortiq miniatyuralar bag'ishlangan. Nizomiy "Xamsa"sigi ishlangan san'at asarlarining katta qismi Kamoliddin Behzod zamonasidagi "Nigoriston" maktabining mahsulotidir. Bu miniatyuralardagi nozik tasvirlanishlar chuqur psixologik xarakterga ega Nizomiy "Xamsa"si voqealaridan ta'sirlanib u davr rassomlari kitobga moslashtirilgan tasvir yaratish bilangina cheklanmaydilar. Balki har bir miniatyura kitobdag'i voqealarga bog'lansada, o'ziga xos mustaqil asar sifatida shakllanadi ham. Qo'lyozmaning deyarli ko'pgina sahifalari juda nafis, zarrin va rangdor bo'yoqlarda ishlangan. Umuman, bunday kitoblarga ishlangan miniatyura tasvirlar va ularning badiiy bezatilish jarayoni ko'p vaqt talab qilgan. Chunki bu kitoblar ma'lum bir shoh saroylari va uning vakillari uchun qayta ko'chirilgan. Ana shu jarayonda o'z davrining musavvirlari bu qo'lyozmalarni imkon qadar tasvirlar bilan boyitishga harakat qilganlar. Nizomiyning "Xamsa"sigi Hirotdagi san'at ustalaridan tashqari Sheroz, Isfaxon, Buxoro va Hindistonning bir qancha iqtidorli musavvirlari tasvir ishlaganlar. Bu kitobni har jihatdan mazmun va go'zallikka boy bo'lishida o'z hissalarini qo'shganlar. Kitobat san'ati haqida so'z ketar ekan. Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar va badiiy bezaklarning qimmatini alohida ta'kidlamoq kerak. Navoiy asarlariga ishlangan miniatyuralar mavzusi mazmunan kcengayib boradi. Bu esa shu davr tasviriy san'atining nihoyat darajada gullab yashnaganini ko'rsatadi. Miniatyurani rassomlar ijodida inson qiyofasi, tabiatning, turli jonivorlarning ko'rinishlari yuksak did, o'ta mahorat bilan ishlangan. Alisher Navoiy ilm va san'at vakillariga har tomonlama rahnamolik qiladi. Ko'plab allomalarining kitoblarini qaytadan ko'chirtiradi.

Navoiy davrida Hirotda xattotlik san'ati namoyandalari Mir Ali Tabriziy, Sulton Ali Mashhadiy, uning shogirdlari Muhammad bin Nyp, Darvesh Muhammad Toqiy, Sulton Muhammad Xandon, Darvesh Muhammad Samarcandiy. Abdujamil kabilar faoliyat ko'rsatishgan. Bular orasida Sulton ul-xattoton, Qiblat ul-kuttab nomini olgan Sulton Ali Mashhadiy alohida o'r'in egallaydi. Alisher Navoiy qo'lyozma kitoblariga ishlangan suratlarda shoirning ma'naviy qiyofasi o'z aksini to'la-to'kis topganini ko'ramiz.

Albatta, bu o'rinda, Navoiy portret qaysi rassomlar tomonidan yaratilganligi ham katta ahamiyatga ega. O'zbek she'riyatining

sulton Alisher Navoiy obrazini Kamoliddin Behzoddan tashqari Mahmud Muzahhib tasvirida yaratgan.

Mahmud Muzahhib XV-XVI asrlarda Hirot va Buxoroda yashab ijod etgan. Miniatyura san'ati ustasi Mahmud Muzahhib asli Hirotda Kamoliddin Behzod qo'lida ta'lim olgan. O'z o'rniда Buxoro miniatyura maktabining rivojlanishiga hissa qo'sha olgan rassom Muzahhib ijodiy faoliyati ham tasviri san'at tarixida alohida ahamiyatga ega. Ma'lum bo'lishicha, XVI asrning 40-70-yillarida Mahmud Muzahhib ijodi gullab yashnagan. Ayni shu davrda Buxoro tasviri san'ati ravnaq topdi. Markaziy Osivo miniatyura va kitobat san'atining markaziga aylandi. Kamoliddin Behzoddan so'ng nafis tasviri san'atning davomchilari sisatida Mahmud Muzahhibning faoliyati Buxoro san'atkorlari ijodiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Endi bu yerda ishlangan rasmlar ko'chirilgan kitoblar har jihatdan o'zining mukammal mazmuniga ega bo'la boshladi. Musavvirning ijodidagi rang-barang yutuqlar, kompozitsiya yechimlardagi o'ziga xos nafisliklar uni Hirot nafis san'at maktabini o'taganligini ko'rsatadi. Mahmud Muzahhib ham Alisher Navoiy dahosidan bahramand bo'lganligi sir emas. Xullas, miniatyura san'atining mohir ustalaridan biri bo'lmish Mahmud Muzahhibga Alisher Navoiyning siymosini tasvirlash Buxoroda nasib etgan. Bu rassom tomonidan ishlangan Navoiy portreti ayni paytda Eronning Mashhad shahridagi Osmoni Quddus majmuasida saqlanmoqda. Portretning qimmatliligi o'z zamonasiga xos an'anaviy miniatyura uslubida yaratilganlidigadir. Yana shuni aytish kerakki, asar muallifi Alisher Navoiyni o'z ko'zi bilan ko'rgan va Kamoliddin Behzod ustozligidagi nafis san'at maktabini o'tagan. Mazkur portret Navoiy zamonasidan bir oz keyin yaratilgan bo'lsada, yuqorida dalillar uning haqiqatga yaqinligini aynan ta'kidlab turibdi. Bu obrazda gavdalangan ochiq chehrali qiyofani Behzod va unga o'xshash boshqa rassomlar asarlarida ham uchratish mumkin. Bu mashhur portretda keksa va nuroniy chehrasidan iliq tabassum balqib turgan buyuk bobomiz Alisher Navoiyga xos o'ta zukkolik hamda donolik yaqqol ko'rinish turibdi. Asarda Navoiy hassaga qo'llari bilan tayangan holda tasvirlangan. Portretning o'ziga xos ishlanishi, Navoiy yuz qiyofasining mukammal va to'laqonli tasvirlanishi Mahmud Muzahhibning mahoratli san'at ustasi ekanligidan dalolat beradi. Asarning yuqori qismida "Surati Amiri Kabir Mir Alisher" degan bitiklar bor. Pastki burchakda esa Mahmud Muzahhibning nomi zikr etilgan. Portretni diqqat bilan kuzatganimizda Navoiyning ma'noli ko'z qarashlaridan u kimningdir subbatini tinglayotgandek tuyuladi.

Bu asar dastlab 1931 yilda Londonda bo'lib o'tgan ko'rgazmada namoyish etilgan. Uning hajmi uncha katta bo'lmay 16x7 sm.li

miniatyuradir. Xullas, mazkur portret benazir, qimmatli shohona asarlardan biri hisoblanadi. Bu asar ilmiy, tarixiy jihatdan o'tmish tasviriy san'atining namunasi sifatida ham ulkan badiiy-estetik qimmatga ega.

Mahmud Muzahhib Hirotda shakllangan tasviriy san'at maktabini Buxoroda davom ettilishga harakat qildi. Bu borada uning shogirdlaridan Abdullo va boshqa shu kabilarning ijodi ham diqqatga sazovordir. Shunday qilib, sharq tasviriy san'atining namoyandalari yaratgan bir qator asarlar Buxoro miniatyura maktabiga tegishlidir. Noyob qo'lyozma kitoblarga ishlangan miniatyura san'atining katta bir qismi Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" kitobiga zarb etilgan. Atoqli adabiyotshunos olim Hamid Sulaymonovning sa'y-harakatlari evaziga "Boburnoma"ga ishlangan beba ho miniatyura rasmlar alohida kitob holida nashr qilingan. Unda jamlangan suratlarning birinchisi XVII asr boshlarida ishlangan xushta'b shoirona qiyosadagi Zahiriddin Muhammad Bobur siymosidir.

"Boburnoma"ga ishlangan beba ho rasmlarning yaratilishida Bobur avlodlarini (o'g'li va nabiralari) roli juda kattadir. Boburning o'g'li Humoyunning tasviriy san'atga ishtiyogi juda baland bo'lib, bu borada u musavvirlar faoliyatini nihoyat darajada qadrlagan. Shuning uchun ham u o'z davrining eng ilg'or rassomlarini doimo atrofiga to'plashga intilgan. Shu jumladan, Kamoliddin Behzodning shogirdi Mir Said Ali Tabriziy va Xoja Abdusamad Sheraziyni 1550 yillarda o'z saroyiga olib borishga erisha oladi. Ana shu ikki buyuk tasviriy san'at ustasi boburiylar miniatyura san'atining shakllanishi va ravnaqida juda katta rol o'ynagan. Hamid Sulaymonovning hikoya qilishlaricha boburiylar davri hind miniatyuralari temuriylar va safaviylarnikidan o'z badiiy uslubi, estetik normalari bilan aniq ajralib turadi. Sharq miniatyuralarining shartlilikidan kichik bir satuda (kitob varag'i sathida) butun bir voqeani yoki epizodlar turkumini tasvirlash zaruriyatidan "Boburnoma" rassomlari mohirlik bilan foydalanganlar. Murakkab voqealarni to'liq ifodalash uchun dastlab ular uch-to'rt epizodga ajratiladi. Har bir epizod bo'yicha mustaqil kompozitsiya yaratiladi. Ular kitob sahifasining pastidan yuqoriga qarab joylashtiriladi. Har bir kompozitsiya tarkibiga kiradigan manzaralar arxitektura elementlari, tog'lar, adirlar, daryolar, o'simliklar yoki matn parchalari yordamida bir-biridan ajralib turadi. Ayni vaqtida bir kompozitsiya o'z mustaqilligini saqlagan holda bir-biri bilan mantiqiy bog'lanib, asar mazmunini ochib beruvchi bir butun polotnoni tashkil qiladi. Masalan: Boburning o'z singlisi Xonzodabegim bilan uchrashuvi (7-minia-

tyura) to'rt planda berilgan. Birinchi planda - Bobur va uning kuzatuvchisi Muhammad Ko'kaldoshlarning otini xizmatkor ushlab turgani; ikkinchisida - Bobur va Muhammad Ko'kaldoshning Xonzodabegim bilan suhbat; uchinchisida - yuqorida o'ng tomonda saroyning ko'rinishi; to'rtinchi planda esa Hindiston tabiat berilgan. ("Boburnoma" rasmlari. "Fan", 1970.)

Umuman, boburiylar davri tasviriy san'ati rang-barang va sermazmundir. Musavvirlar sharq an'analarini har jihatdan o'zlashtirgan holda Hindistonda ma'lum va mashhur bo'lgan boburiylar sulolasi vakillari siymolarini tasvirlarda muhrlashga erisha olganlar. Boburiylar madaniyat, tasviriy san'at borasida Markaziy Osiyo bilan bog'lanib turishga doimo intilishgan. Ular Markaziy Osiyodagi yetuk san'atkorlarni jalb qilish istagida bo'lganlar. Ana shunday miniatyura san'atining mohir ustalaridan yana biri Muhammad Murod Samarqandiydir.

1556 yilda xattot Hamadoniy tomonidan Xorazm hokimi Eshmuhammad uchun Firdavsiyning "Shohnoma" asari ko'chizilgan bo'lib, bu asardagi 116 ta nafis miniatyura rasmlari ana shu Muhammad Murod Samarqandiy tomonidan bajarilgan. Bu qo'lyozma kitob va undagi miniatyura rasmlar Abu Rayhon Beruniy nomli sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Samarqandiy ijodi o'z xarakteri va mazmuni bilan serqirra ko'rinishlarga ega. Musavvir o'z davrigacha bo'lgan tasviriy san'at ustalarining an'ana va uslublari bilan chegaralanib qolmasdan yanda chuqurroq izlanishlar olib boradi. U chizgan miniatyuralar oddiy ko'rinishlarga ega bo'lsa-da, mohiyati nozik va ustalik bilan ochib beriladi. Bunga "Shohnoma" asaridagi miniatyura tasvirlari misol bo'la oladi.

XVII asr boshlaridagi tasviriy san'atda ham Muhammad Murod Samarqandiy ijodiga xos an'analar davom etganini ko'rish mumkin. Bunga Sankt-Peterburgning Saltikov-Shedrin kutubxonasida saqlanayotgan "Shohnoma"ga ishlangan miniatyura rasmlar yaq-qol misol bo'la oladi. Afsuski, uning muallifi nomi'lum, san'atshunos olimlarning fikrlariga qaraganda, bu rasmlarni ishlangan musavvir Samarqandiyning shogirdlaridan biri bo'lishi mumkin.

XVII asr miniatyurasidagi poftret san'atining mahoratli ustalaridan bo'lgan Hoja Muhammad musavvir, Davlat Muhammad, Nodir Muhammad kabi rassomlar haqida ba'zi manbalarda ma'lumotlar uchraydi. Ayniqsa, Hoja Muhammad musavvir o'tmish, Hirot, Samarqand, Buxoro maktabi an'analarining davomchisi ekanligi ta'kidlanadi. XVII asr tasviriy san'ati me'morchilikda ham

keng ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu borada, ayniqsa, 1619-1635 yillarda qurilgan Samarcanddag'i Sherdor madrasasi peshtoqiga ishlangan tasvirlar katta e'tiborga egadir. Bu bino peshtoqining naqshinkor kompozitsiyasi bilan uyg'un tasvirlangan of-toh sonida ohuga tashlanayotgan sherning surati jozibali bir ko'rinishda aks ettirilgan. Sher va ohuning tasvirini chiroyli shakl, aniq, mazmun va ko'rinishga ega bo'lib qolmasdan, tabiat olamining siru asrorlarini eslatayotgan ramziy belgiga ham o'xshab ketadi.

Kevingi davr miniaturachi rassomlari haqida ma'lumotlar juda kam bo'lsa-da, ular yaratgan asarlar xorijiy davlatlardagi ko'pgina muzey va kutubxonalarning qimmatli xazinalari sifatida saqlanib kelmoqda.

XVIII-XIX asrlarda ijod qilgan tasviriy san'at ustalaridan Muhammad Muqim, Ahmad Kalla, Ahmad Donish, Mulla Husniddin, Mulla Ortiq, Rahmatiy, Ibrohim Davron kabi rassomlar faoliyati e'tiborga molikdir. Masalan, O'zbekiston san'atshunoslik institutida saqlanayotgan XIX asr boshlarida Ahmad Donish tomonidan ishlangan "Majnun sahroda" deb atalgan miniaturaya o'llikamiz tabiat manzarasini aks ettirishi bilan alohida qimmatga ega. Xuddi shuningdek, XIX asr miniaturaya san'atining xarakterini Ahmad Kalla ishlagan rasmlarda ham ko'ramiz. Xulosa qilib aylganda, bu davrda ham O'zbekiston tasviriy san'ati keng miqyosda taraqqiy etgan.

IV BOB. XIX ASR OXIRI VA XX ASR O'ZBEKISTON TASVIRIY SAN'ATI

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston tasviriy san'ati o'zining yangicha shakllanish davriga asta-sekin kirib kela boshladi. Asosan bu davrga Yevropaning ilg'or tasviriy san'ati an'analarini rus va boshqa xalqlarning vakillari orqali o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu yangi bosqichning xarakteri haqida alohida to'xtalish lozim. Miniyatyraga xos ishlanish uslublari va qonuniyatlaridan farqli o'laroq, Yevropa davlatlarida ancha ilg'orlab ketgan uch o'lchamlilik qonuniyatlarini asosida rivojlangan bu tasviriy san'at aynan o'sha davrlarda bizning o'lcamizda deyarli mavjud emas edi. Ajdodlarimizning san'atga ixlosmand ilg'or vakillari esa ko'proq xalq amaliy bezak san'ati bilan mashg'ul bo'lganlar.

Har bir tarixiy davrning ijobiy va salbiy tomonlari bo'lganidek, bu davr ham shunday jihatlardan xoli emas edi. O'lcamiz tarixinining ana shu pallasida ham rus va boshqa xalq vakillarining ta'siri tasviriy san'atni har tomonlama ravnaq topishi uchun alohida ahamiyat kasb etdi. Asta-sekin mahalliy an'analar bilan uyg'un rivojlangan tasviriy san'atimiz rivojiga M.Novikov, L.Bure, S.P.Yudin, I.S.Kazakov, N.V.Ryazanov, N.I.Grechaninov, T.N.Nikitin singari rassomlar katta hissa qo'shishdi.

XX asrning 20-30 yillariga kelib esa O'zbekiston tasviriy san'ati o'ziga xos shakl-shamoyiliga ega bo'la boshladi. Tasviriy san'atning ijod maydonida yetuk rassomlar faoliyati o'rinnoldi. Bulardan A. Volkov, P.V.Kuznetsov, M.N.Kurzin, S.I.Finkelshteyn, N.G.Karaxan, V.I.Ufimtsev, Usta Mo'min(A.N.Nikolayev), N.Kashina, O.K.Tatovosyan, P.P.Benkov, S.M.Kovalevskaya, I.Ikromov, O'.Tansiqboyev, Ch. Ahmarov, L.Abdullayev va bosh-qalarning ijodiy namunalari e'tiborga molikdir. Asta-sekin O'zbekiston tasviriy san'ati vakillarining badiiy tafakkuri milliy ruh bilan boyib yangidan- yangi estetik dunyoni kashf eta boshladi.

Shu davrda xalqimiz hayotining rang-barang qirralari o'ziga xos ifodasini tasviriy san'atda ham topadi. O'zbek xalqining milliy

an'analarini jamlab o'zbekona tasvirlay olgan rangtasvir ustasi Usta Mo'min (asli ismi Aleksandr Vasilyevich Nikolayev) ana shunday san'at ustalaridan biri edi. U 1897 yil 30 avgustda Voronejda harbiy injener oilasida tavallud topgan. Taqdir taqozosi bilan yigirmanchi yillarda Samarqandga kelib yashaydi va mehnat faoliyatini davom ettiradi. U sobiq sovet davrida O'zbekiston tasviriy san'atini har tomonlama targ'ib va tashviq qilishda samarali mehnat qilgan musavvirdir. Usta Mo'min o'zbek xalqining san'ati, madaniy merozi bilan astoydil qiziqdi, va uni qadrlagan holda mahalliy xalq xarakteri va tabiatiga mos asarlar yarata olishga tuyassar bo'ladi. Rassomning tinib-tinchimay izlanishlari yaxshi natijalar beradi. Xalqimiz xarakteriga xos xususiyatlar ayniqsa "Bahor" (1923 yil) "Kuyov" (1923 yil), "Dutorchi bola" (1924 yil), "Choyxonachi" (1928 yil) kabi asarlarida yaqqol aks etgan. Bundan tashqari, Nasriddin Afandi latifalari to'plamiga mos ajoyib va qiziqarli illyustratsiya hamda rasmlar ishlagan. Umuman, Usta Mo'minning ijodida o'zbek san'atkorlariga xos an'analar o'z aksini to'la-to'kis topdi. U o'zbek xalqi turmush tarziga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratari ekan, milliy qiyofa, urf-odat, shuningdek, liboslarning to'laqonli xarakterini o'z asarlarida birinchi planga chiqardi.

O'tgan asrning 20-30- yillarida O'zbekiston tasviriy san'ati alohida uslubiy izlanishlar evaziga rivoj topa boshladı. Ana shu yillarda erishilgan ijodiy muvaffaqiyatlar o'z ta'sirini keyingi avlodlarga ularshar ekan, natijada tasviriy san'atda mahalliy vakillarning safi kengaya bordi. O'Tansiqboyev, Ch. Ahmarov, A. Abdullayev, M. Nabihev, L. Abdullayev, Sh. Hasanova, R. Temurov, X. Rahmonov, B. Hamdamiy, L. Nasriddinov va boshqa bir qator ijodkorlar yetishib chiqaboshladilar. Mana shu davrda bir qator rassomlarning yetuklik pillapoyasiga chiqishlarida ustozlik qilgan Nikolay Stepanovich Turkestanskiyning faoliyati ham diqqatga sazovordir. Bu ustoz rassom o'z davrida tasviriy san'at sirlarini yoshlarga o'rgatish borasida va ko'rgazmalar tashkil qilib targ'ibot, tashviqot ishlarini olib borishda samarali mehnat qilgan.

XX asr birinchi yarmi tasviriy san'ati tarixida O'zbekiston xalq rassomi Aleksandr Nikolayevich Volkovning ijodi bebahoh qimmatiga ega. A. Volkov 1886 yilda Farg'onada tavallud topgan. U yaratgan asarlar badiiy qimmati, xarakteri jihatidan ham xalqimizga xos an'analarini namoyish qiladi. Umuman, Volkov tasviriy san'atda o'zbekona maktab yarata oldi. Dastlab, Volkov mashhur rassom M. Vrubel an'analarini davom ettirish bilan birga o'z asarlarida jahon tasviriy san'atining ilg'or tendentsiyalarini puxta egallaganligi bilan ham ajralib turadi. Rassom yigirmanchi yillardayoq timimsiz ishlar.

o'z asarlarining ko'rgazmalarini ketma-ket namoyish qilib hisobot berib turar edi. A. Volkov Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston san'ati merosini o'z davrida ma'lum va mashhur bo'lishida katta hissa qo'shdi.

Shu o'rinda akademik rassom O'rol Tansiqboyev haqida to'xtalmasdan o'tish mumkin emas. Manzara janrining mahoratli ustasi butun hayoti va ijodiy faoliyatini O'zbekiston tabiatini tasvirlashga bag'ishlagan. O'rol Tansiqboyev serquyosh o'lkamiz tabiatini o'tkir mo'yqalamiga tayanib san'atkorona tasvirlashi bilan tasviriy san'at rivojiga benazir hissa qo'shgan buyuk rassomdir. U 1904 yil 4 mayda Toshkent shahridagi qozoq millatiga mansub oila-da dunyoga keladi. O'rol tavallud topgan oila serfarzand, ota-onalari xokisor insonlar edi. Otalari Tansiqboy ota juda erta dunyodan o'tadilar. Onalari Xalifa opa va ularning katta o'g'li Nurmonga 5 o'g'il va 3 qiz bo'lgan bu oilani tebratish vazifasi yuklanadi. O'rolning yoshlik yillari qiyinchilik davrlariga to'g'ri keladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, u juda yoshligidanoq rasm chizishga astoy-dil qiziqqanligi tufayli tabiatning sehrli olamini kuzatar va unga mahliyo bo'lib tasvirlashga intilar edi. Ilk bor maktabda rasm saboqlarini Yaroslav Fyodorovichdan o'rgangan. Keyinchalik esa tasviriy san'at sirlarini o'zlashtirishda mashhur rus rassomi Repining shogirdi Rozanovaning ta'siri katta bo'lgan. Ko'rgazma zallari, O'zbekiston tasviriy san'at muzeyining eksponatlari Tansiqboyevning eng sevimli maskani edi. Shuning uchun ham u ko'rgazma va muzey zallarida kartinalarni kuzatish, ularning sir-asrorlarini o'rganish orqali o'z yo'lini, o'z ovozini topishga intildi. 1927 yilda yaratilgan "Rassom Akrom Toshkanboyev portreti" dastlabki ijodiy yutuqlarining namunasidir. 20-30-yillardagi ijodiy izlanishlar hamkorlikda olib borilgan mashaqqatli mehnatlar, ayniqsa, ustoz rassomlarning faoliyatlarini o'rganish O'rol Tansiqboyevga samarali ta'sir qildi. 1934 yilning avgust oyida Moskvada o'tkazilgan o'zbek rassomlari ko'rgazmasi uning ijodiy namunalarining o'ziga xos ajralib turishini yana bir bor ko'rsatdi. Bu yerda rassomning "Ona ovulda", "Ko'chmarchilar manzili", "Meva terish", "Ozod ayol" kabi asarlari ko'pehilikni o'ziga jalb qildi. Keyingi izlanishlar, tabiat bag'rida qilingan ijodiy mehnatlar O'rol Tansiqboyevni tabiat manzarasiga oshno qila boshladi. Rassom endi butunlay manzara janriga o'zini bag'ishlar ekan, san'atning sirli cho'qqilarini egallayotganini ko'ramiz. Bu o'rinda, ayniqsa "Sirdaryo" (1935), "Burchmulla" (1936), "Bog'iston" (1937), "Tog' manzarasi" (1937), "Bahorgi ishlari" (1938), "Orol dengizi" (1939) va boshqa bir qancha tabiat manzarasini aks ettirgan eskiz va etyudlari uning mahorat cho'qqisi

sari chiqayotganidan dalolat beradi. O'rol Tansiqboyev o'zining yangi-yangi manzaralarini yaratish ekan tabiatimizga xos rang majmualarining xarakterini topishga muvaffaq bo'lган. Masalan, rassomning 1947 yilda ishlangan "Bahor" nomli asari to'laqonli, sermazmun, bo'yoqlarga burkangan tabiat manzarasini namoyish qiladi. Yangi yaratilayotgan manzaralarda keng bo'shliqning juda ustalik bilan tasvirlanishi, bu bo'shliq bag'ridagi tabiatning nozik va nafis sirlari o'ta mahorat bilan aks ettirilayotganligining guvohi bo'lamiz. Bu o'rinda ayniqsa "Issiqko'lda kech", "Taxiatosh" (1951), "Qoraqum suv ombori" (1957) kabi asarlari diqqatga sazovordir. O'rol Tansiqboyev buyuk san'atkor bo'lishining sababi shundaki, u bahorning oshuftasi bo'lish bilan birga ona tabiatga shunday mehr qo'ydi. Biror-bir daqiqani tabiat bag'risiz o'tkazmaslikka harakat qildi. Bahor kezlarida tabiat bag'riga nafaqat sho'ng'ib ketar, balki shu fasl havosi bilan qorishib ketardilar. Ana shuning uchun ham uning asarlarida tabiatning hech kim eshitmagan jarangli va sehrli kuy-qo'shiqlari yangrar edi. 60-yillarda ham o'nlab shunday rang-barang asarlar yaratdiki, ular tasviriy san'at tarixiga durdona namunalar bo'lib kirdi. "Qoraqum GESi tongi" (1957), "O'zbekistonda mart" (1958), "Ala-tov" (1960), "Angrendagi tog' yo'li" (1962), "Angren daryo" (1963), "Tungi tog' qishlog'i" (1962), "Kech" (1971) va bir qancha asarları kishini tabiat manzarasiga sayr qildiradi. 1972 yilda yaratgan "Mening qo'shig'im" polotnosti dovrug' topdi.

Avvalo, shuni aytish kerakki, har bir narsani o'rganish ona tabiatdan boshlanadi. Serquyosh o'l kamiz tabiatining go'zalligini, tabiatning o'ziga xos kuy bilan jaranglashini, ayni bahor gullarga to'lgan paytda esa uning qo'ynida hayotning naqadar jozibadorligiga hayratlanasan kishi. O'rol Tansiqboyev serquyosh o'l kamizni, rango-rang tabiatini ana shu yo'sinda mohirona tasvirlaydi. "Mening qo'shig'im" kartinasiga musavvir umrining so'ngi yillarda yaratilgan. Shuning uchun ham ushbu ajoyib manzara da rassomning butun ijodiy mehnati, hayot yo'li mujassamlashgandek ko'rindi. Asarning oldingi planida tog' toshlari bahor tabiatining gullariga burkangan holda jozibali qilib tasvirlangan. Bir qarashda oddiy ko'rinsa-da, bahaybat va nihoyatda ulkan tog'lar bag'rida toshlar tarix sirlarini hikoya qilayotgandek tuyuladi. Rassom o'zining bu asarida tabiatning nafis va nozik go'zalliklarini chizadi. Qo'shiqchining ovozi-yu bastakorning kuyi - barcha-barchasini ishtirot ettirayotgandek ko'rindi tasvirlarda go'yo. Ona tabiat bag'riga kirib, o'z ovozi bilan kuylagan yoqimli qo'shig'ini "Mening qo'shig'im" deb aytadi.

O'rol Tansiqboyev tabiatning nozik sirlarini aks ettira olgan iqtidorli san'at ustasi sifatida muxlislarni o'ziga rom qila oldi.

Manzara janrining ana shunday yana bir ilg'or vakili **Nikolay Georgiyevich Karaxan** hisoblanadi. Rassom Karaxanning onasi naqshin gilamlar to'qiydigan chevar bo'lган. Ajabmaski, Karaxanning tabiatga oshno bo'lishi avvalo mushtipar onadan o'tgan bo'lsa. "Onasiga jon dildan ko'maklashib yurar ekan, bola undan beixtiyor go'zallik sabog'ini olar, naqshlarning ritmik qonuniyatlarini o'zicha idrok etib, bo'yoqlarning jilvalanishini zavq bilan kuzatar edi".

N. G. Karaxan o'lkamiz tabiatida doimo sayr qilar va har bir faslning o'ziga xos go'zalliklarini serjilo ranglar bilan tasvirlab berishga intilar edi. 30-yillarda ishlagan "Qizlar hovuz bo'yida", "Uch mashshoq", "Hovlida uzum uzish", "To'g'on qurilishi", "Bahor", 1940 yillarda yaratgan "Xirmonchi qiz", "Ona diyor", "Nanay yo'li" kabi manzaralari uning o'ziga xos tasviriy san'at ustasi ekanini isbotlaydi. Ayniqsa, 1957 yilda ishlangan "Oltin kuz" asari tabiatimizga xos go'zallikni o'ta mahorat bilan ko'rsata olganligining namunasidir.

ISKANDAR IKROMOV — O'zbekiston xalq rassomi, grafika san'ati ustasi (1904-1972).

Rassom Iskandar Ikromovning ijodiy faoliyati kitob grafikasi san'ati bilan chambarchas bog'liqdir. U 1904 yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Yoshlik yillarida rasm ishlashni ishtiyoq bilan o'rgandi. 1923 yillarga kelib Iskandar Ikromovning grafika san'atiga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi. Uning rasmlari "Bolalar dunyosi" jurnalida, hajviy rasmlari esa "Mushtum" jurnalida chop etila boshlaydi. Rassom tasviriy san'at sirlarini chuqurroq o'rganish uchun Sankt-Peterburgga borib o'qiydi. U Sankt-Peterburgdan "Kitob san'atining texnik rassomi" diplomi bilan qaytadi. Bunday mutaxassis kadr o'z davrida respublikamizning davlat nashriyoti uchun juda zarur edi. Iskandar Ikromov O'zbekistonning birinchi poligrafchi rassomi sifatida tanila boshladi. Bu borada samarali ijod qilish bilan birga tasviriy san'atning grafika turiga doir qo'llanmalar yaratdi. 1932 yilda rassomning "Rasmni o'rganish", 1933 yilda "Kitob va jurnallar qanday nashr etiladi" albomi, 1935 yilda "Harflarni yozishni o'rgan" kabi kitoblari chop etildi. Iskandar Ikromov pedagogikaga bog'liq kitoblar yaratish bilan birga, kitob grafikasini yanada puxta o'rganib, o'zbek shoir va yozuvchilarining asarlariga ko'plab rasmlar ishlaydi va kitob mazmunini ochib bera olgan holda mahorat bilan bezaydi. Ikkinci jahon urushi yillarida hozirjavob harbiy plakatlar, front uchun chiqarilgan kitoblarning asosiy qismi bo'lgan "Jangovar

varaqlar"ni bezatish ham Iskandar Ikromov zimmasiga tushdi. Ayniqsa, o'zbek adiblari, shoirlari kitoblarini o'ziga xos milliy va an'anaviy bezaklar bilan boyitilishi rassomning tez orada san'at va adabiyot vakillari o'rtasida obro'-e'tibor qozonishiga sabab bo'ldi. Ana shuning uchun ham Iskandar Ikromovga 1944 yilda O'zbekiston xalq rassomi unvoni beriladi. 50-yillarga kelib ijodkor kitobga badiiy bezak berish borasida mashhur tasviriy san'at ustasi bo'lib tanildi. Shu davrda nashr etilgan ko'plab kitoblarni asosan Iskandar Ikromov bezagan. U yaratgan asarlar kitob, jurnal va gazetalarning chiroyiga chiroy qo'shib, o'quvchilarga manzur bo'lib qoldi. U uzoq yillar davomida O'zbekiston rassomlar uyushmasiga rahbarlik qilgan.

CHINGIZ ABDURAHMONOVICH AHMAROV
(1912-1995) — O'zbekiston xalq rassomi, monumental
devoriy rasmlarning mohir ustasi.

Chingiz Ahmarovning nomini eshitmagan, uning ijodi bilan bog'liq bo'lган nafis tasvirlarni bilmagan san'at ixlosmandlari bo'lmasa kerak. O'zbekiston tasviriy san'atida miniatyuraga xos ajoyib rang polotnolar yaratib milliy san'atimizning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan bu buyuk rassomning o'z ijodiy yo'li va san'at maktabi mavjud. Chingiz Ahmarov 1912 yilda Rossiyaning Troitsk shahrida tavallud topgan. Davr taqozosi bilan ularning oilasi O'zbekistonga kelishadi. U yoshlik yillaridayoq Qarshi, Samarkand shahridagi sharqona me'morchilik obidalari amaliy san'at sirlari bilan astoydil tanishadi. Chingiz Ahmarov o'zbek xalqining tarixi, uning an'anaviy san'at merosiga qiziqadi. U juda ko'plab o'zbek adiblarining, jumladan buyuk bobomiz Alisher Navoiy asarlarini o'rganar ekan o'zbek milliy adabiyotiga, she'riyatiga mahliyo bo'ladi. Go'zallik sirlarini qidirish musavvirni Navoiy ijodiga yanada chuqurroq "kirish"ga jalb qiladi. "Xamsa"dagи voqealar nafisligini sezgan Chingiz Ahmarov uni bo'yqlarda jonlantirishga kirishar ekan, har bir asar ustida qayta-qayta mehnat qilib to'laqonli va go'zal siymolarni yaratishga tuyassar bo'ladi. 1945 yilda yaratilgan "Shirin portreti"da ana shunday betakrorlikni ko'ramiz. Shirinning sharqona chehrasi, liboslari hatto xatti-harakatidagi holatlar bir-biri bilan uyg'unlashib o'ta mahoratli tasvirlangan. Bu portretda boshlari bir oz egilgan, nozik qarashlar bilan eshik yonida turgan Shirinning to'liq gavdasi aks ettirilgan. Bunday asarlarda Navoiy bobomiz orzu qilgan o'zbek ayollariga xos go'zallik, iffatlilik va o'ta nazokatli xususiyatlarni Chingiz Ahmarov bo'yqlar orqali jonli tasvirlashga muvaffaq bo'ladir.

Musavvirning mo'yqalamiga xos sharqona obrazlar va qiyofalar takrorlanmas tarzda yuzaga kela boshlaydi. Ayniqsa, Alisher Navoiy nomli O'zbek davlat akademik katta teatrini bezatilishida rassom o'z imkoniyatlarini namoyish eta bilgan. Bu yerda aks ettirilgan ramziy ma'nodagi tasvirlar vositasida o'ziga xos san'at sirlari ochib beriladi. Kezi kelganda ramziy tasvirlarni ta'kidlab o'tish zarur. "Tasviriy san'at ramzi", "Raqs", "She'riyat", "Kuy" kabi san'atning ramziy tasvirlari diqqatga sazovordir. Bu yerda ishlangan monumental tasvirlar "Saddi Iskandariy", "Farhod va Shirin", "Bahrom Go'r va Dilorom", "Layli va Majnun" kabi devoriy suratlarda milliy tuyg'u va an'analar gavdalantiriladi. Bu asarlarning hammasi musavvir tomonidan 1947 yilda yaratilgan. Rassom 60-yillarda ham mumtoz adabiyotimizga tayanib ajoyib devoriy polotnolar yaratdi. Uning har bir asarida o'zbek xalqining tarixi, ulug' mutafakkirlari siymolari, go'zallik timsollari shunday bir jozibali tasvirlanadiki, hali hech bir rassom Chingiz akaning mo'yqalamiga xos bunday xususiyatlarni jamlashtira olgani yo'q. Chingiz Ahmarov O'zbekiston tasviriy san'atida milliy an'analarni bo'yoqlarga to'yintirib va xarakterini to'laligicha ifodalab bera olgan mashhur rassomdir.

Chingiz Ahmarovning rassomi sifatida shakllanishi 40-yillargacha bo'lgan tasviriy san'at tarixida alohida rol o'ynaganini qayd qilish mumkin. 40-yillardagi O'zbekiston tasviriy san'atining ravnaqiga samarali hissa qo'shgan yana bir qator rassomlardan P.P.Benkov, B. Hamdamiy, L. Abdullayev, A. Abdullayevlardan tashqari, grafiqa san'atining ustasi Vladimir Yelpidorovich Kaydalov haqida to'xtalish ham maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, buyuk alloma Alisher Navoiyning 500 yillik tavalludi munosabati bilan juda ko'plab tasviriy san'at ustalari Navoiy obraziga murojaat qilishgan. Bu o'rinda, ayniqsa, V.Ye.Kaydalov yaratgan "Navoiy portreti" o'zining mukammal ishlanishi bilan diqqat-e'tiborga sazovordir.

Ikkinci jahon urushida ishtirot etgan mahalliy rassomlardan Hikmat Rahmonov, Samig' Abdullayev kabilar bir qo'lida mo'yqalam, bir qo'lida qurol ushlab faoliyat yuritishgan. Iste'dodli san'at ustalaridan B. Hamdamiy va L. Nasriddinovlar, afsuski, frontdan qaytishmadi. Shu narsa yana e'tiborga molikki, aynan Ikkinci jahon urushi yillarda o'nlab mashhur san'at ustalari Rossiya, Ukraina va boshqa joylardan O'zbekistonga kelishdi. Natijada ularning ijodiy yutuqlari, uslublari mahalliy san'at vakillariga ta'sirini o'tkazdi. 50-yillarga kelib bir qator o'zbek rassomlari ijodida yangi-yangi asarlar yuzaga kela boshladи. Yuqorida ko'rganimizdek, O'Tansiqboyev, N.Karaxan kabilar manzara janrida faoliyatini-

davom ettirishgan bo'lsa, Abdulhaq Abdullayev, Malik Nabihev kabi rassomlar portret janrida samarali ijod qila boshladi.

ABDULHAQ ABDULLAEV-O'zbekiston xalq rassomi.

1918 yilda Turkistonda tavallud topgan. Portret san'ati ustasi, Abdulhaq Abdullayev portretchi rassom sifatida tanilgan bo'lib, uning asarlari chuqur ruhiy kayfiyatni aks ettirishi bilan ajralib turadi. Bu borada ayniqsa, mashhur o'zbek aktyori Abror Hidoyatovning Otello roolidagi portreti (1946) e'tiborga molik.

Ma'lumki, o'z davrida Abror Hidoyatov Otello roli orqali jahonga tanildi. Ana shu obrazni astoydil kuzatgan, har jihatdan o'rgan-gan rassom uni o'ziga xos tarzda tasvirlashga muvaffaq bo'ladi. O'ta ta'sirchan va to'laqonli bu portret rassomning mahorat cho'qqisidan dalolat beradi. Obrazda o'tkir ko'zlar, qandaydir kuch va ichki bir harakatlar bilan tasvirlangan bu portret bir qarashdayoq tomoshabin e'tiborini o'ziga rom etishiga shak-shubha yo'q. Asarda umumiyligizg'ish rang gammasi portretdag'i obrazning ichki g'oyasini ochib berishga xizmat qildi. Umuman Abdulhaq Abdullayev portret yaratishda obrazning ichki qiyofasini ko'rsata olishi bilan alohida ajralib turadi. 1949 yilda ishlangan yozuvchi Oybek portretini kuza-tar ekanmiz, insonning psixologik olamining tasvirlanishiga yana bir bor tan beramiz. Rassom inson qiyofasini tasvirlashga qayta-qayta murojaat qilar ekan, har bir suratda o'zgacha bir olam, o'zgacha bir yangiliklarni kashf etadi. U yaratgan asarlar qanday qilib bo'lmasin tomoshabin qalbini hayajonga soladi. Abdulhaq Abdullayev ko'plab zamondoshlari va bir qancha avtoportretlarni yaratish bora-sida ham bunday muvaffaqiyatlarni qo'liga kiritgan.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy obrazi ustida bu rassomchaliq ko'p mehnat qilgan san'at ustasini tasviriy san'at vakillari ichida topish amri mahol bo'lsa kerak. "Bir necha nusxada chizilgan Alisher Navoiy portreti o'zining mo'tadilligi, sofligi va ruhiy dunyosining boyligi bilan ajralib turadi. Bunda rassomga xos romantik tuyg'u bilan tasvirlan mish shaxsning ruhiy dunyosini chuqur tushunish qobiliyati bir-biri bilan uyg'unlashib ketadi". - deb ta'riflaydi Tilab Mahmudov. Rassom o'z ustida tinimsiz ishlar ekan shogirdlariga ham haqiqiy ijodning natijasi tinimsiz mehnat, astoydil izlanishlar evaziga chiqishini amalda isbotlab kelmoqda.

Rassom "Nazarali Niyozov" (1949), "Onam portreti" (1952), "Indira Gandhi" surati (1957), "Buvi bilan nabira" (1960), "Rassom Chingiz Ahmarov" kabi o'nlab bebahol asarlar muallifidir. Muhimmi, Abdulhaq Abdullayev yaratgan portretlar allaqachon O'zbekiston tasviriy san'atining noyob durdonalariga aylanib qolgan.

Yil sayin tasviriy san'at sohasiga bir qator yangi-yangi asarlar kirib kela boshladi. Bu borada mahalliy rassomlardan Rashid Temurov, Sapog' Muhammedov, Zokir Inog'omov, Rahim Ahmedov. Mannon Saidov kabi ijodkorlarning faoliyati kengroq ko'zga tashlana boshlaganini ko'ramiz. Manzarada R. Temurov, Z.Inog'omovlar ijodiy muvaffaqiyatlar qozondi. R. Ahmedovning tematik kompozitsiyalari, natyurmort va bir qancha portretlari tomoshabinlar qalbiga yoqimli kayfiyat ulashdi. Rahim Ahmedovning ijodidagi o'ziga xoslik izlanish - o'zbek tasviriy san'atida alohida bir maktab bo'lib shakllanganligi ma'lumdir.

MALIK NABIEV-O'zbekiston xalq rassomi, professor.

"Hayotda o'z qo'shig'ini topa olgan, uni betakror ohangda ko'pehilikka manzur qilib kuylay olgan san'atkorni baxtli desa bo'ladi", - deb ta'kidlagan edi taniqli rassom O'rol Tansiqboyev. Rassom Malik Nabiyev hayoti va ijod yo'lida O'. Tansiqboyev ta'kidlaganidek, nafaqat o'z ovoziga, balki baxtiga ham erishgan ustoz san'atkor darajasiga ko'tarildi. U tajribali pedagog, usulbiyatchi olim sifatida ham tanildi.

San'at shunday bir mo'jiza ekanki, uni sevib bag'riga kirgan inson doimo o'zini yosh, navqiron sezib, mehnat qilib tolmas, o'zi sevgan mashg'ulotisiz yashay olmas ekan. Tasviriy san'atga umr bo'yи ana shunday maftun bo'lib kelayotgan rangtasvirchi rassom Malik Nabiyev 1916 yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Malik Nabiyev tasviriy san'atning ilk saboqlarini rassom Bahrom Hamdamiydan o'rgangach, ustoz maslahatiga binoan rassomlik bilim yurtiga o'qishga kiradi. 1937 yilda bilim yurtini imtiyozli diplom bilan muvaffaqiyatli tugatgandan so'ng esa shu yerda o'qituvchi bo'lib ishlay boshlaydi. O'sha yillardan boshlab san'at borasidagi mustaqil ijodiy yo'li boshlangan edi. U o'z asarlari bilan ko'rgazmalarda ishtirok etdi. 1936 yilda esa rassomlar uyushmasiga qabul qilindi. Musavvir urush yillarda professor Mixail Fyodorovich Shemyakin rahbarligida tasviriy san'at sirlarini yanada chuqurroq o'rganishga kirishdi. Urushning og'ir yillarda qishloqlarni kezib, portretlar ishladi. fashistlarni qoralovchi plakatlar chizib, chaqiriqlar, shiorlar yozib, front ortidagi mehnat bilan g'alabani yaqinlashtirishga o'z hissasini qo'shdi. Yoshligidan tarixiy mavzularga bo'lgan qiziqish va harakatlari zoye ketmadi. Vaqtlar o'tishi bilan rassomning tarixdan hikoya qiluvchi rang-lavha, chizma-tasvir va kichik kompozitsiyalari katta-katta polotnolarga aylandi. Malik Nabiyev o'z asarlarda tarixiy voqealar mazmunini aniq ifodalashga harakat qiladi.

Mo'yqalam sohibining asarlarida g'oyaviy jihatdan boy bo'lgan mavzulardan biri tarixiy siymolar obrazidir. Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning portreti (1972) har jihatdan mukammal ishlangan.

Mutafakkir Beruniy obrazi rassomning bir necha yillik izlanishlari, portretning bir necha bor eskizlar va ranglamalarini ishlashi natijasida yuzaga kelgan. Shu tariqa asarning bir nechta, bir-biridan farq qiluvchi nusxalari yaratilgan.

1949 yili Al Beruniy vafotining 900 yilligi munosabati bilan olim portretini yaratish uchun konkurs e'lon qilinadi. Bu konkursda o'ttiz nafardan ortiq o'zbekistonlik va boshqa xalqlarning yirik rassomlari ishtiroy etishadi. Shu tanlovda Malik Nabihev ham qatnashdi. Musavvirning asarlaridagi buyuk olim obrazi boshqa rassomlar tomonidan ishlangan namunalarga nisbatan to'laqonli, deb e'tirof etiladi. 1973 yilda esa Beruniy tavalludiga 1000 yil to'lishi munosabati bilan ikkinchi marotaba konkurs e'lon qilinadi. Rassom Malik Nabihev Beruniy obrazi ustida izlanishni davom ettirib va nihoyat ikkinchi marotaba ham konkurs g'olib bo'ldi. Bu portret konkursdan so'ng YUHESKOning "Kurer" jurnali muqovasida va xorijiy mamlakatlarning ko'pgina jurnal va gazetalarida hamda otkritka, marka, plakat tarzida bir necha bor nashrdan chiqadildi. Portretda ilm muammolarini yechishga chog'langan vazmin nigohi olisni ko'zlayotgan alloma xarakteri isoda etilgan. Rassom ilm sirlarini yechish uchun butun vujudi bilan kirishgan insonparvar olim Abu Rayhon Beruniyning butun salobatini tasvirda gavdalantiradi. Kartinaning keyingi planlaridagi kitoblar ilm-fanga bog'liq bo'lgan buyumlar - Beruniyning qomusiy olim va mutafakkir ekanini yanada bo'rttirib ko'rsatilishiga xizmat qilgan.

Musavvirning ulkan yutuqlaridan yana biri buyuk shoir, adib, faylasuf va davlat arbobi Zahiriddin Bobur obrazidir. Bobur obrazini yaratish uchun rassom Afg'oniston, Hindiston va boshqa bir qancha xorijiy mamlakatlarda ham bo'ldi. Bobur yashagan, ijod qilgan, jang qilgan joylarni o'z ko'zi bilan ko'rди. M. Nabiyeving Bobur she'riyati bilan batafsil tanishgani, uning achchiq va sermazmun hayotini mukammal o'rganganligini, Boburni navqiron va to'laqonli gavdalantirgan portreti vositasida his etamiz.

*Ko'pdan berikim yoru diyorum yo'qdir,
Bir lahzayu bir nafas qarorim yo'qdir.
Keldim bu sari o'z ixtiyorim birla
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qdir.*

Bobur o'z yurtidan olislarga ketib, ona yurtiga mehru muhabbatini ana shunga o'xshash izhor qilayotgan holati, rassomning

jonli bo'yoglarida namoyon bo'lgan. Xullas, Bobur portretidagi turli xil bo'yoglarda aks ettirilgan tuyg'ular uyg'unligi butun borlig'ingizni ranglar sehri bilan qamrab oladi.

Tasviriy san'atda tarixiy shaxslar obrazini Malik Nabiyev ijodisiz to'liq tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur obraziga rassomning murojaat qilishi sabablari xususida to'xtalish joizdir. Taqdir taqozosi bilan 1941 yil iyun oyida Amir Temur dahmasi, so'ngra Mirzo Ulug'bek va Bibixonim qabrlari ochilganligi ma'lum. Bir oz vaqt o'tgandan so'ng qabrdan topilgan ashylar, jumladan Sohibqironning bosh suyagi ham Toshkentdagi O'zbekiston xalqlari tarixiy muzeysiiga olib kelingan. Bu haqda musavvir hikoya qildi: "M. Gerasimov muzei binosida jahongirning bosh suyagi asosida haykal portret ishlashni boshlab yuboradi. Men bu jarayonni o'z ko'zim bilan ko'rganman. Nachora, zamon taqozosi ekan. Albatta, bu voqeя rostdan ham dahshat! Sohibqironning arvohi chirqirab, ruhiy azob chekkan bo'lishi tabiiy... O'sha 1941 yildan beri ulug' sarkarda siymosini yaratish niyati meni bir daqqa ham tark etgani yo'q". Ellik yildan ortiq vaqt ichida Amir Temur obrazini har tomonlama o'rganish uchun olib borgan tadqiqotlari, izlanishlari haqida so'zlab berishlarini so'raganimizda rassom bizga yana shu sikrlarni bayon qildi:

"Shu davr ichida Amir Temur haqida ko'plab asarlar bilan tanishdim. Mavjud miniatyuralarni, qayerda bo'lmasin, imkoniyat darajasida qidirib topdim. Men Hindistonning Kalkutta, Bombay shaharlaridagi muzeylarda, Eronning Tehron, Isfaxon, Turkiyaning Istanbul, Ko'nyo, Izmir va boshqa shaharlarida, Angliyaning "Britaniya" muzeyida, Frantsiya, Ispaniya kabi mamlakatlar muzeylarida saqlanayotgan miniatyuralarning asl nuxxalarini ko'rishga muvaffaq bo'ldim. Ularda Amir Temur turlicha tasvirlangan. Hindistonning Bobur miniatyura maktabi, Behzod (Hirot) miniatyura maktabi vakillari chizgan Amir Temur qiyofasi bir-biridan tubdan farq qiladi. Istanbul muzeyidan joy olgan Temur portreti ham butunlay boshqacha..."

Xullas, Amir Temur siymosini yaratish uchun bir emas, bir necha miniatyura maktabini o'rganib chiqdim. Tarixiy asarlarni yaratishda avvalo men bobolar ruhidan madad so'rayman, ana shu narsa mena doimo dalda berib turadi..." Haqiqatdan ham rassom bu portret asarini yaratish borasida astoydil izlanishlar olib borgan, yutuqqa yuksak mahorati, mo'yqalamining kuchi tufayli erishgan.

San'at ixlosmandlari e'tiborini o'ziga jalb qilgan Amir Temur portretida Sohibqiron sarkarda qiyofasida gavdalantirilgan.

Boshiga oltin toj kiygan Temurning nigohi bir nuqtaga qaratilgan va jiddiy hayol og'ushida ekanligi chap qovog'ini bir oz ko'tarilib, qoshi tepaga chimirilganidan sezilib turadi. Ulug'vor fikr bilan bandligidan dalolat beradi. Yuz qiyofasi asosan bug'doyrang tuslar orqali tasvirlangan. Peshona, yuz qismida paydo bo'lgan chiziqlar; shuningdek, burun, lab, quloq, soqol, mo'ylov kabi joylaridagi holatlar Temurning yoshi bir oz o'tganligini ko'rsatsa-da, uning tetik va baquvvatliligi saqlanganligi yaqqol sezilib turibdi.

Ayniqsa, bu holat yuzda ko'zga tashlanayotgan pishqlik, chayirlikni tasvirlanishida yanada aniqroq ko'rindi. Jiddiy fikr va hayol bilan bandligi esa sohibqironni yanada salobatli qilib ko'rsatadi. Yelkador, qo'llari esa bamaylixotir qilichga tayangan holda tasvirlangan portretda qo'l barmoqlari shunday xarakterli tasvirlanganki, bu Sohibqiron Temurning mashaqqatli jangu jadallar dan mardonavor o'tganini yana bir bor tasdiqlab turibdi. Sharqona bezatilgan shoh saroyining bir bo'lagi, derazadan Samarkand shahrining manzarasi ko'rindi. Devordagi fonda naqshin bezak lar, Sohibqiron o'tirgan saltanat kursisining badiiy boyligi, shuningdek Amir Temur egnidagi liboslarning o'ziga xos qimmatbaho ko'rinishga ega bo'lishi tomoshabinga zavq ularashadi.

Malik Nabihev buyuk inson Amir Temur obrazini tasvirlash borasida katta muvaffaqiyatni qo'lga kiritdi. Temurni ilm, san'at ahillariga homiylik qilgan ma'risaf homiysi ekanini ham ifodalay oldi. Xullas, Malik Nabihev sharqona xarakterga ega bo'lgan Amir Temurni uzoq va mashaqqatli jangu jadallardan so'nggi holat dagi obrazini tasvirlashga erishgan.

Xokisor inson Malik aka ajdodlar ruhini qayta-qayta bejiz eslamaydilar. Kezi kelganda yana bir tarixiy voqeani aytmasdan o'tib bo'lmaydi. 1993 yil iyunda ustoz rassom butun ijodiy faoliyati davomida mehnat qilib kelgan Nizomiy nomidagi pedagogika institutining badiiy-grafika fakultetida yong'in paydo bo'ldi. Eng havfisi shunda ediki, ustoz rassomning shu binodagi ijodxonasida "Sohibqiron Temur", "Mirzo Bobur" kabi shoh asarlari saqlanayotgan edi. Qarangki, faqtgina shu asarlар turgan xona yong'indan mutlaq zarar ko'rмаган. Bu ham buyuk allomalarining arvohlari kuchi bo'lsa ajab emas!

Tarixiy shaxslar obrazini yaratish naqadar mushkul. Bu mushkullklarni ijodkor tinimsiz mehnat mashaqqatlari bilan dadil yenga olgan. Rassomning ko'plab portretlafida buyuk siymolar obrazi zamonaga hamohang darajada gavdalanganligini ko'ramiz va bixtiyor hayratlanamiz.

Amir Temur, Beruniy, Bobur, Ibn Sino, Jomiy va Navoiy, Al Razi, Rudakiy, Al Xorazmiy kabi bir qancha yirik arboblar, olim, shoir, mutafakkirlarning obrazlarini jonli tasvirlaydi.

Tarixiy mavzudagi boshqa asarlarida musavvir xalqparvar qahramonlar obrazini hamda ozodlik uchun bo'lgan xalq qo'zg'olonlari mohiyatini ochib beradi. Bu borada, ayniqsa, "Spitamen qo'zg'oloni" asaridagi jang payti tasviri e'tiborga molik. Rangtasvirchi-rassom M.Nabiiev avloddan-avlodga hikoya qilinib kelinayotgan tarixiy voqealarni astoydil o'rganib, tarix sirlarini jonli ranglarda tasvirlashga muvaffaq bo'lgan. Ana shunday tarix sirlaridan biri Iskandar Zulqarnaynga qarshi jang qilgan so'g'diyalarning qahramoni bo'l mish Spitamen edi.

Shunga o'xshash "XVII asrdagi Samarqandda hunarmandlar qo'zg'oloni", "Jizzaxdagi 16-yilgi qo'zg'olon" deb nomlangan kartinalari ham diqqatga sazovor.

Musavvir Malik Nabiiev shogirdlari ko'p ustoz, rassomlarning yetakchisi desak mubolag'a bo'lmaydi. Rassom maktab o'quvchilarining ham yaqin do'sti. M. Nabiiev o'z ijodiy ishlari bilan nafaqat shahar, balki qishloq maktablarida o'quvchilar va tasviriylar san'at o'qituvchilari davrasida qiziqarli uchrashuvlar, suhbatlar bilan qatnashib, ularning bilim olishlarida ko'makdosh bo'lmoqda. Bu esa rassom-murabbiyning har tomonlama faol ijodkor ekanligining belgisidir.

MANNON SAIDOV

Respublikada xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor, dastgohli rangtasvir san'atining atoqli vakillaridan biri Mannon Abdusamadovich Saidov 1920 yili Toshkent shahrida tavallud topgan. Dehqonehilik va savdo ishlari bilan shug'ullangan otalari juda erta dunyodan o'tadilar. U paytda Mannon 11 yoshda edi. Beshta farzandni tarbiyalab o'stirish onalari zimmasiga tushadi.

Rassom Mannon Saidov 1939 yili o'rta maktabni tugatgandan so'ng respublika badiiy bilim yurtiga o'qishga kiradi. Ammo bilim yurti urush yillarda Samarqand shahriga ko'chirilgach, oilaviy sharoit og'irligi sababli M.Saidov Samarqandga borib o'qishga imkoniyati bo'lmaydi.

1942-1945 yillarda u zavodda oddiy ishechi bo'lib ishlaydi.

Urush tugagandan so'ng 1945 yildan boshlab o'zi dastlab tahlil ko'rgan badiiy bilim yurtida o'qishni davom ettiradi. Bu yerda A.P.Lunyov va Malik Nabiievdan ta'lim oladi. Bilim yurtini muvaffaqiyatli tugatib 1947 yilda Sankt-Peterburg shahridagi tasviriylar san'at, haykaltaroshlik va arxitektura oliygohida dastlab

taniqli rassom Troshev, keyinchalik mashhur rassom logonson ustaxonasida ijod sirlarini o'rganadi va shu institutni muvafqaqiyatli tugatadi. 1953 yildan boshlab Benkov nomidagi badiiy bilim yurtida pedagogik faoliyatini boshlaydi. 1956-59 yillarda esa Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika institutining badiiy grafika fakultetida o'qituvchi bo'lib ishlaydi. Mana shu villardan boshlab rang-barang kompozitsiyalari bilan ko'rgazmalarida qatnashib, ixlosmandlar hurmatiga sazovor bo'ladi. 1956 yilda rassomlar uyushmasiga kiradi. Rassom ijodiy va pedagogik faoliyatini birga olib borib tasviriy san'atni targ'ib va tashviq qilishda ham faol ishtirok etib keladi. 1959 yildan boshlab M.Saidov San'at oliy dargohida o'z pedagogik va ijodiy faoliyatini davom ettiradi. 1964-1984 yillarda esa shu institutda rangtasvir kafedrasini boshqarib, ko'plab yoshlarga ta'lim beradi. San'atkori hozirgi paytgacha shu institutning professori sifatida faoliyat ko'rsatdi.

Rassomning "Askiya" mavzusiga bag'ishlangan bir nechta asarlari bo'lib, unda o'zbek xalqiga xos samimiy kulgi ishqibozlari ning ma'nnaviy qiyofasi o'z aksini topgan. 1973 yilda ishlangan mana shu kartinada choyxonada hazil-mutoiba qilib o'tirgan o'zbek kishilarining xatti-harakatlari, sho'x qahqahalari rassom tomonidan ustalik bilan tasvirlanganini ko'ramiz. Mannon Saidov xalqimizning mehnatkash kishilarini, tarixiy voqealari, O'zbekiston tabiatini rang-barang ko'rinishda tasvirlab muvaffaqiyat qozondi.


Bu o'rinda ayniqsa "Oila", "Askiya", "Xumson", "Uzum terishda", "Kattaqo'rg'onlik paxtakorlar", "Tog' manzarasi", "Hosil" kabi o'nlab asarlarini misol keltirish mumkin.

G'OFUR ABDURAHMONOV

O'zbek rangtasvir san'atining iqtidorli vakillaridan biri, taniqli rassom G'ofur Abdurahmonov ijodi takrorlanmas namunalarga ega.

G'ofur Abdurahmonov rangtasvir san'atining ko'pgina janrlariga dadil murojaat qila olgan rassom sifatida ajralib turadi. Bu o'rinda ayniqsa tematik kompozitsiyalar, manzara, natyurmort, portret janrlaridagi faoliyatlarini ta'kidlash maqsadga muvoziqdir.

U 1936 yili ishchi oilasida (otalari Muhammadjon aka paxta zavodida ishchi bo'lib ishlaganlar), Toshkent viloyatidagi Toshkent (eski Kalinin) rayoni Ko'kterak qishlog'ida dunyoga keladi. Tasviriy san'atga bo'lgan ishtiyobi juda erta uyg'ongan bo'lib, dastlab maktabda, rasm o'qituvchisi K.P.Chibisov qo'lida ta'lim ola boshlaydi. Rasmiga bo'lgan qiziqishning mustahkamlanishida turli sabablar ta'sir o'tkazganini eslab rassom shunday deydi: "Eski



shahar bozorining bir chetida shiddat bilan matoga tasvir tushirayotgan bir rassomning jonli obrazlari ko'z oldimidan hamon ketmaydi. Obrazlar shunday jonli ediki, bozordagi harakat yaqqol sezilib turardi, ayniqsa qop ko'tarib ketayotgan hammol, bozorning orqasidagi machitga tashrif buyurayotgan chollar tasviri bo'yoqlarda o'z aksini topgan edi. Bu tasvirlarni ko'rib, rasm chizish naqadar zavqli ekanini yana bir bor his qilgan bo'lsam kerak". Rassom yoshlik yillaridagi bunday xotiralardan ko'plab voqealarni eslaydi. Xullas, rasmga bo'lgan qiziqish uni 14 yoshida P.P.Benkov nomidagi Respublika badiiy bilim yurtiga o'qishga yetakladi. Muvaffaqiyatli imtihonlardan so'ng rassomlar H.Rahmonov, M.Nabiyev, keyinchalik yuqori kurslarda esa T.Oganesov, I.Qo'ziboyev kabilarning qo'llarida tasviriy san'atsirrlarini o'rGANADI. O'sha yillarda P.P.Benkov nomidagi respublika badiiy bilim yurtida rang-tasvir sirlarini ancha mukammal o'zlashtirib olishiga imkoniyatlar bo'lganini rassom quvonib eslaydi. Bilim yurtini tugatar ekan, "Xirmonda" nomli diplom ishini himoya qiladi.

Bilim yurtidagi talabalik yillarida qiziqishlar va intilishlar, eskiz, etyudlar ustida olib borilgan izlanishlar zoye ketmadni. Bilim yurtdidan keyin u 1955 yili Toshkent shahridagi M. Uyg'ur nomli Toshkent davlat san'at (o'sha paytdagi A. N. Ostrovskiy nomli Toshkent teatr va rassomchilik) institutiga o'qishga kiradi. Oliy o'quv yurtining dastlabki yillarida ustozlar c'tiboriga tusha boshladi. Birinchi kursda o'qigandayoq ishlarining rang-barangligi, pishiqligi bilan ajralib

turardi. Bu yerda u R. Ahmedov, A. Kirvonos kabi rassomlar qo'llida ta'lif oldi. G'osur Abdurahmonov talabalikning 1-yozgi ta'tili paytida 100 dan ortiq etyud ishlab, ustozlarining maqtoviga sazovor bo'lgan edi. 1960 yili institutni tugatishiga 1 yil qolganda diplom himoyasiga chiqadi. Shu yilning o'zidayoq, o'zi o'qib ta'lif olgan P.P.Benkov nomli badiiy bilim yurtiga taklif qilinadi. Shunday qilib, talabalik yillardayloq pedagoglik faoliyatini boshlab yuboradi. Institutni esa 1961 yili "Shaxtyorlar" nomli diplom himoyasi bilan tugatadi. Talabalik yillarini eslab Issiqko'l, Angren, Olimaliq kabi joylarda o'nlab manzaralarni kuzatganligi va u joylarda ko'plab etyudlar ishlaganligi, ana shu vaqtlardayloq manzara janriga nisbatan qiziqishi shakllanganini ta'kidlaydi.

"Ustozlar aytgan narsani bajarish eng sevimli ijod jarayoni edi. Yaxshi ishlarni ko'rib, shunday ishlashni orzu qilardik, etyud, nabroskalar muhimligini bilar edik. Ustozlarimizning esa ishimizga fikr aytishini juda istar edik. Bu intilishlarimiz zoye ketmadi shekilli"-deb ta'kidlaydi G'osur aka. 1961 yillardan boshlab mustaqil yaratilgan ijodiy kompozitsiyalari bilan ko'rgazmalarda aktiv ishtirok etadi. U 1965 yilga kelib esa rassomlar uyushmasining a'zoliga qabul qilindi. Bir necha yillik ustozlik ijodiy izlanishlardan so'ng ana shu rassomlar bilim yurtida direktor bo'lib ishlay boshlaydi. Bu esa rassominning nafaqat ijodiga, balki uning pedagogik faoliyatiga berilgan yuksak baho edi.

Rassom uchun yanada mas'uliyatli davr boshlanadi. Tinimsiz ijod va rahbarlik faoliyatlarida qattiq, mehnat talab qilinad edi. O'n yilga yaqin direktor, o'n to'rt yillik rassomchilik bilim yurtidagi pedagoglik davrida ko'plab navqiron yoshlarga murabbiylik qildi. G'osur aka direktorlik paytlarida bilim yurtida ta'lif olgan talabalardan Shuhrat Abdurashidov, Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov, Alisher Mirzayev, Akmal Ikromjonov kabi o'nlab o'zbek xalqining iqtidorli rassomlari yetishib chiqqanini alohida ta'kidlash kerak. G'osur aka ning qo'llarida ta'lif olgan, bugungi kunda tasviriy san'atni ko'pgina sohasida ijod qilayotgan shogirdlaridan B. Nazarov (kino rassomi), K. Karimov (naqqosh), Sh. Rashidov (san'atshunos) kabi rassom va haykaltaroshlarni misol qilib keltirish mumkin.

Rassom yaratgan kompozitsiyalari keng qamrovligi va rangbarangligi bilan alohida ajralib turadi. Bu ayniqsa "To'y", "G'alaba", "Baxmallik qizlar", "Qirq birinchi yildagi kuzatuv", "Hosil bayrami" kabi asarlarida ochiq ko'rindi.

Rassom G'osur Abdurahmonov ijodining ajralmas va o'ziga xos tomonlaridan yana biri natyurmort janri bo'lib, o'z natyurmortlarida ona tabiat sahovatini mahorat bilan tasvirlab beradi.

"Qo'shiq" asarini tomosha qilar ekansiz tabiatning jozibali ohanglari bilan inson qalbidagi tuyg'ular hamohang jarang-layotganini tinglaganday bo'lasiz. Bahor gullari to'shalgan qirlar, ularga mahliyo bo'lgan qizlarning nafis harakati, tog' cho'qqilari, shuningdek, olisdagi bulutlarning bir-biri bilan uzviy bog'liqligi bo'yoqlarda tasvirlanishi kishini o'ziga sehrlab qo'yadi. "Baxmalda tong" nomli manzarasida esa tabiatda yangilanayotgan kun rassom tomonidan ilg'ab olingan. Tasvirda erta tongdagi jonlanish, yet bag'ridagi barcha borliqning uyg'onayotganligi yaqqol sezilib turibdi. Bu asarlar tomoshabinda yaxshi kayfiyat uyg'otish bilan birga maroqli dam olishga yordam beradi. Tabiatga bo'lgan muhabbatni uyg'otadi va estetik zavq baxsh etadi. Rassom ijodida manzara janriga bo'lgan qiziqish kurtaklarini uning dastlabki etyudlaridayoq ko'rish mumkin. G'osur Abdurahmonov Frantsiya, Polsha, Bolgariya kabi xorijiy mamlakatlarda ijodiy safarlarda bo'lib, bir qancha yutuqlar bilan qaytdi. Xorijda, Mustaqil Mamlakatlar Hanido'stligining bir qancha shaharlarida bo'lib o'tgan ko'rgazmalarda rassom asarlarini olqish va qiziqishlar bilan qabul qilishdi.

Hozirgi tasviriy san'at yangi yutuqlardan darak bermoqda. Rangtasvir san'ati borasidagi bunday yangilanishlarning shakllanishida G'osur akaga o'xshagan rassomlar ijodining ta'sir kuchi yaqqol seziladi. G'osur aka nafaqat rassom, tajribali pedagog sifatida bir qancha rassomlar, rassom o'qituvchilarning ustozи hamdir.

HAYKALTAROSH DAMIR RO'ZIBOYEV

Haykaltaroshlik san'atining o'lkamiz hududidagi zamonaviy jihatlarini iste'dodli ijodkor Damir Ro'ziboyev faoliyatida yaqqol ko'rish mumkin. Dastlab rangtasvir va grafika san'ati bilan shug'ullangan Damir Ro'ziboyev haykaltaroshlik olamiga asosan 60- yillarda kirib keladi.

U 1939 yilda Samarqandda tug'ilgan. 1958 yilda esa Respublika badiiy bilim yurtini muvaffaqiyatlil tugatadi. Ana shu bilim yurtida ta'lim olgan yillari taniqli rassom A.N.Volkov bilan tanishishi uning ijodiy faoliyatini shakllanishida katta ahamiyat kasb etdi. Mashhur rangtasvir ustasi A.N.Volkovning ta'siri bo'lsa kerak. Damir Ro'ziboyev haykaltaroshlikda rangtasvir va grafikani qo'shib yangicha muvaffaqiyatga erishish niyatida ijod yo'liga astoydil kira boshladi. D.Ro'ziboyev haykaltaroshlik san'atining o'tmishtagi rangli namunalarini o'ziga xos an'anaviy maktab ekanligini ham o'rganib chiqqan, musiqa va tasviriy san'atning o'rtasida azaldan bog'liqlik mavjudligini kuzatgan. Shuning uchun ham u bir qancha asarlarida xalqimizning musiqa merosiga, og'zaki ijodiga murojaat etdi.

San'atkor ijodida shakl va hajmlarning o'ziga xosligini, harakatlarni tabiiylik bilan tasvirlanishi, u tanlagan mavzularning rang-barang va keng qamrovligidan ham yaqqlol sezish mumkin. 60-yillarda ishlagan bir qancha haykallarida xalqimizning madaniy hayoti va ziyolilar qiyosasini aks ettirgan asarlarga duch kelamiz. 1962 yilda ishlangan "Choyxona" deb nomlangan asarida keksa va nuroniyl chollar suhbati, harakatlari va xarakterlari sharqona bir ko'rinishda aks ettirilgan. San'atshunos olim R.Taqtosh portreti, rassom V.Savitskiy va Saida portretlarida zamondoshlarimiz obrazlari to'laqonli ifodasini topgan. 1965 yilda rassomlar ittifoqiga a'zo bo'lib kirishi haykaltaroshning san'atdagi ijodiy mas'uliyatini yanada oshirdi.

Endi uning asarlarida yangicha izlanishlar, obrazlarni chuqurroq tahlil qilish zamonaviy haykaltaroshlikda o'z o'rnni qidirayotganligini ko'rsatadi. Haqiqatda ham, 60-yillarda yaratilgan bir qator asarlaridayoq Damir Ro'ziboyevning ijodiy muvaffaqiyatlari aniq ko'rindi. O'tmish haykaltaroshligidan ta'sirlanib yaratgan "Qora relief" asarida qadimgi rivoyatlarni eslatuvchi qiyosa gavdalananadi. Bir qator portretlarida esa zamonaviy ruh va hamyurtlarimizning obrazlari o'z aksini topgan. Bu o'rinda yog'ochdan ishlangan "Saida" (1962) portretida go'zallik va latofat ichki bir tuyg'u bilan aks etganligi diqqatga sazovordir. Yetmishinchchi yillarning boshiga keliboq, haykaltaroshning asarlarida badiiy ifodalar qamrovi kengaydi. Masalan, chuqr falsafiy mushohadalarga ega bo'lgan Abu Rayhon Beruniy portreti bu o'rinda diqqatga molik. U 1972-75 yillarda ijodiy izlanishlar bilan birqalikda O'zbekiston rassomlar ittifoqining haykaltaroshlik bo'limini (sektsiyasini) boshqaradi. 70-yillarning ikkinchi yarmiga kelib esa haykaltaroshning ijodi mazmunan va shaklan yanada boyidi. "Sozandalar" (1977) deb nomlangan asarida katta bir bayramona tus aks ettirilishi bilan birga har bir obrazning o'ziga xos xarakteri, xususiyati kishi e'tiborini jalb qiladi. Damir Ro'ziboyev haykaltaroshlik san'atiga birdaniga kirib kelgani yo'q. O'zbekiston hududidagi qadimgi haykallarini taniqli arxeologik va san'atshunos olimlar G. Pugachenkova, B. Tursunovlar bilan hamkorlikda qidirib topdi va o'rgandi. Bu jarayonlarda ularni shaklu shamoyilini tahlil qilar ekan, o'tmish haykallarida o'ziga xos bir olamni kashf etdi. Shuning uchun bo'lsa kerak, san'atkor o'tmish haykaltaroshligidagi an'analariga qayta-qayta murojaat qiladi.

Damir Ro'ziboyev dastlab grafika va rangtasvir san'ati bilan astoydil shug'ullanganligi uchunmi yoki o'tmish haykaltaroshligidan katta taassurot olganligi natijasimi rangtasvir san'atini haykaltaroshlikka singdirmoqda.

Damir Ro'ziboyev haykaltaroshlik san'atida katta bir maktabni o'tab kelayotir. Uning izlanishlari rang-barang usublarga boy. Buni biz san'atkor ijodida rangli haykaltaroshlik san'atining yuzaga kelganligi orqali guvohi bo'lishimiz mumkin. D. Ro'ziboyev haykallardagi shakl va hajmlarga bo'yoq berish bilan ularning schrli olamini yanada mo'jizali qila oladi. San'atkor bu bilan qoniqmasdan, haykalda aks ettirilayotgan voqeanning rangin sirlarini matolarda yanada to'ldiradi. Yana bir muhim tomoni Damir Ro'ziboyevning izlanishlari kelajak muammolarini talqin qilishga qaratilgan. San'atkor ko'tarinkи ruh bilan musiqa, rangtasvir asarlarini o'rganib o'z haykallarida jamlashga intiladi. Haykaltaroshning ajoyib fazilatlaridan yana biri uning asarlarida hissiy mazmundorlik boyib borayotganligidadir. Ana shunday mazmundorlik orqali u inson ma'naviyatini tobora to'laroq qamrab ifodalashga harakat qiladi. Damir Ro'ziboyev asarlarini kuzatar ekanmiz, O'zbekistonning va butun jahonning klassik haykaltaroshlik san'atini qiziqib o'rganganligini aniq sezamiz.

JO'LDOSBEK QUTTIMURODOV

Qoraqlapog'iston tasviriy san'ati ravnaqiga hissa qo'shib kelayotgan atoqli haykaltarosh Jo'ldosbek Quttimurodov o'z xalqining ma'naviy go'zalligini jonlantirish bilan tomoshabinlar hurmatiga sazovor bo'lib kelmoqda. Haykaltarosh Jo'ldosbek Quttimurodov 1934 yilda Kegayli rayonining Oqtuba qishlog'ida tug'ilgan. Maktabdan so'ng Respublika rassomchilik bilim yurtida A.P.Lunyovdan ta'lim oladi. Keyinchalik San'at institutida tasviriy san'at sirlarini astoydil o'rganadi. Shu tarzda Jo'ldosbek Quttimurodov 1960 yillarda haykaltaroshlik san'atiga erkin ijodiy izlanishlar bilan dadil kirib keladi.

Jo'ldosbek Quttimurodovning "Orzu" (1960), "Arslon" (1965), "Bosh kiyimli qiz" (1965), "Kelin" (1965) kabi bir qancha asarlarida go'zallik, latofat, qoraqlapoq xalqiga xos an'analar mujassam-lashganini ko'ramiz. Haykaltaroshning ijodiy kamoloti ayniqsa "Iskandar Zulqarnayn" (1967), "Shamol" (1967-68), "Nihol" (1970), "Beruniy", "Oqqush va qiz" (1970-1978) kabi asarlarida yaqqol seziladi. Uyg'un tasvirlanishlar, ya'ni badiiy obrazning jonliligi, butunlilagini ta'minlanishi Jo'ldosbek Quttimurodov asarlarida har jihatdan o'z ifodasini topgan. Bu o'rinda ayniqsa "Baliqlarni qutqarayotgan Anaxita" (1981), "Ikkiyuzlamachi ayol" (1980), "Farhod" (1981), "Guldursun" (1982), "O'tirgan qiz" kabi haykallari e'tiborga molik. Taniqli haykaltarosh Jo'ldosbek Quttimurodov

tasviriy san'atda o'z yo'li va o'z uslubini topar ekan, bu o'rinda ham jahon madaniyatidagi ilg'or namunalarga tayanib, sharq xalqlarining an'ana va turmush tarziga hurmat-ehtirom bilan qaraydi.

ILHOM JABBOROV

Ilhom Jabborov 1945 yili 30 iyunda Chust rayonining Olmos qishlog'ida tavallud topgan.

Azal-azaldan amaliy san'at ustalari bilan mashhur bo'lган bu qadimiy Chust zamonamizning taniqli haykaltaroshi Ilhom Jabborovning ona yurti hisoblanadi. Olmos qishlog'idagi mакtabda 8 yillik ma'lumotni olgandan so'нг Ilhom 1961 yili Toshkent-dagi badiiy bilim yurtining teatr bezakchisi bo'limiga o'qishga kiradi. Ma'lumki, tasviriy san'atning markaziy maktablaridan bo'lmish bu bilim yurtida rasm ishslash san'atining barcha qirralari o'rgatilar edi. Teatr bezakchi rassomi bo'lishning murakkab jihatlari mavjudligi sir emas. Bilim yurtida unga taniqli rassom Grishenko ustozlik qilgan. Ana shu yillar Ilhom Jabborov uchun tasviriy san'at sirlarini o'rganishida alohida bir mакtab vazifasini o'tagan. Bu yerda u teatr bezakchiligi bo'limini tugatib Naman-gandagi teatrga ishga boradi. Atoqli musavvir O'rol Tansiqboyev ta'kidlaganidek, san'atkor bo'lish ulkan baxt, ammo uning mashaqqatlari ham bor. Tasviriy san'atga bo'lган ishtiyоq bo'lg'usi haykaltaroshni 1966 yilda san'at institutiga boshladi. Bu yerda u taniqli haykaltarosh Anvar Ahmedovdan saboq oldi.

Ma'lumki, haykaltaroshlikni o'rganishda qalamtasvir sirlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yerda olingen ta'lim 1971 yilgacha davom etib, san'at sirlarini o'rganishning keyingi bosqichi ham o'z samarasini bera boshladi. Albatta, ilk bora san'at sirlarini o'rganish ustozlarning mehru mahoratlariga bog'liq. Ilhom Jabborov bilim yurti va san'at institutida ta'lim olgan yillaridayoq o'zining iqtidori bilan ajralib turar edi. Shuning uchun ham u yaratgan asarlarda rang-baranglik, kompozitsiyalarning boyligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa uning "Xayol" nomli asari diqqatga sazovordir. Shunday qilib, Ilhom Jabborov ijodida o'ta rang-baranglikka boy haykallar vujudga kela boshladi. Haykaltarosh bir qator tarixiy allomalar obrazini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Bularidan, ayniqsa "Ibn Sino", "Farobiy", "Navoiy va Jomiy", "G'afur G'ulom" kabi asarlari e'tiborga molikdir. Haykaltarosh turli kompozitsiyalar, rang-barang portretlar yaratishga ekan, zamonalivay haykaltaroshlikda mahorat egasi ekanligini isbotladi.

Yangilanish, uyg'onish, ijodiy kamolot sari astoydil harakatlar Ilhom Jabborov ijodiga qanot baxsh etdi. U buyuk sarkarda Amir

Temur obrazini monumental haykalda tikiadi. Haykaltarosh Temur obraziga murojaat qilar ekan. Sohibqiron haqidagi adabiyotlarni, miniatyura tasvirlarni, rassomlarning ishlarini astoydil talqin qilganligini ta'kidlaydi.

— Amir Temur obrazini yaratish orzusi menda ilk bor bundan 25 yilcha avval paydo bo'ldi. O'shanda Samarcand shahrida bo'l-ganimda tepamda xuddi ulug' bobomiz ruhi uchib yurganday qalbim larzaga kelgan edi. Samarcandga ikkinchi marta borganimda Zarafshon bo'yida tepalikning ustida shoh ruhi shaharni qo'riqlab turganday ko'z oldimga keldi. Necha asrdan keyin yetib keldim, uchib keldim, deyayotganday... Haykalimning g'oyasi ham shu fikr-o'ylar, xayolda tug'ilgan obraz asosida shakllandi. Temur 27 davlatga madaniyat olib borgan, zolimlarning dodini bergen, qayerda qo'zg'olon bo'lsa, horib bostirib, tinchitib kelgan. Haykaldagi ot jilovini mahkam ushlab turganining ramziy ma'nosi bor - katta bir mamlakatni boshqarib turganday holati ifoda etilgan. Go'yo mamlakatda osoyishtalik, tinchlik gullab-yashnasin, deb turganday g'oya ilgari surilgan", deya e'tirof etadi haykaltarosh.

Darhaqiqat, Ilhom Jabborov bugungi monumental haykaltaroshlikka dadil kirib kelgan va bu sohada o'zining ulkan asarlarini yarata olgan yetuk ijodkordir.

XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston haykaltaroshlik san'ati ham aniq bir qiyofani o'zida jamladi. Bu borada samarali ijod qilgan rassomlardan Hakimxo'ja Husniddinxo'jayev, Bapiro Yakov Iosifovich, Abdumomin Boymatov, Eynulla Aliyev, Jo'ldosbek Quttimurodov, Anvar Ahmedov, Ilhom Jabborov, Ulug'bek Mardihev kabi ko'plab haykaltaroshlik san'ati ustalarini misol keltirish mumkin.

Atrof- muhitning badiiy boyligi xalq yoki millatning ma'naviy qiyofasini o'ziga xos gavdalinishida mahobatli haykallar alohidagi o'rinda turadi. Toshkent, Samarcand, Buxoro kabi respublikamizdagи shaharlarda sayr qilsak ko'plab salobatli haykallarga duch kelamiz. Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Beruniy, Ibn Sino, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom kabi o'zbek xalqining sevimli farzandlarining obrazlari muhrlangan monumental haykallar qad ko'targan.

Monumental haykallarda qonli janglarda halok bo'lgan otabobolarimiz qiyosalari ham mukammal ifoda etilgan. Afsonaviy xalq qahramonlari, dostonlardagi Alpomishu Barchin, Farhodu Shirinlar obrazlari ham o'zgacha talqin qilingan. Xillas, O'zbekiston haykaltaroshlik san'ati xalqimiz ruhiyatiga mos shaklu shamoyilini topa olgan.

JAVLON UMARBEKOV— O'zbekiston xalq rassomi

Rangtasvir san'atida ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgan iste'dod egasi Javlon Umarbekov 1946 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan.

1961-1966 yillarda P.P.Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtida ta'llim oladi. Ana shu talabalik yillarining o'zida-yoq. Toshkent shahrida o'tkazilgan ko'rgazmada qatnashib (1965) "Hosil" nomli asari bilan bиринчи mukofotga sazovor bo'lgan. Rassom Javlon Umarbekov 1966-1972 yillarda sobiq. Butunit-tifoq Davlat kinematografiya institutida tahsil ko'rgan. Mana shu yillari ham bir qator asarlari bilan ko'rgazmalarda ishtiroy etib, san'at ixlosmandlari hurmatini qozondi.

San'atkor ijodining dastlabki namunalaridayoq sharqona ruh yaqqol ko'zga tashlanadi. Buning zamirida musavvirning sharq an'analarini puxta o'rganganligini ko'ramiz.

Javlon Umarbekov "Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning yoshligi"ga bag'ishlangan, 1968 yilda yaratilgan asarida ikki do'sting sharqona obrazini tasvirlaydi. Bu borada o'zining katta mahorat egasi, shuningdek, rangtasvir san'atining chinakam ustasi ekanini namoyon qila olgan. 1969 yilda ishlangan "Qo'shiq" deb nomlangan kartinasini kuzatar ekanmiz o'z davridayoq, o'ziga xos mo'yqalam yuritishda katta muvaffaqiyatni qo'lga kiritganiga guvoh bo'lamiz. Bu kompozitsiya yechimida nay chalayotgan o'spirin vigitning qiyosasi, yoshlik, beg'uborlik ijodiy parvozlar ruhini kuylayotgan bir ohangda mujassamlashgan.

Umuman, talabalik davridagi ijodiy namunalaridan bo'lmish yuqorida qayd qilingan asarlaridagi obrazlarni mutanosib tasvirlanishi ramziy ifodalar bilan kompozitsiyani uyg'unlashtirgan. Rassomning talabalik yillariga tegishli diqqatga sazovor ishlaridan yana biri "Mening do'stim" (1971 yil) deb nomlangan. Unda o'zbekona kaysiyat bilan yo'g'rilgan asar orqali Javlon Umarbekov rassom do'stiga va kompozitsiyadan o'rinni organik siyosiga mehr va muhabbatini ifoda etadi. Javlon Umarbekov o'z ustozi Chingiz Ahmarovdan nasaqat ta'llim olibgina qolmasdan san'atga sadoqat, ajodolar merosiga hurmat va muhabbatni ham o'rganadi. "Suvga" (1975), "Yoz" (1976), "Birinchi qor" (1977), "Oltin natyurmort", "Avtoportret" (1975), "Suvga kelayotgan ayol" kabi asarlarida rangtasvir san'atining ilg'or zamonaviy an'analarini mukammal egallay boshlagani aniq ko'zga tashlanadi. Javlon Umarbekov institutni tugatgach, Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyining bosh rassomi, keyinchalik (1974 yildan) A.N.Ostrovskiy nomidagi (hozirgi M.Uyg'ur nomidagi San'at) Toshkent teatr va ras-

somlik institutida o'qituvchi bo'lib ishladi. 1984 yildan 1987 yilgacha O'zbekiston Rassomlar uyushmasi bosh-qaruvining raisi sifatida ham samarali xizmat qiladi. 1980 yillarga kelib rassomning mazmunan keng qamroqli va kompozitsiya jihatidan yanada murakkab asarlari tasviriy san'at ixlosmandlaring hurmatiga sazovor bo'ldi.

Bunday asarlarda tarixiy -falsafiy g'oyalar olg'a surilar ekan, ijodiy izlanishlar bilan bog'liq mehnat samarasini yuzaga chiqqanini ta'kidlash o'rinni. Javlon Umarbekov doimo ijodiy izlanish va yangilik yaratish ruhi bilan yashab kelayotgan san'at ustalaridandir. Asarlari bir-birini takrorlamaydi. 1990-1995 yillarda yaratilgan "Gullar", "Natyurmort: Gullar va tikanlar", "Meshkob", "Natyurmort: Idish-tovoq" kabi asarlari bu o'rinda fikrimizning yaqqol dalilidir.

Haqiqatda ham rassomning issiq tabiatli sharqona bo'yoqlari qamrovi ichidagi rangin asarlarini kuzatar ekansiz o'zbekona ruhni ilg'aysiz. San'atkor rang-barang kompozitsiyalar, portretlar, boy mazmunli manzara va natyurmortlarning muallifidir. Uning ijod namunalarida san'at qiyomiga yetkaziladi, professional tugallik o'z o'rnini topadi.

Javlon Umarbekov asarlarda tarixiy shaxslar qiyofasi to'laqonli kompozitsiyalar qamrovida gavdalanadi. Bu o'rinda ayniqsa, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur kabi tarixiy shaxslar obrazlarining to'laqonli gavdalanishi diqqatga sazovordir. Keyingi



yillardagi asarlarida rassom milliy merosimizga, jumladan amaliy bezak san'atidagi an'analarga e'tiborini kuchaytirdi. U xalq amaliy san'atidagi ramziy belgilar kalitini topish, o'sha siru asrorlarni bo'yoqlar orqali jonlantirish borasida izlanishlar olib bormoqda.

BAHODIR JALOLOV

Bahodir Jalolov — O'zbekiston xalq rassomi. Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofotining sovrindori, zamonaviy rangtasvir san'ati rivojiga hissa qo'shib kelayotgan taniqli rassomlardan biridir.

Bahodir Jalolov 1948 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. 1968 yili P.P.Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtini tugatadi. 1974 yilda esa I.Ye.Repin nomidagi Sankt-Peterburg rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik institutining bezatish monumental fakultetini tamomlaydi. Yoshlik yillarda portret san'atining ustasi Abdulhaq Abdullayevdan ta'lim oladi. Rassom ijodiy faoliyatining dastlabki namunalarida milliy his-tuyg'ular turli xil ranglarda o'z ifodasini topadi. Bahodir Jalolov tasviriy san'at borasidagi tahsilni davom ettirib keyinchalik Chingiz Ahmarov, Ro'zi Choriyev, Milnikov, Korolevlardan tasviriy san'at sirlarini o'rgandi. Shu sababli ham u yaratgan portretlarda mahoratlilik ko'zga aniq tashlanib turadi. Uning ijodidagi tuyg'ular uyg'unligi tomoshabinni o'ziga mahliyo etib qo'yadi. Darhaqiqat, "Raqsning tug'ilishi" kompozitsiyasi o'zbek raqqosalarini ulug'labgina qolmasdan, ularga bo'lgan samimiy hurmat va muhabbatni namoyon qilganini ko'ramiz.

Bahodir Jalolov portret san'atida ko'p yutuqlarga erishdi. Uning to'laqonli asarlarida o'zbek xalqining sevimli farzandlari siyimosi o'z ifodasini topgan. Bu o'rinda ayniqsa, akademik rassom O'rol Tansiqboyev, buyuk olim, akademik Vohid Zohidov, o'zbek san'atining inashhur darg'alari Komil Yormatov, Malik Qayumov, Muhitdin Rahimov, Hamro Rahimova, Akrom Toshkanboyev, Damir Ro'ziboyev kabi ulug'lar siyimosi so'zimizga misoldir. Rassom inson shaxsini doimo o'rganishga, uni har tomonlama his qilishga intiladi. Darhaqiqat, yuqorida ko'rganimizdek Bahodir Jalolov ijodiy faoliyatining asosiy ko'lami insonlar obrazini, ya'ni portretlar yaratishga qaratilgan. Tasviriy san'atda u kishi o'z rangin olamini yanidan yangi jilolar bilan tobora boyitib kelmoqda.

Bahodir Jalolov erishgan yetuklikning yana bir jihat shundaki, u sharq va g'arb an'analarni o'zlashtirib, ana shu an'analarda-gi mushtaraklikni topib, uni yuzaga chiqarishga muvaffaq bo'la olgan rassomdir. Ana shuning uchun ham xorijiy davlatlarning san'at

ixlosmandlari e'tiboriga tuyassar bo'lgan. Rassom o'zining monumental pannolari bilan dunyoning ilg'or davlatlarida hashamatli saroy va binolarni bezatib kelmoqda. Rassom ijodiga taniqli olim Tilab Mahmudov baho berib shunday deydi: "Bahodir uchun inson va insoniyat tarixi jumboq edi. U bu jumboqni yechishga, o'z xalqi tarixini bashariyat tarixi bilan hamohang nuqtalarini topishga harakat qiladi". Darhaqiqat, rassom keng tafakkurli ijodkor sifatida odam, olam, koinot sirlarini o'rganishga intiladi.

Bahodir Jalolov ijodida olam sirlari o'zgacha talqin etiladi. Bu o'rinda "Gul va Rayhon afsonasi", "Nido", "Baxt qushi", "Abadiy va navqiron Hindiston", "XXI asr madonnasi" kabi ko'plab asarlarni misol keltirish mumkin.

Mustaqil O'zbekiston tarixiga bag'ishlangan O'zbekiston xalqlari tarixi muzeysi devoriga ishlangan monumental ko'rinishdagi surat jiddiy va mazmunli tarixiy dalillar orqali salobatli tasvirlanishi bilan har qanday tomoshabin e'tiborini o'ziga jalb qila oladi. Polotnoni kuzatgan tomoshabin tarix sirlariga ega bo'lgan o'zbek xalqining buyuk va qudratli ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qiladi. Ummumani, tasviriy san'at asarlarini bir marta ko'rishdayoq to'liq idrok qilib bo'lmaydi. Albatta, uni qavta va yana qayta ko'rish, kuzatish, mushohada qilish tufayli asar kompozitsiyasida ifoda etilgan g'oyalarni yangidan-yangi qirralarini kashf etish mumkin. Bahodir Jalolov ijodiyoti shu jihat bilan qadrlidir. U o'zbek tasviriy san'ati rivojiga astoydil hissa qo'shib kelmoqda.

ALISHER MIRZAYEV

Alisher Mirzayev - O'zbekiston xalq rassomi, rangtasvir ustasi. U 1948 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. Zamonaviy rangtasvir san'atining ilg'or vakillaridan biri. Serquyosh O'zbekiston tabiatining rangin olamini tasvirlashda beباho yutuqlarni qo'lga kiritib kelayotgan iste'dod egasidir.

Rassom Alisher Mirzayev xalqimiz an'analariga, boy va sermazmun o'tmish tasviriy san'at merosiga hurmat bilan qaraydi. Rassom o'z xalqiga xos psixologik kechinmalarini chuqur tahlil qila oladi. Shuning uchun ham kartinalari fikr tiniqligi bo'yoqlar majmuasi bilan uyg'unlashgan. Eng muhimi, rassom o'z ijodiy izlanishlarida buyuk bir parvozlarga astoydil harakat qilayotgani e'tiborga molikdir. Alisher Mirzayev kimgadir taqlid qilmaydi, o'z izlanishlari uni chinakam san'at bag'riga tortadi. Yetmishinchchi yillarning ikkinchi yarmidayoq Alisher Mirzayev asarlari ixlosmandlar e'tiborini qozona boshlagan. Bu uning polotnolarga tushirgan bo'yoqlari xalqimiz ruhiyati va xarakteriga to'la-to'kis mosligi bilan izohlanadi. Rassom

tinimsiz mehnat qilar ekan, har bir kungi harakatida chinakam ijodiy parvozlarga intiladi.

Alisher Mirzayevning yana bir ajoyib xususiyatlaridan biri - o'z ijodiy yutuqlaridan qoniqmaydi, ijod namunalariga tanqidiy ko'z bilan qaray oladi, ana shu tanqidiy nazarlar san'atkorni yangi ijodiy dovonlar sari yetaklaydi. Rassom asarlari bugungi kunda xal-qimiz hurmatini qozonish bilan birga, ko'pgina xorijiy davlatlarda ham ma'lum va mashhurdir. Bu borada, ayniqsa, Germaniya, Bolgariya, Ruminiya, Italiya, Frantsiya kabi xorijiy davlatlarda qo'lga kiritgan muvafqaqiyatlarini ta'kidlamoq kerak.

Rassom ona tabiat bag'rida o'zbekona an'analarni, to'ylarni, beg'ubor o'zbek bolalarini, lobar qizlarni, mushtipar onalar kabi obrazlarni aks ettira olishga muvaffaq bo'ladi. Jumladan, "Toshkent - tinchlik va do'stlik shahri" triptixi, "Bolaxonada", "Intizorlik", "Yosh oila haqida qo'shiq" va shular kabi o'nlab asarlari moybo'yoqlarda o'z aksini topdi. Umuman rassom tabiat va jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarni e'tiborsiz qoldirmaydi. Rassom tasvirlarga shunday jon bag'ishlaydiki, undagi go'zallik sirlari odamlarni ezgulikka yetaklaydi. Tasviriy san'at qudrati, rassom ta'biri bilan aytganda, bezovta yuraklarni tinchlantiradi. Darhaqiqat Alisher Mirzayev ana shunday tuyg'u va fikrlar bilan o'z qalb qo'rini matolarga jo qilmoqda. Bunday mafifat va go'zallik tarqatish, chinakam kuchga ega bo'lgan haqiqiy san'at asarini yaratish - bu rassomning asosiy shioridir.

AKMAL IKROMJONOV

Akmal Ikromjonov - taniqli rangtasvir ustasi, o'z fikr va g'o-yalariga ega bo'la olgan talantli rassomdir. Uning ijodiga nazar tashlar ekanmiz, davr ruhi, davr kayfiyati, quvonchi-yu tashvishlari namoyon bo'layotganini ko'ramiz.

Akmal Ikromjonov 1952 yil Toshkent shahrida tavallud topgan. Sankt-Peterburg shahridagi I.Ye.Repin nomli institutda san'at sirlarini o'rgandi. Ijodiy parvozlar sari yo'l olar ekan, Akmal Ikromjonovning asarlari ko'rgazma zallarida tez-tez namoyish etila boshlandi. Bu ko'rgazmalarga qo'yilgan kartinalarda uning ijodidagi takrorlanmas va mazmundor kompozitsiyalar bilan boyitilayotganini ko'rish mumkin edi. Rassom ijodining o'ziga xosligi tasviriy san'at taraqqiyotidagi uslublarni yaxshi bilganliklari va shu zamонага xos kompozitsiyalar yarata olganligi bilan ham izohlanadi. Avvalo shuni aytish kerakki, bundan bir necha yil muqaddam Akmal Ikromjonov o'z davrining achchiq qismatlarini bir necha kompozitsiyalar da mahorat bilan ko'rsata olgan. Ayniqsa, "Orol mening dardim"



(1988), "Hisor fejiasi" (1989), "Chaqmoq" (1989) kabi asarlarida davrimizning murakkab muammolarini aks ettiribgina qolmasdan, tabiatga, insoniyatga mehr-shafqat,adolatparvarlik zarurligini ta'kidlaydi. Bu asarlar har bir kompozitsion yechimini tugalligi, fikrlarning tiniqligi bilan tomoshabinga voqeqlikni to'la-to'kis anglatadi.

Sobiq sovet davrida bunday muammolarni ochiq-oydin aytish juda mushkul vazifa edi. Rassomni ona tabiatga bo'lgan mehr-muhabbati tinch qo'ymaydi. Ayni o'sha yillarda u ketma-ket Orol dardalamlarini aks ettiruvchi qator asarlarni yaratadi.

Akmal Ikromjonov bir qator asarlarida avangardchilarga xos an'anani davom ettirib o'z fikrlari bilan bu yo'naliishi boyitishga harakat qiladi. Masalan "Nigoh" nomli polotnosi bu o'rinda diqqatga sazovordir. Unda Salvador Dali qiyofasi orqali hayotning nozik, shuningdek muammolarga boy sirlarini o'ziga xos tarzda ochib berishga erisha olgan. Bu bilan birga u Salvador Daliga bo'lgan juda katta hurmatini ham aks ettiradi.

Rassom ijodiga nazar solar ekanmiz, ijodining yanada serqirra va rang-barangligini guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, bu hol hind xalqining hayoti va tarixiga bag'ishlangan asarlarida ko'zga yaqqol tashlanadi. Akmal Ikromjonov Kalkuttada bo'lgan kezlarida hind xalqlarining tarixini, hayotini, e'tiqodini astoydil kuzata olganligini Hindiston I" - "Kamasutra", "Rohib" kabi asarlari orqali ilg'aymiz. Rassom hayotni, uning sirlini o'z ichki kechinimalari bilan

yoritib berishga harakat qiladi. Bu o'rinda esa uning "Darvesh" nomli asarini misol keltirish mumkin.

Akmal Ikromjonov asarlari bir qator xorijiy davlatlarning ko'rgazmalaridan, muzeylaridan o'rin olgan. Jumladan, Amerika, Angliya, Germaniya, Hindiston, Turkiya va boshqa davlatlarda uning ixlosmandlari ko'p. Rassom doimo ijodiy izlanishlar bilan band. Ana shuning uchun ham rassom faoliyatida tez-tez yangi-yangi asarlariga duch kelamiz. Bu mehnat va harakatlar zoye ketmadi. Rassom el nazariga tushdi. 1990 yilda Hamza nomidagi Davlat mukofotining sovrindori bo'ldi. Darhaqiqat, rassomning har bir ko'rgazmasida yangicha ijod namunalariga duch kelar ekanmiz, har birida o'ziga xos parvozlar namoyon bo'ladi.

Rassom portret san'ati borasida ham ijod qilib, buyuk bobomiz Mirzo Ulug'bek siyimosini to'laqonli gavdalantirishga muvaffaq bo'ldi. Bu portret maxsus konkursda a'lo baholanib, etalon sifatida qabul qilindi. Bu ham rassomning mahoratidan darak. Umuman, rassom turli kompozitsiyalar bilan birgalikda portret san'atining ustasi sifatida ham allaqachon shuhrat qozongan.

Akmal Ikromjonov ijodidan keng o'rin olgan sohalardan biri natyurmort janridir. To'qsoninchi yillarning boshlarida ko'rgazma-ga qo'yilgan "Guldonli natyurmort" asari kishi e'tiborini o'ziga tortadi. Qiziqarli tomoni shundaki, dorivor o'simliklardan bo'y-madoron gullarining tasvirlanishi va bu yerdagi shisha idishlarning material jihatdan xarakteri to'la-to'kis o'z qiyofasini topa olgan. Rassom ishlagan natyurmortlarda predmetning xususiyatlari mahoratli tasvirlanishi bilan birga falsafiy mushohadalar ranglarda aks etadi.

Rassom rang-barang natyurmortlarida buyum va narsalar meva va subzavotlarning go'zalligini tasvirlabgina qolmasdan ona tabiat sir-asrorlarini talqin qilishga erishadi.

Akmal Ikromjonov o'zi tengi hamkasblarining ko'p hollarda peshvosi bo'lib mazmundor ko'rgazmalar tashkil qiladi. Bu borada Muhammadxon Nuriddinov, Sobirjon Rahmetov, Imyar Mansurov kabi do'stlari bilan amalga oshirgan ijodiy ko'rgazmalari e'tiborga molikdir. Bir qaraganda ularning ijodiy hamkorligida qandaydir uyg'unlik mavjud bo'lib ko'rinsa-da, ammo har birining o'zgacha izlanishi, o'zgacha yutuqlari namoyon bo'ladi. Masalan, S. Rahmetovning asarlarida sharqona miniatyura xarakteriga xos an'analar balqib tursa. Muhammadxon Nuriddinovning ijodida esa portret janri yetakchidir. 90-villarda tasviriy san'atining ilg'or vakillari bo'lmish bu rassomlar ayni paytda yoshlarga mahorat sirlarini o'rgatishmoqda.

TEMUR SA'DULLAEV

Xalqimiz tasviriy san'at merosi an'analarini o'zlashtirib, zamona ruhiyatiga, xarakteriga mos ravishda davom ettira olish har qanday musavvirla ham nasib etavermaydi. Buning uchun avvalo tasviriy san'at tarixini o'zbek mumtoz adabiyoti bilan chambarchas va uzviy bog'liqligini rassom chuqur his qilmog'i lozim.

Mashhur musavvir Chingiz Ahmarovning sevimli shogirdlaridan biri Temur Sa'dullayev bu borada ulkan ijodiy muvafqaqiyatlarga erisha olgan rassomlar sirasiga kiradi. Darha-qiqat, rassomning bu borada o'z ijodiy yo'li, sermazmun asarlarining alohida yaratilish tarixi ham mavjud.

Temur Sa'dullayev 1948 yil 20 aprelda Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi Qangli qishlog'ida Sa'dullaxon ismli diniy ilmlardan yaxshigina xabardor bo'lgan savodxon kishining oilasi-da tavallud topadi.

Sa'dullaxon ota o'z farzandlarini ilmi va diyonatli bo'lishga yetaklagan, shuningdek, qishloq ahli ham u kishining maslahatlari, yo'l-yo'rqliklari bilan ish ko'rishgan. U kishi bilimdon bo'lish bilan birga dutor chertib xirgoyi ham qilib yurganlar.

Umuman, Temur Sa'dullayevning ajdodlaridan nafosat sirlarini yaxshi bilganlar ko'p bo'lishgan. Shulardan biri Xoshimxon ismli amakilari Rustami doston, Alpomish kabi xalqning sevimli qahramonlariga bag'ishlab ko'plab rasmlar ishlab yurganlar.

Temur Sa'dullayev dastlab o'zi tug'ilib o'sgan qishlog'idagi Ali-sher Navoiy nomli mакtabda ta'lim oladi. Bu mакtabda Navoiyxonlik kechalari, uchrashuvlar bo'lib turar edi. O'sha anjumanlarda qatnashgan yosh rassom Temur ishlagan rasmlar ko'pchilikning e'tiborini tortar edi. Shunday qilib, Temur mакtabda o'qigan paytidayoq, miniatyura san'atiga xos tasvirlarni ishtiyoq bilan kuzatar va ular-dan ilhomlanar edi. Shuning uchun ham taniqli rassom Chingiz Ahmarov bilan uchrashish, undan maslahatlар olish istagini o'z akasi Amirga bildiradi.

- Eng baxtli kunlarimdan biri ilk bor 1966 yilda o'zim ishlagan ko'plab suratlarni ko'tarib akam bilan Chingiz Ahmarov huzuriga bonganimiz hali-hali ko'z o'ngimda turibdi,- deb eslaydi rassom.

Temur Sa'dullayev o'sha kishining maslahatlari bilan shu yili Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining tasviriy san'at o'qituvchilari tayyorlaydigan fakultetiga o'qishga kiradi. Bu yerda taniqli rassom professor Malik Nabiyevdan tahsil oldi. Yosh rassomning shakllanishida bu mehribon pedagogning xizmatlari kattadir. Albatta bunday insonlarning ishonchini oqlash rassomga juda katta mas'uliyat yukladi.

Ana shuning uchun ham u o'z ustida yanada jiddiyroq ishlar ekan san'atning nozik va mashaqqatli yo'lini cho'chimasdan bosib o'tishga erishadi. Bu muvaffaqiyatlar 70-yillardagi asarlaridayoq yaqqol ko'zga tashlangan edi. Ayniqsa ko'pchilik tomoshabinlar e'tiborini qozongan "Navro'zda qizlar bazmi", "Qiz portreti", "Omon Matjon", "Navoiy va Behzod", "Xosiyat Bobomurodova", "Solih Mutalibov" kabi asarlarini misol keltirish mumkin. Adabiyot va tasviriy san'atning chambarchas bog'liqligi rassom ijodining bosh mavzusidir. Temur Sa'dullayev ijodiy faoliyati davomida bu an'anaga sodiq bo'lib kelmoqda. Saksoninchi yillarga kelib rassom portret janri borasida yanada sermahsul ijod etdi.

U bir qator shoir va adiblarning obrazlarini muvaffaqiyatli tasvirlab berishga erisha oladi. Atoqli olim Hamid Sulaymonov portretini yaratish bilan rassom otaxon ustozga bo'lgan samimiy muhabbat va hurmatini ifodalaydi. Rassomning bir qator devoriy suratlardagi ijodi e'tiborga molikdir. Bu o'rinda "Afshona", "Algomish va Barchinoy", "Behzod" kabi asarlari diqqatga sazovordir.

Temur Sa'dullayev doimiy ravishda ko'plab kitoblarga badiiy bezak berish bilan birga davrimiz rassomlari ichida miniatyura san'atidagi an'analarni yaxshi o'zlashtirganligi bilan ajralib turadi. U miniatyura an'analarni tasviriy san'atning zamonaviy yutuqlari bilan uyg'unlashtirib o'z ovoziga ega bo'lgan xalqchil rassomdir.

NE'MAT HAKIMOV, OSIMXON VOSIXONOV

Hayotimizning har jabhasida eng ko'p uchraydigan tasviriy san'at turlaridan biri grafika san'atidir. Bu san'atning ayniqsa kitob, gазета, журнал grafikasiga xos namunalari yanada keng tarqalgandir. Bir qaraganda kishi e'tiboriga unchalik tashlanavermaydigan zamonaviy kitobat san'atining o'ziga xos mashaqqatli yo'li va mehnat jarayoni mavjuddir.

Ne'mat Hakimov va Osimxon Vosixonov bu borada samarali ijod qilishmoqda. Biz birinchi sinfdanoq o'quvchilarimizga beradigan bilimlarni ular qanchalik tez va oson o'zlashtira olishlari uchun darslikdagi tasvir va bezaklarning roli, o'rni benihoya kattadir. Kitob grafikasi san'atiga kitobning tuzilishiga qarab muqova, titul muqova yaratish kiradi. Avvalo kitobga berilayotgan tasvir va bezaklar shu kitob mazmunini ochib berishga xizmat qilmog'i shart.

Ne'mat Hakimov o'z ijodida o'zbek adabiyoti ilg'or namoyondalari yaratgan asarlarni badiiy tasvirlar bilan bezaydi. Rassom Samarqand viloyatining Nurota tumanidagi Oqtepa qishlog'ida

1951 yilda tavallud topgan. Tasviriy san'at borasida Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika institutining badiiy-grafika fakultetiga professor Malik Nabiyevdan ta'llim olgan. 1980 yillarning boshlaridayoq el e'tiboriga tushgan.

Ne'mat Hakimov dastlab tinchlik, yoshlik, tabiatni asrash kabi mavzularga murojaat etadi. O'z asarlarida xalqimiz xarakteriga xos an'analarni tabiatimizning; beg'ubor go'zalliklarini tasvirlaydi va shu barobarida uni qadrlash naqadar muhimligini uqtirdi. Rassomning ijodiy yutuqlari shundaki u davr ruhi bilan hamohang borishga intiladi. Bu o'rinda ayniqsa san'atkorning "Uyin-gizga tinchlik" asari e'tiborga molik.

Rassom plakatlarini kuzatar ekanmiz undagi mavzularning hozirjavobligi, dolzarbligi e'tiborimizni tortadi.

Ne'mat Hakimov ijodining sermahsul va serma'no bir bo'lagi Alisher Navoiy obraziga qaratilgan. Ma'lumki, xalqimizning ilg'or rassomlaridan Abdulhaq Abdullayev rangtasvirda, Vladimir Kaydalov qalamtasvirda, Eynulla Aliyev va boshqalar haykaltarosh san'atida Navoiy obrazini tasvirlagan bo'lsalar, plakat san'atida bu muvaffaqiyatni Ne'mat Hakimov qo'lga kiritgan. Umuman, plakat san'ati tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borishda tasviriy san'atning boshqa turlariga nisbatan hozirjavob va jangovardir. Yuqorida rassomni plakat san'atidan tashqari zamonaviy kitobat san'atidagi ijodiy yutuqlarini eslagan edik. Bu o'rinda uning atoqli adib Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon" kabi asarlarga ishlagan grafik tasvirlari diqqatga sazovordir.

Rassom zamonaviy she'riyatimizning ilg'or vakili Abdulla Oripovning "Saylanma" kitoblarini yanada badiiy va nafis bo'lishiga o'z ulushini qo'shdi.

Kitobat san'atiga xuddi shuningdek samarali hissa qo'shib kelayotgan rassom Osimxon Vosixonovning ijodida ham talaygina muvaffaqiyatlarni ko'ramiz. U teatr va rassomchilik institutida Chingiz Ahmarov, Baxtiyor Boboyev, Alisher Mirzayev qo'li-da ta'llim olib san'at sirlarini o'rgandi. Miniatyura va zamonaviy kitobat san'ati bilan birgalikda yaxshigina rangtasvir asarlарini yaratdi. O.Vosixonov keyingi yillarda tez-tez ijodiy ko'rgazmalarda o'zining rang-barang asarlari bilan faol ishtirok etib kelmoqda.

XULOSA

Vatan... Bu so'z nimani anglatadi? Vatan sarhadi qayerdan boshlanib qay nuqtada nihoya topadi? Vatan deganda avvalo o'sha muqaddas sarhadning yer-suvi, muhiti, tabiatni, unda makon topgan jonliyu jonsiz mavjudotlarni anglamoq kerak. Ota-bobolardan meros qolgan ma'naviyatni, san'atni va jamiki qadriyatlarini tushinmoq kerak. Kimgaki shu narsalar aziz tuyulsa, kimki shularni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga odatlangan bo'lса, demak, u chin ma'nodagi vatanparvardir. Xuddi shu nuqtai nazardan qaralganda biz istiqloldan keyingina Vatan so'zining tub mohiyatini ilg'ay boshladik. O'sha muqaddas yo'lda Beruniy, Ulug'bek, Navoiy, Bobur, Ogahiy singari ulug' bobokalonlarimizning hayot va ijod nuri bizga har qachongidan-da qadrliroq qimmatliroq tuyuldi.

Istiqloldan burungi davrlarda o'sha qadriyatlar kommunistik masakra doirasida davrga moslashtirib, cheklashlar, chegaralashlar bilan o'r ganilar edi. Ming taassuski, yosh avlod ulug' vatan-doshlari ma'rifiy qarashlaridan ko'ra Yevropa madaniyatini ko'proq o'qib-o'r ganishga mahkum etilgan edi. Bugungi kunda esa bunday majburiyatlarga chek qo'yildi. Endilikda Sharq mutafakkirlari, san'attkorlari ijodini o'r ganishga jadal kirishildi.

Ma'lumki, O'zbekiston tasviriy san'ati tarixi qamrovi keng mavzudir. Uni bir-ikki risolada batatsil o'r ganib bo'lmaydi. Bundan tashqari dastlabki ishda xato va kamchilik bo'lishi tabiiy. Muhim jihat shuki, mazkur risola eng qadimgi davrlardan hozirgi kunga cha taraqqiy etgan tasviriy san'at borasida muxtasar ma'lumot beradi. Risola muallifi qadimgi dunyo tasviriy san'at ustalari ijodiyoti bilan hozirgi zamon rassomlari ijodi orasida mushtarak nuqtalarni topib mehru muhabbat ila tavsif qiladi.

Bir qarashda san'at juda oddiy tushunchadek tuyuladi: surat chizishlar, ko'rgazmalar, mutaxassislar mulohazalari... Biroq, bu tushuncha kundan-kunga o'zgacha ma'no kasb eta boradi. Buni muhtaram kitobxon, mazkur risolani o'qib o'zingiz ham tushunib yetgandirsiz: temuriylar davriga oid ko'pgina noyob suratlar respublikamiz muzeylarida emas. Amerika Qo'shma Shtatlari, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Rossiya kabi davlatlarniig nufuzli muzeylarida saqlanayotgan ekan. Bu suratlarni asl makoniga keltirish tugul ulardan nusxa ko'chirishning o'zi mashaqqatli ish. Xorijdagi tasviriy san'at biznesmenlari bu durdona asarlar qadr-qimmatini juda yaxshi bilishadi. Duru javohirga bergusiz bunday san'at namunalari ulug' bobolarimiz mo'yqalamiga mansubligidan cheksiz iftixor tuyg'usiga chulg'angan muzeylarimizni shunday shoh asarlardan bo'sh ko'rib ko'nglimiz bir qadar cho'kadi. Ammo

ko'ngilga bir narsa taskin beradi: bobolarimiz zabit etgan bu cho'qqilar biz uchun orzu bo'lib qolmas. Istiqlol ochgan yo'l bizni ezzuliklar sari yetaklaydi, musavvirlar yuragiga cho'g' tashlaydi. Oqqan daryo oqmay qolmas, deganlaridek bir vaqtlar jahonni larzaga solgan bu mintaqa ilgarigi ilg'or shuhratiga ega bo'lsa ajabmas.

Vatan... Vatan deganda nimani tushunamiz? Olis moziyning yagona guvohi - Zamin qa'rida nelar yashiringan? Toshlardagi bitiklar, obidalarning omon qolgan devorlaridagi tasvirlar neni so'zlaydi? Bir mungli kuy kabi yangraydi tasvirlar...

Yaqin o'tmishda vatanparvarlik tuyg'u emas, balandparvoz gaplarni ifoda etadigan tushuncha edi. Bugungi yoshlar o'sha tushunchaning asl ma'nosini ilg'ab kamolga yetadilar.

San'at — yosh avlodda nafosatni tarbiyalovchi vosita. Azalazaldan san'at shunday vazifani ado etib kelgan. Jumladan, tasviriy san'at sohasiga ham shu nuqtai nazardan diqqat-e'tibor qaratishimiz beziz emas. Yosh avlodni vatanga mehru sadoqat ruhida tarbiyalashda tasviriy san'atning ham roli katta.

O'tgan asrda tasviriy san'atga g'oyaviylik jihatidan yondoshilgani sir emas. Oxir oqibatda ko'pgina asarlar u qadar shuhrat topmadni. Kamoliddin Behzod kabi dong'i yetti iqlimga yetgan musavvirlar diyorimizda keyingi davrlarda yetishib chiqmagani shu bilan izohlansa kerak. So'nggi yillar ichida esa yosh musavvirlar g'arb tasviriy san'atini puxta o'r ganib avangardizm, modernizm yo'nalishlarida samarali ijod qilmoqdalar. Albatta bu tasviriy san'atimizni milliy zamindan ajralib qoldi degan gap emas. Tasviriy san'at milliylik o'zanida zamонага moslanmoqda. Bizning davrda fan-tehnika rivoji shuni taqozo etayotir.

Jahonning bir qator rivojlangan mamlakatlarida o'zini madaniyatli deb sanaydigan kishilar tasviriy san'atni alohida ixlos bilan o'rganishadi. Suratlар ko'rgazmasini tomosha qilish, muzeylarga borib durdona asarlardan zavqu shavq olish ularda ursiga aylangan. Ochig'ini aytadigan bo'lsak, bizda o'shandek mehru ixlos yo'q hisobi. Bu esa maktab partasidayoq jiddiy tayyorgarlikni taqozo etadi. O'quvchilar respublikamizning nomdor musavvirlari ijod va hayot yo'lini bilihsha, ularning asarları borasida o'z fikr-mulohazalariga ega bo'lishsa qanday yaxshi!

Ko'p yillar mobaynida bizda arxeologiya fani u qadar taraqqiy etmay keldi. Arxeologik qazishmalar jarayonida topilgan noyob ashyolar o'zga yurtlarga olib ketildi. Bularning hammasi yana Vatan tarixiga taqaladi, vatanparvarlik tushunchasi asosi mo'rt bo'lganligini bildiradi. Demakki, san'atning hamma tarmoqlarini o'rganishni zamонning o'zi taqozo qilib turibdi.

MUNDARIJA

Kirish.	3
I bob. Tasviriy san'at tushunchasi, uning tur va janrlari	5
San'at o'zi nima?	5
Tasviriy san'at turlari.	6
Tasviriy san'at janrlari.	9
Tasviriy san'atda kompozitsiya.	10
II bob. O'zbekiston hududidagi qadimgi tasviriy san'at.	12
Ibtidoiy tasviriy san'at namunalari haqida.	12
Tasviriy san'at tarixining keyingi takomil bosqichlari	13
Yunon-Baqtriyadan arablar istilosigacha bo'lgan davrlardagi tasviriy sanat ravnaqi.	17
Qadimgi haykaltaroshlik san'ati.	19
Qadimgi rangtasvir san'ati.	23
III bob. Islom madaniyati davrida tasviriy san'at.	30
Temuriylar davrida tasviriy san'at.	32
Kamoliddin Behzod	35
IV bob. XIX asr oxiri va XX asr O'zbekiston san'ati.	46
Iskandar Ikromov	50
Chingiz Abdurahmonovich Ahmarov	51
Abdulhaq Abdullayev	53
Malik Nabihev	54
Mannon Saidov	58
G'osur Abdurahmonov	59
Haykaltarosh Damir Ro'ziboyev	62
Jo'ldosbek Quttimurodov	64
Ilhom Jabborov	65
Javlon Umarbekov	67
Bahodir Jalolov	69
Alisher Mirzayev	70
Akmal Ikromjonov	71
Temur Sa'dullayev	74
Ne'mat Hakimov, Osimxon Vosixonov	75
Xulosa	77

NORSAID OYDINOV

TASVIRIY SAN'AT TARIXI

(*O'quv qo'llanma*)

Nashrga

tayyorlovchi: Hamdam Ismoilov

Toshkent, «IJOD» nashriyot uyi, 2007

Muqova musavviri T.Sodiqov

Texn.muharrir S.Sodiqov

Kompyuterda sahifalovchi M.Altmisheva

*Original-maketedan bosishga ruvvat etildi 27.08.2007. Bichimi 60x90 '/
Ofset yog'ozzi. Tayms Tud garniturasi. Kegli 10,5. Ofset bosma usuli. Sharli bosma
tabog'i Nashr tabog'i 6,0. Adadi 737 nuxxada bosildi.
Sharhnomma 11-16-07. Buyurtma № 88*

«IJOD» nashriyot uyi, 100147. Toshkent, 2-Tol-ariq ko'chasi, 49.

*«Toshkent Islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasida chop etildi.
.00011. Toshkent. A.Qodiriy ko'chasi, 11.*

ҚИЛУҚ ҚҰЙЫМАГІ РО 15019501
Muddatda topshirilishi shart

Oldingi foydalanishla rəniqdori

26702



9 789945 324407

ISBN 978-9943-324-10-7